

**“SAHNA NUTQI” FANINI O‘QITISH JARAYONIGA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “Aktyorlik san’ati” (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi
- ❖ Dotsent I.Djumanov

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan
o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchi:

Tuzuvchi: “Sahna nutqi” kafedrasida dotsenti I.Djumanov

Taqrizchilar: Teatr eksperti: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist
F.U.Xo‘jayev
O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasida professor v.b. M.Xodjimato

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “29” yanvarda 1-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	15
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	22
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	91
V.	KEYSLAR BANKI.....	99
VI.	GLOSSARIY.....	105
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	108

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son, 2018 yil 19 dekabrda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi PQ-4068-son, 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrda “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi. Mamlakatimizda yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlashda so‘z san‘atning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning muhim poydevorlaridan biridir. O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti san‘atning turli sohalariga, ya’ni teatr, kino, radio, televideniye sohalariga kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishda teatr, kino, radio, televideniya ijod qilayotgan mutaxassislarning adabiy til normalarini o‘zlashtirish darajasi, sahnaviy nutqi, hamda uning badiiyligiga katta e’tibor qaratilishi shart. Respublikamizda so‘z san‘ati va uning tarbiyaviy vazifalari, fanining o‘ziga xos tavsifi, asosiy yo‘nalishlari va ularni o‘zlashtirishning nazariy va amaliy, uslubiy xususiyatlariga bo‘lgan talab va e’tibor tobora oshib bormoqda. Modulda aniq, ravon, go‘zal nutqning shakllanishi va takomillashiga, o‘zbek adabiy tilida ta’sirchan ifodadagi so‘z harakatiga zamin yaratayotgan qator texnik mashqlar va so‘z ustida ishlash jarayonlarining nazariy, tahliliy, ijodiy jihatlari yoritiladi. Dastur tuzishda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ko‘rsatilgan yo‘riqlar talablar, vazifalardan hamda

“Sahna nutqi” kafedrası professor-o‘qituvchilarining ko‘p yillik tajribalari, tahlillar va xulosalardan kelib chiqib tuzilgan.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog kadrlarni innovatsion yondashuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Fanning maqsadi va vazifasi

“Sahna nutqi” fanini o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlar predmetining maqsadi talabalarni namunali, ravon nutqini takomillashtirishga asos bo‘ladigan sahnaviy nutqini o‘zlashtirish, shuningdek, ularning teatr, kino, televideniye, radio estradaning ijro jarayonlarida jaranglaydigan jonli so‘z san’atining ta’sirchan, ifodaviy mukammaligini shakllantirish va mustaxkamlashni nazarda tutadi. Nutqiy texnik mukammallikka erishishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Fan tizimida sahna nutqini amaliy uslubiy o‘zlashtirish jarayonlarining o‘rnini asoslash, fanning xususiyati, mazmuni, mohiyatini yoritish, zamonaviy aktyorlik san’ati darajasidagi ijodiy jarayonlarida kasbiy mahoratini shakllantirish fanning asosiy maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Mustaqil nazariy, amaliy, ijodiy izlanish salohiyatini mustahkamlash, o‘zini tarbiyalash va mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishga yo‘naltiriladi. O‘quv mashg‘ulotlari jarayonida ma’ruza, amaliy va yakka mashg‘ulotlar olib borishda turli interaktiv uslublar va vositalar qo‘llaniladi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

“Sahna nutqi” fanini o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlar o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida tinglovchi quyidagilarni bajara olishi lozim:

- Ovoz ustida ishlash hamda ovoz jarangiga erishish jarayonlarining nazariy va amaliy asoslarini o‘zlashtirishi;
- Tovushlar talaffuzining aniqligi, ravonligi, mukammalligini ifodalovchi nutq a‘zolari; lab, jag‘, og‘iz bo‘shlig‘i, maromli va meyoriy faoliyatini ta‘minlovchi mashqlarini o‘zlashtirishi, erkin ko‘nikmalar hosil qilishi;
- Turfa tovushlar talaffuzining sof adabiy tildagi meyoriy talaffuzi va uni mustahkamlashning uslubiy, amaliy asoslarini harakatlanish maromlari va nafas organlarining vazifalarini bilishi va amaliy ijodiy ijro meyorlariga erishishi;
- Sahnaviy nutq texnikasining takomillashtiruvchi, mustahkamlovchi mashqlarning uslubiy-amaliy jihatdan o‘zlashtirish
- Aktyorlik va rejissyorlik yo‘nalishlarida malaka oshiradigan tinglovchilar sahna nutqi texnikasi, so‘z ustida ishlash va amaliy ijro mahorati, uning o‘rni hamda vazifalarini puxta bilishi va o‘zlashtirishi;
- Sahna nutqi mahoratini egallashda uslub va vositalardan foydalanish bilan birga tahlil orqali yangi asarlar majmuasi ustida ishlashga ko‘nikma hosil qilishi;
- Sahna nutqining mukammalligini ta‘minlovchi zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan tanishish va tatbiq qilish, muntazam o‘z ustida ishlash;
- Fanning ilmiy-uslubiy, ijodiy asoslarini shakllantiruvchi majmualarini o‘zlashtirish;
- Turli janrlardagi adabiy matnlarni tanlash, tahlil qilish hamda amaliy ijro jarayonlariga tatbiq qilish.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Bu modulni amalda bajarish uchun tinglovchilar ifodali o‘qish, nutq madaniyati, sahna nutqi yo‘nalishida o‘zlashtirgan jonli so‘zning nazariy va amaliy asoslari haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim. Aktyorlik va rejissyorlik yo‘nalishidagi tinglovchilarning nutq texnikasi va so‘z ustida ishlashning professional asoslarini shakllantirish va mustahkamlash uchun bugungi kun talabi darajasidagi bilimli, ongli va bilimli ijodkor kasb egasi bo‘lishi, komil inson bo‘lib tarbiyalanishida barcha fanlar bir maqsad sari uyg‘unliklikda faol ishtirok etadilar.

Nutq texnikasi, nafas, ovoz, talaffuz va so‘z ustida ishlashning tamoyillari “Aktyorlik mahorati”, gumanitar fanlar, ijtimoiy va boshqa fanlarni o‘rganishda,

tinglovchilar milliy tilimizning serjilo sofligini, ta'sirchanligi, g'oyaviy tarbiyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash, izlanishlar olib boradi, zamonaviy inovatsion texnologiyalar asosida fanni rivojlanishiga yo'naltiriladi. Pedagogika, psixologiya, filologiya va ijtimoiy fanlar, xorij teatrlari, jahon kinosi va televideniyasi yutuqlarini o'rganishi hamda o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligiga erishishga e'tibor qaratiladi. Sahna nutqi aktyorlik mahorati, rejissura, kasbiy psixologiya, ijod psixologiyasi, sahna xarakati va jangi, o'zbek tili, teatr tarixi fanlari va boshqa fanlarni o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fanning ilm fan va san'at sohasidagi o'rni

Respublikamizda so'z san'atining ilm – fan, ta'lim, san'at va madaniyat sohasidagi ahamiyati vazifalari keng qamrovlidir. Tobora tezkor rivojlanayotgan davrda so'z san'atining g'oyaviy, falsafiy, tarbiyaviy yuki va ma'suliyati yanada oshib borayotganligi, har qanday sohada turli kasb egalarining so'z qudrati va xikmatiga tayanayotganligi fanning ilm fan va san'at sohasidagi o'rniga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Sahna nutqi fanining maqsadi va vazifalari, o'qitishning interfaol usullari bilan uyg'unlikda kengayib bormoqda. Sahna nutqi fanining ruhiy ta'sir kuchi va tomoshabinlarning qalbi hamda ongini poklashdagi (katarsis) ahamiyati. Sahna nutqining – g'oyaviy, mafkuraviy, madaniy, ma'rifiy yo'nalishdagi tarbiyaviy vazifalari.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Tinglovchilarning **“Sahna nutqi” fanini o'qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlar** fani bo'yicha malakasini oshirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot– pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Asosiy qism: Fanga kirish

Asosiy qismda (ma'ruza) fanning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, teatr san'atida bo'layotgan o'zgarishlar, qo'g'irchoq teatridagi ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Tassavur va fantaziY. Ta'sirchan so'zga erishish omillari; Adabiy parchalar ustida ishlashning bosqichlari; Turli mavzudagi matnlar tahlili va talqini; Nutqni takomillashtiruvchi texnik mashqlar; Voqealar tizimida so'z harakati. Sahnaviy asarlarda obrazlar va obrazlilik; Barmoq vaznidagi she'rlarning taxliliy, nazariy va amaliy ijroviy, uslubiy hususiyatlari; Masallar ustida ishlashning tahliliy va amaliy ijroviy asoslari; Jonli so'z san'atining ta'sirchanligi, badiiy matnlar, ijro mahorati; Xalq og'zaki ijodi ijrochiligi; G'azal tahlili va ijrochiligi Monolog. Monolog turlari; Dramatik tur. Dramatik asarlar tahlili va talqini.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy ro'yxati

Tinglovchilar amaliy mashg'ulotlarda nutq texnikasi va so'z ustida ishlashning amaliy ijro jarayonlarini o'zlashtirishning uslubiy ko'nikmalarini o'rganadi. Amaliy mashg'ulotlarda nafas, ovoz, artikulyatsiya, diksiya hamda turli janrlardagi adabiy matnlarning tahliliy va talqin hususiyatlarini o'zlashtiradi. Ijro uchun tanlangan matnlarda quyidagi prinsiplarga tayanada: milliy istiqloq g'oyalari aks etgan, saralangan, badiiy pishiq, prozaik va she'riy asarlar misolida, fanning mohiyatini anglatuvchi va mavzular orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi matnlar tanlanadi.

Amaliy mashg'ulot mavzularini to'ldiruvchi shakl bo'lgani uchun asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarda talabalarning nazariy, amaliy, amaliy – yakka hamda mustaqil ish va ta'limiga e'tibor qaratiladi. Xar bir ma'ruzadan olingan nazariy bilimlar amaliyotda qo'llaniladi, talabalarni fanga bo'lgan qiziqishi oshadi, ilmiy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishga yordam beradi.

Fanni o'zlashtirishdagi texnik mashqlar, takomillashtiruvchi amaliy mashg'ulotlar ularni natijasini tekshirishda adabiy asarlardan olingan parchalar ustida muntazam ishlab boriladi. So'z ijrochiligida qonun qoidalar puxta o'zlashtiriladi.

Nafas olish mashqlarini yoga tizimi talablari bilan uyg'unlashtirish masalasi. Ovoz va talaffuz ustida ishlash – unli, undosh, sirg'aluvchi hamda portlovchi tovushlar talaffuzini qiroat talablari asosida takomillashtirish. Shevalarga xos talaffuzlarni adabiy til normalari darajasiga olib kelish masalalari. Matn ustida ishlash talablari – umumiy tahlil, mantiqiy urg'ular va skut (pauza)larni aniqlash. Ijro talablari – matn ustida ishlash jarayonida personajning nutqiy karakteristikasini yaratish masalasi. Ijro qilingan materialni yozib olingan shaklini eshitish va tahlil qilish. Mashhur aktyorlarning namuna darajasidagi nutqiy ijrosini eshitish va tahlil qilish. Multfilmlar personajlariga ovoz berish mashqini amaliyotga qo'llash jarayoniga innovatsion yondashish.

Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular

Nutq a'zolari va ularning faoliyati; Tana mushaklarini bo'shatuvchi kompleks mashqlar*; ArtikulyatsiY. Tilning faoliyati va yumshoq tanglay*; Ta'sirlanish va

kuch. Ovoz va uning manbalari. Ovoz jarangdorligini mustahkamlovchi mashqlar*; Nutq a'zolari faolligi va mutanosibligi; Talaffuz. Talaffuz mashqlari; tovushlar talaffuzini mustahkamlovchi mashqlar; Nutq texnikasini mustahkamlash uchun kompleks mashqlar; Sahna nutqi texnikasini mustahkamlashda innovatsion texnologiyalar Murakkab birikmalar asosida talaffuz mashqlari; Oddiy va murakkab tez aytishlar ustida ishlash; Sahna nutqi texnikasini mustahkamlovchi kompleks mashqlar; Sahnada so'z va xatti – xarakat uyg'unligi*; Matn tanlash va uning mantiqiy tahlili; Xalq og'zaki ijodi namunalari va ijro uslublari; Nutqiy ifodaviy o'zgaruvchanlikda xalq og'zaki ijodi namunalari; Intonatsiya; So'z ustida ishlash; Adabiy matnlarda fikr munosabat va xarakat faolligi; Voqealar tizimi, turli vaziyatlar haqida berilgan shart-sharoit asosida munosabat va jonli so'z erkinligi; Talaffuz mukammalligi, tasavvur va jon so'zni takomillashtiruvchi mashqlar tizimi ustida ishlashning amaliy asoslari; Tasavvur, fikr, so'z xatti-xarakati, tasavvuri eslash va yo'naltirish; Sahnaviy so'z, talaffuz ta'sirchanligi, o'zgaruvchanligini takomillashtiruvchi mashqlar, vazifalarning ijroviy amaliyoti; So'z xatti-harakati, voqealar tizimi, jonli so'z faolligi asosida ovoz, talaffuz va so'z mutanosibligi; Sahnaviy asarlarda obrazlar va obrazlilik; Badiiy so'z ijrochiligini takomillashtirish; Monologlar tahlili. Sahna nutqining barcha masalalarining ijrochilikdagi ko'rinishi; Kechinma san'ati; Monologlarda so'z xatti-harakatining roli; Obrazlarning nutqiy xarakteri ustida ishlash; Dialog tanlash va ular ustida ishlar. Amaliy mashg'ulotlardan tashqari talabalarning fanga bo'lgan malaka bilim va ko'nikmalari asosan yakka darslarda o'zlashtiriladi bunda tinglovchining o'z imkoniyatlariga qarab tanlangan repertuarlar mustahkamlanadi, tinglovchilar nutqida mavjud nutqiy kamchiliklar ustida yakka holda muttasil ish olib boriladi.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida rejalashtirilmagan.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchilar mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Respublika va jahon miqyosida o'tkazilayotgan bayramlarni tomosha qilish va tahlil qilish;
- internet ma'lumotlaridan foydalanish;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

Matn; Tez aytishlar; Sajlar. Masal, Monolog. Og‘zaki nutq badiiyligida ijrochi ovozi, xissiyoti va jismoniy xatti - harakatlari; Nutqni rivojlantirishga doir mashqlarni takrorlash; Mualliflar asarlaridan mustaqil ravishda shaxsiy repertuar tayyorlash; She‘r, g‘azal va boshqa badiiy asarlar ustida ishlash; Nasriy asarlar ustida ishlash; Dramatik asarlar ustida ishlash;

Dasturning informatsion-metodik ta‘minoti

“Sahna nutqi” fanini o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlar fanini o‘qitishda multemediya jihozlardan foydalanib, mavzular bo‘yicha ishlab chiqilgan POWER POINT formatdagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlardan, videoprojektor va kadaskoplardan foydalaniladi. Shuningdek, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar davomida ta‘lim menejmenti funksiyalari, maqsad va vazifalarini tavsiflovchi tarqatma materiallar, slaydlar hamda ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagilar ham qo‘llaniladi.

- didaktik materiallar tayyorlash;
- insert metodi;
- konseptual metod
- audio va video jihozlari
- statistik ma‘lumotlar
- internet tarmog‘i saytlari
- KEYS STADI metodi va boshqalar

biznes yo‘nalishida rejissyorlikning ishtiroki. Namuna darajadagi sahnaviy talqinning badiiy ahamiyati. Spektaklning badiiy talqinida rejissyorni hamda teatr jamoasining ijodiy qudratining ahamiyati.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Tasavvur va fantaziY. Ta‘sirchan so‘zga erishish	2	2		
2.	Adabiy parchalar tahlili	2	2		
3.	Turli mavzudagi matnlar tahlili va talqini	4	2	2	

4.	Nutqni takomillashtiruvchi texnik mashqlar.	4		4	2
5.	Voqealar tizimida soʻz harakati. Sahnaviy asarlarda obrazlar va obrazlilik.	4		4	2
Jami: 20		20	6	10	4

NAZARIY MASHGʻULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tasavvur va fantaziY. Taʼsirchan soʻzga erishish omillari

Diqqat tasavvurning jonlanishi, eslash, fikrlashning oʻziga xosligi va amaliy ifodaviy jarayonlari. Manzaralar tasavvuri va jonli soʻz. Ijodkor shaxs tarbiyasida diqqat va tasavvurning oʻrni, ahamiyati va vazifalari hamda ularni rivojlantirishning interfaol oʻyinli tizimlari. Eslash asosida fikr va soʻzning tugʻilishi, xotira, diqqat va tasavvurni faolashtiruvchi mashqlar.

Adabiy matnlar tanlash va tahlil qilishning mantiqiy, ijodiy namunalari. Manzarali adabiy matnlar tanlashning ijodiy prinsiplari: badiiy mukammallik, tasvirdagi goʻzallik, betakrorlilik, tabiiy va hayotiylik, taʼsirchanlik. Adabiy matnlar tahlili va talqinidagi uygʻunlik, badiiylik, taʼsirchanlik va uning amaliy, ijodiy, ijroviy xususiyatlari.

2-mavzu. Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlari

Badiiy yuksak chuqur mazmunli va rang-barang ifodaviy xususiyatga ega adabiy parchalar tanlash, tanishish va talabalar bilan taxlil qilib, ularda asarga nisbatan chuqur tushuncha, qiziqish uygʻotish. Tanlangan adabiy matnlar tahlili va muhokamasi jarayonida talabalar tasavvuri, ijodiy fantaziyasi, bilimi va amaliy ijro jarayonlariga layoqatini mustaxkamlash. Adabiy matnlar ustida ishlashning ilk bosqichlari jarayonida belgilangan vazifalar tizimi, ijrosini guruh talabalar oʻrtasida tahlil qilib, yutuq va kamchiliklari haqida fikr almashib, ularda adabiy parchalar ustida ishlash jarayonlariga intilish mexri va maʼsuliyatini oshirish.

3-mavzu. Turli mavzudagi matnlarda tahlil va talqin.

Adabiy matnlar tanlash va tahlil qilishning mantiqiy, ijodiy namunalari. Manzarali adabiy matnlar tanlashning ijodiy prinsiplari: badiiy mukammallik, tasvirdagi goʻzallik, betakrorlilik, tabiiy va hayotiylik, taʼsirchanlik. Adabiy matnlar tahlili va talqinidagi uygʻunlik, badiiylik, taʼsirchanlik va uning amaliy, ijodiy, ijroviy xususiyatlari.

4-mavzu. Nutqni takomillashtiruvchi texnik mashqlar.

Sof adabiy talaffuz, soʻzlardagi aniq, ravon, mukammal, jarangli va taʼsirchan ifodaga erishishni taʼminlovchi mashqlar. Turli vaziyat va shart-sharoitlardagi vazifalar orqali nutq aʼzolarining faolligi va texnik mukammalligiga erishish. Sonor tovushlar, birikmalar, jumlar, jamlamalar jamuljamligi. Fikr tasavvur, iroda va ifodaviy oʻzgaruvchanlik. Murakkab birikma va tez aytish ustida ishlash. Sahnaviy nutqning ifodaviy taʼsirchanligini mukammallashtiruvchi, jonli soʻz, muloqot iqtidorini takomillashtiruvchi voqea, berilgan shart-sharoit, vaziyat va holatlar asosida soʻzning aniqligi, ravonligi, taʼsirchanligi, fikr va tasavvur uygʻunligidagi oʻyinli mashqlar ustida ishlash. Tanlangan turli matnlar, soʻz birikmalari, murakkablashtirilgan tez aytishlar asosida talaffuz taʼsirchanligi, aniqligi, ravonligini takomillashtiruvchi mashqlar ustida ishlash. Nafas, ovoz, talaffuz, tasavvur va fikr uygʻunligi ustida ishlash. Erishilgan amaliy koʻnikmalarni turli matnlar bilan mustahkamlash.

5-mavzu. Voqealar tizimida soʻz harakati. Sahnaviy asarlarda obrazlar va obrazlilik.

Erkin hikoyalash mahoratini mustahkamlovchi omillar. Berilgan sharoit va voqealar tizimi asosida tasavvur, fikr, jonli soʻz munosabatning ifodaviy oʻziga xos holatlari. Soʻz boyligini oʻstiruvchi omillar, xalq ogʻzaki ijodi, sajʼlar, ertaklar, dostonlardan namunalarni tanlash va ifodali oʻqish. Spektakllarda ertaklar olami obrazlari. Turli personajlar dunyosi obrazlar ovozini oʻrganish va yaratish jarayonlari. Turli kuzatuvlar asosida insonlar nutqi, xatti xarakati, fikrlash tarzi asosida jonli soʻz. Jonli soʻzning ifodaviy taʼsirchanligini takomillashtiruvchi shart-sharoitlar. Soʻzning ravonligi, taʼsirchanligi, oʻzgaruvchanligini rivojlantiruvchi vaziiyalar, shart-sharoitlar vazifalar, voqealar.

AMALIY MASHGʻULOTLAR MAZMUNI

Maʼruzadan soʻng rejalashtirilgan dastlabki uch mavzu boʻyicha amaliy mashgʻulotlar maʼruza mashgʻulotining mavzusi asosida tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan yoʻnalish boʻyicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriq yozma, savol-javob tarzida yoki amaliy ijro va boshqa shakllarda bajarilishi mumkin.

Nazariy taʼlim rejalashtirilmagan amaliy mashgʻulotlar quyida keltirilgan rejalar asosida tashkil etiladi. Amaliy mashgʻulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga boʻlgan munosabatini yozma, ogʻzaki javob yoki amaliy ijro koʻrinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi koʻzda tutilgan. Amaliy mashgʻulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qoʻshimcha vositalar, shuningdek orkestr yoki xor jamoalari bilan amaliy ishlash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

1-amaliy mashgʻulot: Turli mavzudagi matnlarda tahlil va talqin.

Adabiy matnlar tanlash va tahlil qilishning mantiqiy, ijodiy namunalari. Manzarali adabiy matnlar tanlashning ijodiy prinsiplari: badiiy mukammallik, tasvirdagi go‘zallik, betakrorlik, tabiiy va hayotiylik, ta’sirchanlik. Adabiy matnlar tahlili va talqinidagi uyg‘unlik, badiiylik, ta’sirchanlik va uning amaliy, ijodiy, ijroviy xususiyatlari.

2-amaliy mashg‘ulot: Nutqni takomillashtiruvchi texnik mashqlar.

Sof adabiy talaffuz, so‘zlardagi aniq, ravon, mukammal, jarangli va ta’sirchan ifodaga erishishni ta’minlovchi mashqlar. Turli vaziyat va shart-sharoitlardagi vazifalar orqali nutq a’zolarining faolligi va texnik mukammalligiga erishish. Sonor tovushlar, birikmalar, jumlar, jamlamalar jamuljamligi. Fikr tasavvur, iroda va ifodaviy o‘zgaruvchanlik. Murakkab birikma va tez aytish ustida ishlash. Sahnaviy nutqning ifodaviy ta’sirchanligini mukammallashtiruvchi, jonli so‘z, muloqot iqtidorini takomillashtiruvchi voqea, berilgan shart-sharait, vaziyat va xolatlar asosida so‘zning aniqligi, ravonligi, ta’sirchanligi, fikr va tasavvur uyg‘unligidagi o‘yinli mashqlar ustida ishlash. Tanlangan turli matnlar, so‘z birikmalari, murakkablashtirilgan tez aytishlar asosida talaffuz ta’sirchanligi, aniqligi, ravonligini takomillashtiruvchi mashqlar ustida ishlash. Nafas, ovoz, talaffuz, tasavvur va fikr uyg‘unligi ustida ishlash. Erishilgan amaliy ko‘nikmalarni turli matnlar bilan mustahkamlash.

3-amaliy mashg‘ulot: Voqealar tizimida so‘z harakati. Sahnaviy asarlarda obrazlar va obrazlilik.

Erkin hikoyalash mahoratini mustahkamlovchi omillar. Berilgan sharoit va voqealar tizimi asosida tasavvur, fikr, jonli so‘z munosabatning ifodaviy o‘ziga hos holatlari. So‘z boyligini o‘stiruvchi omillar, xalq og‘zaki ijodi, saj’lar, ertaklar, dostonlardan namunalarini tanlash va ifodali o‘qish. Spektakllarda ertaklar olami obrazlari. Turli personajlar dunyosi obrazlar ovozini o‘rganish va yaratish jarayonlari. Turli kuzatuvlar asosida insonlar nutqi, xatti xarakati, fikrlash tarzi asosida jonli so‘z. Jonli so‘zning ifodaviy ta’sirchanligini takomillashtiruvchi shart-sharoitlar. So‘zning ravonligi ta’sirchanligi o‘zgaruvchanligini rivojlantiruvchi vaziyatlar, shart-sharoitlar vazifalar, voqealar.

Ko‘chma mashg‘ulot

Nutqni takomillashtiruvchi texnik mashqlar; Voqealar tizimida so‘z harakati. Sahnaviy asarlarda obrazlar va obrazlilik mavzularida tashkil etiladigan ko‘chma mashg‘ulotlar o‘quv auditoriyalaridagi dars jarayonlari va reyting nazoratlari, teatr sahnalaridagi spektakllar, kinoteatrlardagi filmlar taqdimoti orqali o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Aqliy hujum metodi va masalani yechish bosqichlari

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish

- *Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.*
- *Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.*
- *G‘oyalarni baholang.*
- *Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.*
- *Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish uchun guruhlashtirish mumkin.*
- *Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.*

Darsda qo‘llaniladigan “Insert usuli”

Matnni belgilash tizimi

➤ **Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan ta’lim oluvchiga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Ta'lim metodi va ta'lim texnologiyasi				
Ta'limda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari				
Ta'lim va tarbiyani tashkil etish shakllari				
Pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari				
Pedagogik texnologiya turlari				
Pedagogik texnologiyaning rivojlanish nazariyasi				
Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi				

**"Qarama-qarshi
munosabat" metodi**

Metod o'z mohiyatiga qo'ra o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- *mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;*
- *ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;*
- *tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;*
- *jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan, 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi;*
- *kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;*
- *jamoaning umumiy fikriga ko'ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.*

BBB metodi

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

1) *har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi;*

2) *guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.*

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

1. Talabalarining o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. Talabalarining mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi.

3. Talabalarni mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq tafsiloti quyidagicha:

– *Talabalar guruhlarga birlashtiriladi;*

– *Talabalarining yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasini o'rganiladi;*

– *Talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyiha 1-bandiga yozib boriladi;*

– *Talabalarining yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni boyitishga bo'lgan ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyiha 2-bandiga yozib qo'yiladi;*

– *o'qituvchi Talabalarni yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan tanishtiradi;*

– *Talabalar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;*

- bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'yiladi;
- mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.

" Keys -stadi " metodi

Keys-stadi (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keys – bu real xayotning «bir bo'lagi» (ingliz terminalogiyasida TRUE LIFE).

Keys – faqat vaziyatni to'g'ri yoritish emas, balki vaziyatni tushuntirish va baholashga imkon beradigan yagona ma'lumot kompleksi.

Keysda aks etgan vaziyat, bu real yoki sun'iy hodisani institusional tizimda ma'lum vaqtda hayotda yuzaga kelishini aks ettiradi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institusional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzda in'ikosidan iboratdir.

Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat subyekting hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Muammoli vaziyat. Bunda subyektni hozirgi sharoitda yoki kelgusida maqsadiga erishishiga xavf tug'diruvchi vaziyat tushuniladi

"Keys metodi"ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

“VEYER” texnologiyasi.

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoxarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “VEYER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEYER” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida; uning asosiylarini anglab yetish;
- yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo'yicha dalildan natajaga kelish.

FSMU texnologiyasi.

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - sababini ko'rsating.

(M) - misol (dalil) keltiring.

(U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich.

-o'qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi:

-mashg'ulot davomida har bir talaba o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

3 - bosqich.

-Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lgach, O‘qituvchi ularni kichik guruhlariga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlariga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo‘lib yuboradi:

-o‘qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi:

-o‘qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog‘ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a‘zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a‘zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a‘zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a‘zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5- bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: Guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba’zi bo‘limlarni isbotlash ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6 - bosqich.

-o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo'llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR TASSAVUR VA FANTAZIY.


TA'SIRCHAN SO'ZGA ERISHISH OMILLARI

Reja:

1. Tasavvur haqida tushuncha
2. Tasavvurning fantaziya bilan bog'liqligi
3. Tasavvur va fantaziya orqali so'zning ta'sirchanligini oshirish usullari.
4. Ijodkor shaxs tarbiyasida diqqat va tasavvurning o'rni, ahamiyati va vazifalari hamda ularni rivojlantirishning interfaol o'yinli tizimlari

Tayanich so'zlar: Tasavvur, fantaziya, hissiyot, ko'rish, munosabat, kechinma, diqqat, haqiqat, xotira, idrok, teatr, so'z, nutq.

“Sahna nutqi” fanining ikkinchi bo‘limi hisoblangan so‘z ustida ishlash qismi nasriy asarlardan olingan adabiy parchalarni o‘rganishga bag‘ishlanadi. Talabanning so‘z san‘atini mustahkam egallashi va mahoratli ijodkor bo‘lib shakllanishida badiiy asarlardan olingan namunalarni qunt bilan o‘zlashtirish muhim hisoblanadi. Ijodkorning boy tasavvuri va rang-barang fantaziya olamini yarata olish layoqati badiiy adabiyotning har bir janrida mahorat bilan aks etganligini ko‘rish mumkin. Talaba muallifning his-tuyg‘u va kechinmalari, aytmoqchi bo‘lgan fikr va maqsadlari, tasvirlangan voqea-hodisalarning mohiyatini his qilib, jonli so‘zda gavidalantirishi uchun adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichi hisoblangan manzarali (tasviriy) parchalar ijrosini diqqat bilan o‘rganadi. Qolaversa, ta’sirchan so‘zda muhim ahamiyat kasb etadigan xususiyatlarni o‘z ijrosida mutahkamlab boradi. Bular:



Tasavvur aktyor ijodining mohiyatini belgilaydi. Tasavvur hosil qilish ijodda ko‘p vaqt va qunt bilan o‘rganilishi zarur bo‘lgan hayotiy ehtiyojdir. Nafaqat aktyor, balki jamiki ijodkor bor ekan, unda tasavvur layoqati yuksak shakllangan bo‘lishi kerak. San’at badiiylikni talab qiladi, badiiylik uchun esa ijodiy to‘qimani mohirona qo‘llay bilish muhim sanaladi. Har qanday asarni real va haqqoniy tasvirlash mumkin, lekin u asar badiiy to‘qimalar bilan boyitilmas ekan, ta’sirchan va qiziqarlilik hususiyatini yo‘qotadi. Badiiy to‘qimalarni hosil qilishda esa ijodiy fantazini keng qamrovli va to‘g‘ri qo‘llay bilish ijodkordan mahorat talab qiladi.

Tasavvur – narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarini eslash, shuningdek, ijodiy xayol surish jarayoni. Agar idrok hozirgi daqiqalarni aks ettirsa, tasavvur ham o‘tmishni, ham kelajakni o‘zida mujassamlashtiradi. Tasavvurni yangi obrazlar bilan boyitish, fikrlash topshiriqlarini yechishda muhim o‘rin egallaydi. Bu o‘rinda favquloddagi vaziyatlar, shart-sharoitlar voqelikka yangicha “nigoh” tashlash yoki tahlil etishni talab qilsa, ular yanada yorqinroq gavdalanadi. Tasavvur va tafakkurning hamkorlikdagi munosabatlari yangilik unsurlari paydo bo‘lishini, ijodiy xayol timsollari vujudga kelishini ta’minlab turadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi bosh miya po‘stlog‘ida paydo bo‘lgan izlarning qayta tiklanishidir. Tasavvur barqaror emas, ongda uzoq saqlanmaydi, yangi tasavvurlar bilan almashinib, o‘zgarib turadi¹.


Shundan kelib chiqadiki, tasavvur ijodkorni doimo yangilikka, yangi topilmalarni topish va taassurot olamini rang-barang ijodiy chizgilar bilan rivojlantirib borishga chorlovchi hissiyot ko‘lamidir. Aynan aktyorlik mahoratini egallashni maqsad qilgan talabalar tasavvur olamining eng yuksak cho‘qqilarini zabt etishi kerak. Bunda esa ijodiy yondashuv va tafakkur ko‘lami chuqur xayolot olamini barpo qilish va uni rang-barang timsollar bilan boyitishdan iboratdir.

Aktyorlik maktabida tahsil olayotgan talaba uchun tasavvur layoqati suv va havodek zarur. Tasavvursiz aktyor libossiz sahnaga chiqqan bilan barobardir. Negaki, tasavvur fikrlashni go‘zallashtirish bilan birga, unga jon ham ato etadi.

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси, - Т., 2004, 8-сон, Давлат илмий нашриёти, Б-288.

Tasavvur va fikrsiz sahnada obrazlarni gavdalantirish aktyor tanasi va ruhiyatini ko‘rimsiz holatga keltiradi. Tasavvur aktyorni har jihatdan ustun qilib tarbiyalaydi, shu bois ham ijod maktabining poydevorini tasavvur qilish elementlari bilan qurmoq, ijodiy fantaziya bilan go‘zallashtirmoq kerak. Shu o‘rinda, teatr san’ati fanining nazariyasini yaratgan, ulug‘ mahorat egasi K.S.Stanislavskiy o‘z sistemasida tasavvurni quyidagi bosqichlarda aniqlab olish kerakligini ta’kidlaydi: *“Ijod protsessida tasavvur boshlovchi hisoblanadi, u artistni o‘zi ketidan boshlab boradi. **Tashabbuskor tasavvur** borki, u mustaqil ishlaydi. U ortiqcha kuch sarf qilinmay rivojlanadi: o‘ngda ham, tushda ham uzluksiz, g‘ayrat bilan ishlayveradi. **Tashabbussiz tasavvur** ham bo‘ladi. Ammo u birov aytganini darrov ilib olib, mustaqil ravishda rivojlantira boshlaydi. Unday tasavvur bilan ishlash ham deyarli oson. Bordi-yu, tasavvur birov aytganni ilib olsa-yu, rivojlantirilmasa unda ish chatoq²”*.

Aktyor tasavvur olamini boyitish, dunyoqarashini shakllantirish, idrok va tafakkur qilishni ongli ravishda o‘zi boshqaradi. Tasavvurida paydo bo‘lgan har qanday manzarani qalb ko‘zi bilan ko‘rish, oniy hislarni tugish va ularni idrok qilib, tafakkurida gavdalantirish mexanizmining tabiiyligini topishda tashabbuskor va tashabbussiz hosil bo‘ladigan tassavvurni paydo qilmoq zarur. Aktyor tassavvur olamini uzluksiz va mantiqan to‘g‘ri yo‘naltirishida ijodiy fantaziya qo‘l keladi.



К.С. Станиславский

**Konstantin Sergeevich
Stanislavskiy**

Biroq shunday odamlar borki, o'zlari xam yaratolmaydilar, birov berganini xam eplashtiro olmaydilar. Bordiyu, aktyor ko'rsatilgan narsaning faqat tashqi, rasmiy jihatini qabul qilsa, bu unda tasavvur yo'qligidan dalolat beradi, u artist bo'lolmaydi.

² Stanislavskiy K.S. Aktyorning ž ustida ishlashi, - T., 2011, “Yangi asar avlodi” qayta nashr, B-84.

Fantaziya, xayol – hayotda inson tomonidan idrok etilmagan tasavvur va hayoliy holatlarning vujudga kelishidan iborat psixik faoliyat. U insonning badihago‘ylik qobiliyati, badiiy to‘qimalarga ustaligi, topag‘onligi, ixtiroga moyilligi, antiqa, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan holatlarni ro‘yobga chiqarishga uquvchanligi kabilarda namoyon bo‘ladi. Fantaziya inson ongida vujudga kelishidan e‘tiboran borliqning qiyofasini o‘zgartirishga yo‘nalgan bo‘ladi. Fantaziya ulkan badiiy, ilmiy va ma‘rifiy qimmatga ega. Shaxsning ijodiy faoliyati negizida fantaziya ishtirok etmasdan iloji yo‘q. Fantaziya shaxs amalga oshirishni xohlaydigan ichki aqliy faoliyatga aylanadi³.

Tasavvur va fantaziya talaba ijodining mantiqli va davomli bo‘lishini ta‘minlovchi omildir. Ularsiz talabaning ijodi jonlanmaydi. Negaki, tafakkurda hosil bo‘lgan fikrni tuyish, uni his qilishni tasavvur belgilab bersa, ularni rang-barang hayoliy to‘qimalar bilan boyitish, kutilmagan voqea-hodisalarga ergashtirish, cheksiz va ulkan hayolot olamini barpo qilishni talabaning ijodiy fantaziyasi yaratadi. Shuning uchun ham tasavvur va fantaziya talabaning yo‘lchi yulduzidir. Bunday yorqin isti‘dodga ega bo‘lgan ijodkor san‘at olamining yuksak pillapoyalarini mardona zabt etadi.

K.S.Stanislavskiy ijodda tasavvur va fantaziyaning uyg‘unligini topish, ulardan o‘rinli foydalanish yuzasidan bo‘lg‘usi aktyorlarga shunday maslahat beradi: *“Xayol surishning yangi turiga o‘tar ekanman, tasavvurda real voqelikdan ko‘ra tabiatan ko‘proq imkoniyat berilganini nazarda tutaman. Chindan ham, tasavvur real hayotda qilish mumkin bo‘lmagan narsalarni chizib beradi. Mana, masalan, tasavvurimizda boshqa planetalarga uchib borib, u yerdan afsonaviy parilarni olib qochamiz, afsonaviy mahluqlar bilan kurashib, ularni yengamiz; dengiz ostiga tushib suv malikasiga uylanishimiz mumkin. Shularning barini hayotda qilib ko‘ring-chi. Bunday xayol surish uchun tayyor material topishning iloji bo‘lmasa kerak. Shu tarzda afsonaviy hayotga jo‘namog‘imiz uchun, sizga fan, adabiyot, tasviriy san‘at va hikoyalar faqatgina yo‘nalish, ishora, turtki beradi,*

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси, - Т., 2005, 9-сон, Давлат илмий нашриёти, Б-185.

xolos. Binobarin, bunday xayol surishda asosiy ijodiy ish fantaziya zimmasiga tushadi. Bunday hollarda bizga afsonaviylikni voqelikka yaqinlashtiradigan vositalar kerak bo'ladi. Bu ishda mantiq va izchillik asosiy o'rinlardan birini egallashi lozim. Ular yo'q narsani bo'lishi mumkin bo'lgan narsaga yaqinlashtiradi. Shuning uchun afsonaviy va fantastik narsalarni yaratishda mantiqli va izchil bo'ling⁴".

Tasavvurni badiiy adabiyotning barcha janrlarida qo'llash mumkin, lekin fantaziyani-chi? Tasavvur real bor narsani, bo'lib o'tgan yoki kutilayotgan narsa-hodisalarning tavsifini jonlantirsa, fantaziya esa mavhum va cheksiz hayolotni, bo'lishi mumkin bo'lmagan voqea-hodisalarni yaratar ekan, unda bu badiiy adabiyotning ma'lum bir janrlarigagina xos bo'lgan xususiyat ekanligini bildiradi. Shu o'rinda, adabiyotning sarguzasht-fantastika yo'nalishi fantaziyaning manbai bo'lib xizmat qiladi.

“Sahna nutqi” fanida ta'sirchan so'zga erishish, jonli, badiiy so'zni sahnada ifodalashda tasavvur olamining kengligi va ijodiy fantaziyaning rang-barangligi amaliy ko'mak beradi. Tafakkurda hosil bo'lgan fikrni chuqur idrok qilish, butun vujudi bilan his qilish, uni maqsadli ravishda ong osti fantaziya olamiga yo'naltirish va uning go'zal, shiddatli tasvirini jonli nutqida ifodalash talabaning badiiy so'zdagi ta'sirchanligini oshiradi. Bunda esa talaba **ko'rish** xotirasiga diqqatini yo'naltiradi va uning ijodiy ko'magidan unumli foydalanadi. Fikr, ko'rish, his qilish, idrok qilish jarayoni nutqda tabiiy va jonli so'zning tug'ilishini ta'minlaydi. Bu jarayonlarsiz so'zlarning nutqda gavdalanishi quruq va ma'nosiz ifodani keltirib chiqaradi. Nutq ko'rgan va his qilgan tuyg'ularning samimiyligini hosil qiladi. Xatto ko'z oldida ko'rgan narsa-hodisalarning tasnifini ham **ichki ko'rish** qobiliyati orqali ochib berish mumkin. Dars mashg'ulotlarining birida, ichki ko'rish xususiyatini yanada aniqroq bilish uchun bitta talabaga sahnaviy detal, ya'ni ro'mol tutqazildi va uni tasvirlab berish so'raldi. Talaba ma'lum vaqt ro'molga qarab qoldi, nigohi ro'molda bo'lsa ham, uning xayollari butunlay boshqa tomonda... Uning ilk so'zlari so'lim

⁴ Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши, - Т., 2011, “Янги асар авлоди” қайта нашр, Б-94.

tabiat, qir etagida joylashgan olisdagi qishlog‘ini tasvirlash bilan boshlandi. Talaba asta boshini ko‘tarib, tomoshabinga qaraganida, uning ko‘zlarida beg‘ubor va o‘yinqaroqlik aks etdi, u endi o‘z uyida edi... Talaba qishlog‘i, ko‘chasi va o‘z uyining har bir mayda-mayda detallarigacha gapirib berdiki, buni eshitgan tomoshabin ko‘z oldida ham o‘sha manzaralar hosil bo‘ldi. Talaba bu jarayonlarni jo‘shib tasvirlar ekan, birdan nigohi bir nuqtada qotdi, birozdan so‘ng qorachilari atrofini ko‘z yoshlari qoplay boshlaydi... U, avvaliga dimog‘iga urilgan xushbo‘y hidni, uy burchagiga solingan oddiy va kichkina tandirxonani, kun issiq bo‘lishiga qaramay, ustiga chopon yopingan, yuz-ko‘zlarini issiq olov taftidan himoyalash uchun katta ro‘molni tang‘ib bog‘lab, non yopayotgan ayolni tasvirlar edi va juda mayin, biroz tanbehona, lekin sog‘inchli ovoz bilan “*Oyi...*” degan chorlov bilan nutqini yakunladi. Tasavvur hosil qilish uchun berilgan ushbu vazifadan qanday xulosalar paydo bo‘lganligi so‘ralganda; u hamma narsalarni eslab, ko‘z oldida paydo bo‘lganini va ularni his qilib, qalbi yorishganini maroq bilan gapirib berdi. Bu jarayon esa ichki ko‘rish va sahnada yashash hissisini shakllantiruvchi tasavvur chizgilarini hosil qilishdagi amaliy mashg‘ulotlardan biri edi.

Haqiqat tuyg‘usi va ishonch – asl ijrochilik san‘atining muhim omili hisoblanadi. Har qanday asar ijrosida bu hususiyatlar birlamchi qilib belgilanadi. Muallif asar voqeligi uchun asos qilib olgan mavzu va g‘oyalarning haqqoniyligini badiiylashtirishda rang-barang tasvir vositalaridan keng foydalanadi. Asarning qiziqarli va ta’sirli chiqishi uchun uni hayotiy omillar bilan jonlantiradi. Muallifning asarga jon baxshida etishi hissiy kechinmaning ishonch tuyg‘usi bilan yoritilganligida ko‘rinadi. Muallif ishongan voqelikka kitobxon ham ergashadi. Shu o‘rinda, muallif ishongan va haqiqat tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan g‘oyaviy asarni tomoshabinlar e’tiboriga havola qilishda talabaning ham ishonchi muhimdir. Talaba asarni idrok qilish orqali tasavvurida voqelikni gavdalantiradi, ichki nigohi bilan ko‘radi, sof tuyg‘ularni shakllantiradi va ishonadi, natijada ijroda ishonarli bo‘lgan jonli nutq paydo bo‘ladi.

“Jismoniy xatti-harakatlar va xissiyotlarning mantiq hamda izchilligi sizlarni haqiqatga olib keladi, haqiqat ishonchni keltirib chiqaradi va shularning hammasi

bir bo‘lib “men borman”ni yaratadi. “Men borman”ning o‘zi nima? U men mavjudman, yashayapman, rol bilan bir xilda xis qilyapman, fikr yurityapman, degan ma‘noni beradi. Boshqacha aytganda, “men borman” birikmasi xissiyot, tuyg‘u, kechinma hosil qiladi⁵”, - deb ta’kidlaydi mahorat darslarining birida Stanslavskiy.

Talabani ijrosida ta’sirli va jonli nutq shakllanishi uchun ijrolik elementlaridan yana biri hisoblangan munosabat xususiyatlarini qo‘llamoq zarur. Matn bilan tanishib chiqqan talaba tasavvurida jonlangan manzarani idrok etadi, ko‘rish kinolentasi orqali ko‘z oldida gavdalantiradi va uni his-tuyg‘ulari bilan boyitib, o‘z munosabatini ijroga ko‘chiradi.

Muayyan tizimdagi elementlarning joylanish xarakteri va ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi falsafiy tushuncha, biror narsa yoki hodisaga nisbatan shaxs mavqeining ifodasi, turli ob‘yektlarni yoki biror ob‘yektning turli tomonlarini fikran taqqoslash.

Munosabat:

K.S.Stanislavskiy munosabat tushunchasini dars mashg‘ulotida ustoz tomonidan taqdim qilingan kichik sahna ko‘rinish misolida yanada aniqroq qilib tushintirib beradi: “Arkadiy Nikolayevich talant, mahorat va aktyorlik texnikasi jihatidan ajoyib bir spektaklni o‘ynab berdi. U qandaydir she‘rdan boshladi-da, juda tez, ta’sirli qilib o‘qidi, lekin fikr jihatidan shu qadar noaniqki, biz hech narsa tushuna olmadik. Shunda Arkadiy Nikolayevich bu jarayonni shunday izohlab o‘tdi; sizlarga taqdim qilingan mana shu ijro quruq materialdir, aktyorlar ko‘pincha shunday materialga suyanib, tomosha zali bilan munosabatda bo‘ladilar, ular

⁵ Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши, - Т., 2011, “Янги асар авлоди” қайта нашр, Б-240.

so'zlarni gapiraveradilar-u, ammo uning na ma'nosiga, na nima uchun gapirayotganiga e'tibor bermaydilar, balki faqatgina ularning ta'sirli bo'lishini o'ylaydilar. Kimning tashqi apparati yaxshi o'rgatilgan bo'lsa, uning uchun bunday vazifa qiyin emas. Ovoz jaranglashini, til: harflarni, bo'g'inlarni, so'zlarni, jumalarni chertib-chertib aytib turishining g'amini yeyilsa bas; pozalar va harakatlar plastikani ko'rsatsa va shularning hammasi bir bo'lib tomosha qilayotganlarga ma'qul tushsa bo'lgani. Kafeshantanda o'ynovchi xotin singari, men sizlarga qaddi-qomatimni ko'rsatdim va ko'rsatayotganim ta'sir qilyaptimi deb hamma vaqt qarab-qarab turdim. Men o'zimni tovar, sizlarni esa xaridor deb his qildim. Bu, tomoshabinlarda katta muvaffaqiyat qozonishga qaramay, sahnada artistlar hech qachon qilmasliklari kerak bo'lgan munosabat namunasidir”⁶.

Munosabat shaxsning o'ziga tegishli bo'lishi kerak, negaki, tabiiy tug'ilgan munosabat ijroda o'ziga xoslikni ta'minlaydi. O'zgaralar tomonidan ko'rsatib berilgan munosabat ijrochini kechinmadan yiroqlashtiradi. Agar talaba ko'rsatib berilgan yo'lni tanlab, uning ortidan ergashib, taqlid qilishga o'tsa, sahnada yangi obrazlarning tug'ilishi kuzatilmaydi. Asar voqealari talaba ongi va qalbida haqiqat tuyg'usi bilan yaralmas ekan, nutqda sof va samimiy munosabat paydo bo'lmaydi. Bu hol ijroda tashqi munosabatning ko'r-ko'rona rivojini keltirib chiqaradi. Sahnada haqiqiy munosabatning o'rnini sun'iy va soxta tashqi bezaklar egallar ekan, teatrni halokat yoqasida deb tasavvur qilish mumkin. Sahnada haqiqiy munosabat va asl kechinma san'ati bilangina tirikdir.

Diqqat – *subyekt faoliyatining biror obyekt yoki hodisaga jalb qilinishi. Bosh miya po'stlog'ining muayyan joylaridagi optimal qo'zg'alish manbalari diqqatning fiziologik asosini tashkil qiladi. Diqqat ikki turga bo'linadi: ixtiyorsiz (passiv) diqqat va ixtiyoriy (aktiv) diqqat. Ixtiyorsiz diqqat biron tashqi sabab ta'sirida kishi xohishidan hosil bo'ladi. Bunday diqqat odamdan iroda kuchini talab qilmaydi. Ixtiyoriy diqqat psixik faoliyat oldindan belgilangan maqsad bilan muayyan narsaga*

⁶ Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши, - Т., 2011, “Янги асар авлоди” қайта нашр, Б-310-311.

*ongli ravishda jalb etiladi. Diqqatning bu turi iroda kuchini talab qiladi, shuning uchun bu diqqat irodaviy diqqat deb ham yuritiladi*⁷.

Talabada soʻz tugʻilishi uchun roʻmol detali vazifa qilib berilganida, iroda kuchi faollashib, mantiqan izchil va tabiiy xissiyotlarning bayoni paydo boʻlgandi. Talabaning tafakkurida tasavvur, koʻrish, his qilish, ishonish, munosabat bildirish va eng muhimi sahna haqiqatini yaratishda uning **sahnaviy diqqati** birlashtiruvchi, yoʻnaltiruvchi omil boʻlib xizmat qildi. Bu omil ongli va maqsadli ravishda hosil boʻlib, taʼsirchan soʻzga erishishda barcha elementlarni qoʻzgʻaltiruvchi richag sifatida faol qatnashdi.

Ijroda diqqatning mavjudligi asarning taʼsir qilish va eshitimli boʻlish darajasini oshiradi. Agar talaba asar voqeligiga toʻla ishonib, butun vujudi bilan diqqat koʻlamini keng doirada taqdim qilsa, uni kuzatib oʻtirgan tomoshabinlarning ham diqqatini boshqarib borish layoqatini egallagan boʻladi. Sahnaviy diqqatning yoʻqligi fikr tarqoqligi, chalgʻish, befarq, uzuq-yuluq, yuzaki yondashuvni hosil qiladi, bu esa sahnada diqqatning aksi boʻlgan parishonxotirlikni vujudga keltiradi. Talabaning bunday katta xatolikka yoʻl qoʻyishi aslo mumkin emas. Shuning uchun ham ustozlar *“teatr eshigidan kirganingizda barcha tashqi muammo va masalalarni tashqarida qoldiring, oʻz hayotingizni uniting va teatr hayoti bilan yashang”*, - deb doimo uqtirib keladi.

Ijodkor har bir jarayonda avvalo, ichki ruhiyat olamini tarbiyalashi va uni doimo ijodiy topilmalar bilan boyitib bormogʻi zarur. Ijroda tabiiy va haqqoniy xissiyotlarning tugʻilishi boʻlgʻusi aktyorni yuksak ijodiy marralar sari yetaklaydi.

Aktyorsiz teatrni tasavvur qilib boʻlmaydi. Butun teatr tarixida, qadim-qadimdan niqoblar komediyasi boʻladimi, xalq teatri boʻladimi, maydonchadagi tomoshalar boʻladimi barcha-barchasi aktyorlik sanati bilan bogʻliq. Muallif olgʻa surgan gʻoya va fikrlarni aktyor ham tengma-teng baham koʻradi, oʻz vujudi, jussasi orqali dramaturg qiyofalarini ifodalaydi, ijtimoiy muammolarini namoyon qiluvchi ijodkor shaxs - sanatkorga aylanadi. Aktyor dramaturg kabi ijodkor sanatkor. Dramaturg

⁷ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, - T., 2002, 3-son, Davlat ilmiy nashriyoti, B-332.

bergan holat va matnlar asosida aktyor o'zining jismoniy va ruhiy tabiati bilan badiiy sahna qiyofasini yarata olsa bu uning katta muvaffaqiyati bo'ladi. Aktyorning bosh maqsadi badiiy qiyofa yaratishdir. Aktyor ijodining o'ziga xos xislati u bir vaqtning o'zida ijod qiladi va ijodga o'zi material hisoblanadi. Ijodning obyekti ham, subyekti ham o'zi. Barcha sanat turlaridan aktyor ijodi o'zgacha - bu ijod uning jussasi, ovozi, aql-idroki va tuyg'ulariga bog'liq. Demak, mana shu xususiyatlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Agar barcha sanat turlarida yaratuvchining ijod mahsuli, o'tib ketgandan keyin ham yashasa (haykaltarosh, rassom, bastakor va boshqalar), aktyor ijodi uning hayotligida yashaydi. Spektakl ijro etilayotgandagina yashaydi. Spektakl tugab parda tortilishi bilan aktyor ijodi tugaydi. Jonsiz va jonli ijroning tafovuti mana shunda. U tomoshabinning xotirasida yashaydi, faqat esda muhrlanib qoladi. Shuning uchun ham aktyor ijodi o'tkinchi.

2. Agar barcha sanat turlarida sanatkorlar o'z ijod mahsulini jonsiz narsalardan yaratsa va u hamisha har doim o'zgarimasdan bir holatda tursa, aktyor ijodi jonli vujudan paydo bo'lgani uchun o'zgaruvchanligi, uning ruhiy holatiga, tabiatiga, atrofni o'rab turgan muhidga bog'liqligi bilan farq qiladi.

U tez tasirlanadi, o'zgaradi, yaratgan qiyofasini takror va takror betakror etishga majbur bo'ladi.

Jonli teatrning go'zalligi ham, fazilati ham, boshqa sanat turlaridan tafovuti ham shunda.

Shu xususiyatlarni inobatga olib aktyor ijodining shakllanishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1. Aktyor boshqa sanatkorlarga qarama-qarshi o'laroq, tabiatning, ruhiy holatining turg'insizligini hisobga olgan holda hamisha va muntazam mashq qilishga muhtoj shaxsdir. O'z oldiga qo'ygan maqsadni bajarish uchun uning psixofizik holati doim ijodiy tayyor turishi kerak. Agar sozanda soatlab o'z asobi bilan kuyni mashq qilmasa, raqqosa tinimsiz o'z ustida shug'ullanmasa, hofiz nafas sozlab turmasa, kuni bekor o'tganday, aktyor ham o'z ovozini, jussasini, mahoratini uzluksiz charxlab turishi shart:

2. Aktyor ham o‘z ijodini chetdan turib kuzatadigan, ijodiy jarayonni charhlaydigan nazorat qilib boradigan, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan murabbiy rahbar rejissyorga muhtoj shaxsdir. Rejissyorning fikri, orzu- armonlarini, badiiy reja va niyatlarini, ilmiy salohiyati va hayotiy kuzatuvlarini, tasavvuri, didi va ehtirolari, barchasini sahna harakati va vujudi orqali keng ko‘lamda ro‘yobga chiqarib namoyish qilib beruvchi bu aktyordir. Aktyor rejissyor irodasiga bo‘ysungan materialdir. Rejissyor va aktyor hamkorligi, ularning uyg‘unligi teatr sanatining asosini tashkil qiladi. Jahon teatr sanatining nazariyasi va amaliyotida buyuk alloma rejissyor K. S. Stanislavskiy aktyor ijodini ikki yo‘nalishini aniqlab bergan.

1. Kechinma maktabi

2. Namoyish maktabi

Bundan tashqari K. S. Stanislavskiy aktyorlik sanatining mohiyatini ochib bergan bu ikkala maktabda, hayotda sanatning o‘rni va roli, uning estetik tamoyillarini ifodalagan, asoslagan. Kechinma sanatining asosida hayot haqiqati yotadi. Haqiqiy sanat insonni tarbiyalaydi, dunyoqarashini shakllantiradi. Ong-tuyg‘ulariga, ijtimoiy hayotiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Kechinma sanatining asosiy mezoni kishi hayotining ichki dunyosini ochish, rolda inson ruhiyatini yaratish, badiiy shakllarda tomoshabinga manaviy ozuqa berish, har bir ijroda odamning ichki ruhiy omillariga singib borishdan iboratdir. Kechinma sanatida qiyofa yaratayotgan aktyor hayotning natijasini emas, uning harakatdagi jarayonini ochib berishi va ijod jarayoniga aktyor o‘zini baxshida qilishi lozim bo‘ladi. Hayotning murakkab chigal muammolarini hal qilishda mahorat ustuvorligi, astoydil mehnat qilish, ter to‘kish lozim bo‘ladi.

Kechinma sanatida aktyor har gal ijrosida yangi qiyofaga kiradi, butun jarayonni qaytadan vujudidan o‘tkazadi. Teatr sanatining jozibasi ham mana shunda. Rolda berilgan shart-sharoit to‘g‘ri mushohada qilinib, harakat yo‘nalishi to‘g‘ri olib borilsagina hayotiy, tabiiy chiqadi. Aktyorning ichki va tashqi texnikasi, inson tabiatining qonunlariga asoslanib, ovozi, jussasidan to‘g‘ri va unumli foydalangan holda tasavvur olamiga boy, kuzatuvchan, hayotni chuqur bilgandagina zalvorli

qiyofalar yaratiladi. Kechinma aktyori inson qiyofasiga, ruxiyatiga izchil kirib borishi, uning xarakterini mukammal ochib berishi kerak.

Bir aktyor teatri

Ikkinchi jaxon urushi yillari she'riy kompozitsiyalar bilan askarlarga g'alaba va omonlik tilagan Muxsin Xamidovni O'zbekistondagi ilk "Bir aktyor teatri" vakili deb xisoblashgan. Aktyorning vokzalda, har kuni o'qigan she'riy kompozitsiyasi Vatan ozodligi uchun faqat g'alaba lozimligini, fashizm o'limga mahkumligini ta'kidlab turgan. Urushdan keyin O'zbekiston xalq artisti M. Xamidov klublarda, korxonalarda askarlarni, g'alabani ulug'laydigan she'riy kompozitsiyalar ijrosi bilan "Bir aktyor teatri"ning g'oyaviy qudratini namoyon qila olgan. Uning bu xizmatlari inobatga olinib unvonlar berilgan.

A'nnaviy teatr tarixiga nazar tashlasak o'zbeklarda "Bir aktyor teatri" baxshilar qo'liga do'mbira olib xalq qaxramonlarini ulug'lay boshlagan kundan beri mavjud ekanligiga amin bo'lamiz. Chunki, baxshi – o'zi shoir, o'zi bastakor, o'zi qo'shiq ijrochisi bo'lib, yakka o'zi kechki yig'inni ya'ni tomoshabinlarni to tong otguncha "ushlab" turgan. Bu milliy, an'anaviy "Bir aktyor teatri"miz qadimiy ekanligini asoslaydi. Birinchidan yakka tartibda olti soat konsert ijro qiladigan artist jaxon saxnasida bo'lmasa kerak. Ikkinchidan g'arbda yakka tartibda she'r to'qigan, unga kuy bastalagan va uni qo'shiq qilib aytgan "Bard" har uch – besh daqiqadan keyin mavzuni o'zgartirgan, yangi qo'shiq aytgan. Baxshi esa bir mavzuni, voqealar rivojini hamda voqea ishtirokchilar obrazlarini barchasi yakka o'zi yaratganligi bilan takrorlanmas darajadagi "Bir aktyor teatri" hisoblanadi. Bu mavzu alohida tadqiqotga muxtoj.

Qiziqchi esa tuyga kelib "Dor o'yini" mavzusidagi tomoshasi bilan hammani lol qoldirgan. U to'yxonadagi keng maydoni tanlab, avval jarchi bo'lib hammani "dor" tomoshasiga chorlagan. Jarchilarni bir necha kishi ekanligini ko'rsatish uchun u ovozini o'zgartira olgan. So'ngra dor ostida chalinadiga muzika asboblari ovozlarga taqlid qilib og'zida kuylar chalgan. Dor tomoshasi muhitini yaratgan. Atrofiga to'yxondagi bolalar va odamlar to'planganligini ko'rib karfarmon vazifasini bajarib tomoshani boshqargan. El nomidan tomosha ko'rsatgani kelgan "dorbozlarni" duo

qilib o‘yinini boshlashga ruxsat bergan. Uning yakka o‘zi “dor usti” va “dor osti” aktyorlari nomerlarini ko‘rsata olgan. Uning yagona yordamchisi – uzun arqon bo‘lib, uni yerga dordek tortib qo‘ygan. Yer ustida cho‘zilgan arqon “dor” va sahna vazifasini o‘tagan. Bu a‘nanaviy teatr tizimidagi o‘ziga xos “Bir aktyor teatri” ekanligini ta’kidlash lozim. Bu mavzu xam o‘z tadqiqotini kutmoqda.

XX asrning 70 yillari tuylarga kelib,, qiziq xangomalar aytib, elni kuldira oladigan Abdufattox Saidov va Muxiddini Darveshevlar paydo bo‘ldi. Ularning tuyxonada yakka tartibda ijro etgan xangomalari tuydagi chiqishlari “Bir aktyor teatri” talablariga javob berardi. El sevgan bu xangomachi – qiziqchilar konsertlarga taklif qilishdi. Ularning konsertlardagi chiqishlari – “monolog” ya’ni nomer edi.

1992 yildan boshlab katta konsert zallarida yakka tartibda kulugli xangomalar ijro etadigan – qiziqchi Xojiboy Tojiboyev paydo bo‘ldi. Uning “Er xotini urishi – doka ro‘molni qurishi”, “O‘zbekning o‘zi qiziq o‘zidan xam so‘zi qiziq”, “Askarlar xayotidan”, “Xotin o‘tin emas”, “Kulguning 99 hili”, “Yangisidan bor” nomli konsert dasturlari “Bir aktyor teatri” ning eng yorqin ifodasidir.

Badiiy o‘qish – estrada san’atining o‘ziga xos bir turi bo‘lib, adabiyot janrlari bo‘lgan, she’r, nasr va ommabop asarlarni sahnadagi ijrosini anglatadi. Ifodali so‘z bu janrni asosi xisoblanadai. Qadimdan kelayotgan bu janr turli xalqlarda mavjud bo‘lib, ular – ertak aytuvchi, skomorox, ashug, aqin bizda esa baxshi nomi bilan atalgan. Qadimgi Gretsiyada xalq oldida badihago‘ylik bilan to‘qilgan she’r mualliflari qadrlangan. Qadimgi Rimda esa xalq oldida notqlik mahoratini ko‘rsata olganlar ulug‘langan.

Tarixni yaxshi bilan Fransuzlar maktab dasturiga badiiy o‘qish predmetini kiritgan. Ayniqsa, 1848 yilgi to‘ntarilshida xalq oldiga chiqib she’r o‘qigan shoirlarni izdoshlari ko‘paya borgan. Shuning uchun badiiy o‘qishni boshlanishi – she’r xamda uning muallifi ijrosi nomi bilan tarixga kirgan.

Rossiyada mualliflik ijrosi bilan tinglovchini xayratga solganlar Pushkindan boshlanadi. U o‘z she’rlarini katta ilxom bilan ijro qila olgan. N. V. Gogoldan esa o‘zi yozgan xikoyalarni gapirib berishni iltimos qilishgan. Bu borada Ostrovskiy, Mayakovskiy, Zotsenko va Yeseninlar xam mashxur bo‘lishgan.

1870 yildan boshlab mashhur rus aktyori M. S. Shepnin shoirlar she'rlaridan kompozitsiya qilib badiiy o'qish kechalarini boshlab bergan. U juda katta mahorat bilan yaratgan kompozitsiya o'z mavzusi, g'oyasi, badiiy yaxlitligi, va ijro mahorati bilan tomoshabinlarni xayratga solgan.

Mualliflar ijrosidagi va aktyorlar ijrosidagi badiiy kechalar uchun biletlar topilmay qolgan. Natijada, bu yo'nalish ham o'z rivojlanish yo'lini qidira boshlagan. Hozirgi radio, televideniya va matbuotdagi axborotlar o'rnini o'z davrida to'ldirib turgan badiiy kechalarning o'z davrining mashhur ijrochilari paydo bo'lgan. She'riy kompozitsiyalar ijrosida aktrisa M. N. Yermolova mashhur bo'lgan bo'lsa, prozada Dostoyevskiy va Gogol asarlaridan kompozitsiyalar yaratib ijro qilgan V. I. Andrev – Burlak juda mashhur bo'lgan. Shunda qilib bu yo'nalishda ijod qiladiganlar estrada saxnalarida doim o'z qadrini topgan.

Melodeklamatsiya – ta'kidlab ijro qilish.

Melodeklamatsiya – grekcha qo'shiq va deklamatsiya, ya'ni ta'kidlab aytish ma'nosidagi konsert janri. Estrada san'atiga bu janrni XIX asrda rossiyalik ijodkorlar olib kirdi. She'rni - muzika bilan ta'kidlab ijro qilish, yoki she'rni fortepyano chaluvchi bilan jo'rnavo bo'liyu ijro qilish melodeklamatsiya deb ataldi. Tez orada bu yo'nalishning ham kompozitorlari va aktyorlari paydo bo'ldi. Kompozitorlar orasida G. A. Lishin tezda mashhur bo'ldi. Aktyorlar orasida esa V. F. Komissarjevskaya shuxrat qozondi. Sahnada ajoyib rollar ijro etgan bu aktrisa badiiy kechalarda, ijodiy uchirashuvlarda mashhur she'rlarni melodeklamatsiya qilib olqishlar olgan. Bu yo'nalish juda ko'p muxlislar oortirgan aktrisa estrada san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Bu yo'nalish opera va melodrama oralig'idagi yangi janrga – musiqali dramaga asos bo'lgan. Asar qaxramonlari monologi – ariya, dialogi – duet deb nomlangan va muzika bilan hamohang ijro qilingan. Melodeklamatsiya, ariya, duetlar estrada konsertlarini boyitadigan nomerlar bo'lib o'z muxlisleri orasida qadrini topdi.

Xikoyalar kechasi – kichik tomosha turlari.

Xikoyalar kechasi – estradadagi bir aktyor tomonidan ijro qilinadigan adabiy janr xisoblangan. Aktyor tomonidan yaratilgan badiiy kompozitsiya

tomoshbinlarga gapirilib berilgan. Bu tabiiy xikoyalash jarayoni aktyor A. Y. Zanushnyak tomoshadan katta mahorat bilan ijro qilingan. Xikoyalar va novellarni sahnadan turib gapirib berish estradaga “Xikoyalar kechasi” nomli adabiy – badiiy janrni olib kirdi va bir aktyor ijrosi tushunchasini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Bu tushuncha keyinchalik estradaga “Bir aktyor teatri” atamasini olib kirdi.

Imitatsiya – taqlid.

Imitatsiya – lotincha taqlid qilmoq ma’nosini anglatadi. Estradada bu tushuncha ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchisi – tabiatdagi jonvorlar tovushlarini xamda maishiy turmushda uchraydigan tovush va shovqinlarni ma’lum syujetga bo‘ysindirgan holda tiklash – ijro qilish san’atidir. Bunday aktyor – “odam orkestr”, ya’ni barcha tovushlarni ijro qiladigan “tovushlar asbobi” deb nomlangan. Bunday nomeri bilan konsertlarda qatnashgan ijrochi “odam orkestrni” konferansye tomoshabinlarga tanishtirganda uning uchun ham o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Ikkinchisi – sahnada ijro qilinib muhlislar orasida mashhur bo‘lgan-qo‘shiq, ariya, she’r yoki raqs nomerlarni taqlidiy qayta tiklab ijro qilishni anglatgan. Taqlid – kishilarni o‘ziga xos bo‘lgan gapirish usuli, ovozi, yurish-turishi, qilig‘i, xattixarakati, fe’lini, hatto kiyinishidagi ko‘zga tashlanadigan jixatlarini bo‘rttirib ko‘rsatib berishga asoslanadi. Konsertlarda, mashhurlar yubileylarida, benefislarda taqlid – o‘rtoqlik xazil deb e’lon qilingan. Bu xazili tomoshabinlarga ma’qul bo‘lgan. Bu yo‘nalishlarning mashhur ijrochilari ikkila yo‘lda xam ijod qila olgan.

Momentalist – rasm chizadigan estrada aktyori.

Ko‘chalarda rasm chizadigan Parij rassomlari darxol portiret yarata olgan. Bunday usta rassom ilk bor XX asr boshlarida Parij sirkida obrazi ko‘rsatildi. Momentalist deb atalgan sirk aktyori – rassom, tomoshabinlar orasidan odam tanlab uni portiretini darxol chizib bergan. Darxol chizilgan rasmda ozgina bo‘rttirish bo‘lgani uchun u ham kulguli, xayratli tomosha bo‘lgan.

Sirkda bu janrni rivojlantirgan aktyor – rassom aylanib turgan jixozga ikki qo‘llab darxol rasm chiza olgan. Keyinchalik og‘iz bilan, rasm chizish nomerlari

paydo bo‘lgan. Aktyor – rassom xatto tomoshabin buyurgan narsalarni darxol chizib bergan. Bu uni nixoyatda mahoratli ekanini namoyon qilgan.

Momentalist xatto o‘z kiymlaridan parchalar yulib olib malbertga yopishtirganda kutulmagan peyzajlar yaratilgan. Uning sharfi dengiz, yoqasi kema, oq qo‘lqoplari yelkan vazifasini o‘tab, tomoshabin ko‘z oldida xayratomuz rasm paydo bo‘lgan.

Bunday tomoshalar sirk menejidan hammaga aniq ko‘rinmagach bu nomerlar asta – sekin estrada sahnasiga ko‘chgan. Shunday qilib sirkida Parij xammaga ma‘qul qilgan momentalist nomeri Yevropa bo‘ylab estrada sahnalariga yoyilib ketgan.

XX asr boshlarida bunday nomerlar Rossiya sirkalarida va estrada sahnalarida mashxur bo‘lgan. Ularning ijrochilari aktyor – rassom xatto she‘r o‘qib turib yoki qo‘shiq aytib turib rasm chizish nomer bajargan. Ba‘zilar musiqa ohanglariga mos xarakterlar bilan xayratomuz rasmlar chiza olgan.

Karikatura chizadigan aktyor – rassom esa latifalar aytib turib, odamlarni kuldirib o‘z karikaturasini ko‘rsatgan. Tanlab olingan odamni karikaturasi latifa va karikatura egasini o‘z rasmiga munosabati tomoshabinlarni zavqu-shavqini oshirgan.

Estrada konsertini olib borayotgan konferansye sahnaga malbert qo‘yib, nomer ijro qillayotgan aktyorlar rasmini chizgan va uni izoxlaganda o‘z davri maishiy xayotidagi yutuq hamda kamchiliklarini ochib tashlagan. Bu estradaga rassom – konferansye obrazini olib kirgan

Momentalist rassom – aktyorlar estrada san‘atida yangi janrni yaratdilar uni elga manzur qila oldilar. Bir shaxs xam rasm chizsa, qo‘shiq aytsa she‘r o‘qisa, latifa aytib bersa... Ofarin! Bu insoning bu qudratini faqat estrada san‘ati namoyon qila oladi.

Referen – naqorat orqali tomoshabinga ta’sir o‘tkazish.

Referen – fransuzcha naqorat so‘zini anglatib u she‘rda, qo‘shiqda keng qo‘lanilgan. Estrada san‘atida referendan ya’ni naqoratdan aktyorlar konsert yoki nomer g‘oyasini ochishda unumli foydalanganlar. Badihago‘ylik asoslanib

to‘qilgan she‘rlarda o‘rnida ishlatilgan naqorat qayta-qayta kulgi qo‘zg‘agan. Qo‘shiqalarda ayniqsa chetushkada foydalanilgan referen – naqorat nomer g‘oyasini asoslagan. Ijrochining topqirligini namoyon qilgan.

Konferansiyelar konsertlarda ishlatgan referen – naqorat, ba‘za ongli ravishda o‘ylab topilgan tryuk vazifasini o‘tab, u konsert g‘oyasini ochishga katta yordam bergan. Bu uslubdan XX asr rus estradasi aktyorlari ustalik bilan foydalanganlar. O‘xshovsiz naqoratdan foydalanib o‘z navbatda shoirning zaifligini ochadigan uslub bo‘lib estrada saxnasida o‘z o‘rnini egallab kelmoqda.

Felyeton – estradadagi so‘z san‘ti turi

Felyeton – fransuzcha qog‘oz ma‘nosini bildiradi. Estradada felyeton – so‘z san‘atining turi sifatida o‘z xozir javobligi, ommaviyligi, maishiy va ijtimoiy xayotni ochiq ifodalay olishi bilan o‘z o‘rniga ega.

Felyetonni ijro qilayotgan estrada aktyori go‘yo shu voqeani guvohi bo‘lganday o‘z nomidan gapiradi. Bu janrning o‘ziga xosligi shundaki o‘z qaxramonini ulug‘lab turib, barcha yutuqlarni sanab o‘tib, “arzimagan” kamchiliklar ustida to‘xtaladi. Shu to‘xtalish munosabatlarni o‘zgartirib yuboradi. Navbatdagi ulug‘lash yoki yutuqlarni sanash endi tomoshabinda kulgu uyg‘otadi.

Bu janr – latifalardan, maqolalardan, aforizmlardan o‘z o‘rnida g‘oyani ochish uchun unumli foydalanadi. Monolog – o‘z nomidan bo‘lib o‘tgan voqeaga munosabat bildirish felyeton janring asosiy quroli hisoblanadi. Estradada janrdan konferansiyelar unumli foydalandilar. Felyeton – monolog ijrochilari estradada so‘z san‘ati borasida namunali ijrochilari bilan tarixga kirdilar.

Fokus – ko‘z bo‘yash.

Fokus – nemscha narsani bor qilish yoki yo‘q qilish ma‘nosini bildiradi. Sirk yoki estrada aktyori xisoblangan fokuschi o‘z nomerlarida xaqiqatdan xam narsalarni bor yoki yo‘q qila oladi. U tomoshabinni ko‘z ilg‘amas xarakatlari bilan chalg‘itadi. Fokuschini – manipulyator, sanjirovshik, illyuzionist ham deyishadi. Illyuzionist qo‘l xarakatlari o‘rniga, murakkab mexanizmlar, texnika optika qonunlari, nur rang va elektr tokidan foydalanib nomer yaratadi. Shuning yaratgan uning nomerlarini ijro qilishda ko‘plab kishilar ishtirok etadi. Fokus illyuza bilan

eng muximi tomoshabinni chalgʻitish nomerlari estradada sahnasida keng tarqalgan. Eng muximi bu nomerlar qadimdan meros boʻlib kelmoqda.

Burime – badihali qofiyalash

Burime – fransuzcha qofiyalash maʼnosini anglatadi. Sahnada tomoshabinni oldida qofiyali xazil sheʼr toʻqish estradada aloxida – Burime janri xisoblanadi. Sahnada bahislashayotgan ikki sheʼr toʻquvchi qofiyani ushlab tursa bas, mazmuni bogʻlanmagan qofiyalar tomoshabinlarda kulgu uygʻotgan. Aktyorlarni topqirligi va qofiyani ushlab turilishi natijasida bir-biriga zid mazmun nixoyatda kulguli vaziyatlarni keltirib chiqargan.

Oʻyin yanada qiziqarli boʻlishi uchun baʼazan tomoshabinlardan qaysi mavzuda qofiyalash musobaqasini boshlash soʻralgan. Ularning buyurtmasi bilan boshlangan oʻyin – jonli ijro va tomoshabin bilan muloqat estrada teatring asosiy talablaridan birini amaliyotdagi yorqin ifodasini koʻrsatdi. Bu oʻyinni oʻylab topgan va tomoshaga aylantirgan Fransiyalik shoir Dyuloni XVII asrda yashab oʻtganligi maʼlum.

Qofiyalash janrini yanada rivojlantirish uchun Aleksandr Dyuma 1864 yili Parijda maxsus “Burime” konkursini oʻtkazgan. Bu janr Rossiya estradasida xam keng tarqadladi. Shoirlar estrada konsertlaridagi badiiy kechalarni jonli va xazil – mutoyibaga boy boʻlishi uchun qofiyalash oʻyinini – musobaqasini oʻtkazishgan. XX asr rus estrada sanʼatida bu janrni udalaganlardan biri G. B. Nemchinskiyni tomoshabinlar juda xurmat qilishgan. Oʻzbek estradasi muxlislariga bunday oʻyin askiya payrovlaridan maʼlum. Joʻshqining faqat qofiyalash natijasidagi bemani sheʼrlari xam tanish

Chrevoveshatel – ogʻzini ochmasdan gapirish.

Estradada ogʻzini ochmasdan gapira oladigan aktyorlar oʻz nomerlarini koʻrsatgan. Ular qoʻgʻirchoq bilan dialogli sahnalarni qurib – oʻzi oddiy odamlarday gapirgan uning qoʻgʻirchogʻi esa xuddi jonli odamday unga javob bergan. Qoʻgʻirchoq javob berayotganda aktyor labi qirlamagan. Soʻzlarning toʻliq va ravon eshutilishi esa tomoshablarni xayratga solgan. Bunday iqtidorga ega boʻlgan aktyorlar

kam uchrasa xam bu janr estradada o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Bunday nomerni konferansye “men sahnaga ajoyib qobliyat egasi

–ventrolog aktyorni taklif qilaman” deb e‘lon qilgan. Demak bunday nomer soxibi estradada – ventrolog nomi bilan mashxur bo‘lgan.

Miniatyura – “kichik shakl”li janri.

Miniatura – fransuzcha “kichik shakl” ma’nosini anglatadi. Tomosha san’atida raqs, qo‘shiq, she’r xamda sirk nomerlari o‘zining kichik shakli bilan qadimda ma’lum va mashxur edi. Bu shakl qisqa dialogli xazil – pyesalar intermediya, sketch, vodvillar ko‘rinishida asta sekin saxnada o‘z o‘rnini topdi. Bunday kichik shakldagi tomoshalar miniatyura nomi bo‘lib, estrada san’atiga kirib keldi Miniatyuralar XVIII asrning oxrlarida Yevropadagi konsertlarning tarkibiy qismlariga aylandi.

XIX asrga kelib kichik shakldagi sahna ko‘rinishlari butun Yevropa tomoshogoxlarini egalladi. Kichik shakldagi pyesalar – miniatyuralarni ijro qiladigan aktyorlar turli tuman xarakterlar yarata boshladilar. Bu janr rivojlanishiga xajv yozuvchilar juda katta xissa qo‘shishdi. Natijada, miniatyura janri XX asrga kelib Rossiyada o‘z teatriga ega bo‘ldi. Miniatyutra teatrlar estrada aktyorlarining eng qobliyatlilarini o‘ziga jamladi. Tomoshabinlar endi bir kechada bir necha muallifning asrlari asosida sahnalashtirilgan miniatyuralarni tomosha qilisha boshlashdi. Bunday kichik shakldagi tomoshalarga estrada aktyorlari bir kechada o‘nlab xarakterni qiyofalarni yarata oldilar. Bu janrning qudrati xam mana shunda edi.

Gyorls – qizlarning guruhli raqsi

Gyorls – inglizcha qizlar degani bo‘lib, tomosha san’atida bir guruh qizlar ijro etadigan estrada raqsidir. Bir xil kostyum kiygan, aniq ritmgga bir xil xarakteratlar bajargan qizlar guruxi raqslari juda go‘zalligi va o‘z jozibalari bilan tomoshabinlarning extirolarga tez ta’sir o‘tkazish qudrati bilan e’tibor qozongan.

Zerikan va charchoq chiqarish uchun kabaklarga kelganlar uchun “Gyorls” – qizlar raqsi juda ma’qul bo‘lgan. Shunday qilib guruxli qizlar raqsi - “Gyorls” xam estrada tomoshalarining bir turi bo‘lib qoldi.

Tomoshalarni tashkil qiluvchilar bu go‘zallikni ta’sir kuchini e’tiborga olib guruxli raqslardan qizlar ijrosidagi muzikali spektakllar yaratdi. Endi qizlar guruxidan tashkil topganmuzikali – raqslari tomoshalar “Geyti gyorls”, “Tiller gerls”, “Zigfrid gerls” teatrlari deb nomlana boshladi.

Guruxli raqsga tushadigan qizlar tomoshalari XX asrda Yevropa myuzikxollaridan Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi kabaklarga xam yetib bordi. Ular endi kiyim – kechaklar turlarini namoyish qiladigan raqqoslariga aylandi.

Pantomima – taqlidiy xarakat.

Pantomima – grekcha hamma narsani taqlidiy ifodalovchi ma’nosini anglatadi. Bu atama qadimgi Rim tomosha san’atida ikki ma’noda ishlatilgan. Birinchisi – o‘z kechinma va tuyg‘ularini plastika, mimika va jestlar orqali ifodalaydigan raqs. Ikkinchisi – pantomima ijro etuvchi aktyor. Qadimiy Greklar yaratgan va Rimliklar rivojlantirgan bu san’at turi O‘rta asrlarga kelib mustaqil tomoshaga aylandi. XVIII asrga kelib maxsus musiqa ijrosida pantomima ko‘rsatgan aktyor konsertlarga taklif qilina boshladi. XIX asrga kelib Fransiyada pantomimachilar san’ati rivojlanib buyuk aktyorlar paydo bo‘ldi. XX asrga kelib Rossiya sirkklarida pantomima aktyorlari o‘z nomerlarini ko‘rsata boshladilar. Pantomima – musiqa orqali rivojlangan syujetni xarakat, plastika, mimika, jest bilan ifodalaydigan o‘zining ijro uslubi bilan estrada san’atida o‘z muxlislariga ega.

Parodiya – qo‘shiqni aksi.

Parodiya – grekcha “para” – teskari, “oda” – qo‘shiq, ya’ni qo‘shiqni aksi ma’nosini anglatadi. Adabiy janr xisoblangan parodiya biron she’rni xazil – mutoiybaga olib, zaif tomonlarini taxlil qilishdan boshlangan. Keyinchalik parodiya o‘zi barcha ijtimoyi xayotdagi kamchiliklarni sahnadan turib taxlil qiladigan janrga aylandi. Parodiya asosini shaklini mazmuniga qarama-qarshi qo‘yish va mantiqan taqqoslash tashkil qiladi. Taxlil qilinayotgan obyekt mazmunini olib borib unga aloqasi yo‘q shaklga taqqoslanganda tomoshabinda kulgi paydo bo‘ladi. Bundan unumli foydalangan parodiya ijodkorlar – aktyorlar turli mavzuga erkin yondoshib nomerlar yarata oldilar. Shu nuqtai nazardan qo‘shiq, raqs, she’r, musiqa, sirk, nomerlariga, xatto, buyuk shaxslar fe’l atvoriga parodiya yaratish mumkin.

Dramaturglar xam bo‘lib o‘tgan voqeani aksini ifodalash uslubidan foydalanishadi. Ular qaxramonning aksi bo‘lgan personajni voqeaga kiritib o‘z g‘oyalarini yorqin ifodalaydilar. Bu usul estrada saxnasida ikki tuporini tushunish bilan ifodalandi. Birinchi aktyorni tupori savoliga – ikkinchisi o‘ta tuporilik bilan javob beradi.

Parodiya janridan sirk masxarabozlari, qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari, shoirlar xam foydalanadi. Bu janr ayniqsa estrada tearida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Mashxur ijodkorlarning fe‘l atvoriga yoki qiliqlariga parodiyalar yaratish estrada aktyorlariga juda keng imkoniyatlar berdi.

Intermediya – qo‘shimcha tomoshaning kichik shakli.

Intermediya – lotincha “oralig‘idagi qo‘shimcha tomosha” ma’nosini anglatadi. Xazil – mutoyibali qo‘shimcha tomosha – nomer shaklidagi qo‘shiq, muzika, she’r yoki raqs mavzu g‘oyasini yanada yorqinroq ifodalash uchun yordam bergani uchun intermediya deb atalgan. Bu tushuncha misteriya ya’ni diniy mavzulardagi spektakllarning kartinalari orasida, dekoratsiya almushguncha, parda oldida ijro etilgan tomoshani – intermediya deb atalishidan kelib chiqqan. Intermediya ijrochiasi badihago‘ylik bilan mavzuga mos xazil mutoibalar bilan tomoshabinlarni kuldira olgan.

Italiyada katta shakldagi tomoshalar – tragediya va komediyalar aktlari oralig‘ida kichik shakldagi – intermediyalar ijro qilinishi XVI asrdan odat tusiga kirdi. Fransiyada esa komediya del art xalq teatri Intermediyalar ijrosi bilan mashhur bo‘ldi. Molyer o‘z teatrida aktlar oralig‘idagi intermediyalardan unumli foydalangan. Angliyada intermediyalar insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladigan satiralarni namoyish qiladigan nomerlarga aylanib ketdi. Shekspir asarlari ijro qilinayotgan payitda, aktlar oralig‘ida shut – masxarabozlar guruxi intermediyalar ijro qilganligi xaqida ma’lumotlar bor. Balki shuning uchun u o‘z asarlaridagi eng og‘ir saxnalarida masxaraboz satirik monologlar bilan xaqiqatni ochib tashlashidan o‘rinli foydalangandir.

XVIII asrga kelib Ispaniyada intermediya mustaqil janr maqomini oldi. Chunki, u xalq teatrining asosiy ifoda quroliga aylandi. Xazil – mutoyiba va badihago‘ylikka

asoslangan bunday nomerlar xalqning mayishiy turmushidagi mavzularni saxnaga olib chiqishga, uni ustidan kulishga imkon yaratdi. Bu janrdan Servantes o'z asarlari g'oyasini ochishda ustalik bilan foydalanadi.

Rossiya va Ukrainada namoyish qilingan tomoshalar oralig'ida ko'rsatilgan nomerlar ijrochilari "tentaknamo kishilar" deb atalgan. XIX asrda intemediyalar qo'shiq va raqslar bilan boyitilib aloxida ijro etiladigan bo'ldi. Intermediya Rossiyada mustaqil janr darajasida ijro qilingan. Intermediya nomerlaridan XX asr boshida rejissyor Vaxtangov o'z spektakllarida ustalik bilan foydalandi. U "Turandot malikasi" spektaklini intermediyalarga qurib bu tomoshani juda mashxur qildi. Bu tomoshadan keyin intermediya janri juda mashhur bo'lib ketdi.

Chtets – adabiy janr ijrochisi

Chtets – rus estradasida adabiy asarlarni ijro qiluvchi aktyor hisoblanadi. U asosan konsertlar mavzusiga mos she'rlar ijrosi bilan tomosha g'oyasini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek chtets – aktyor o'zi tuzgan she'riy yoki nasriy kompazitsiyalari bilan adabiy kecha – bir aktyor teatrining spektaklini yaratgan.

Ba'zi spektakllar qo'g'irchoq bilan savol-javob ya'ni dialogga qurilgan. Qo'g'irchoqni xam aktyor o'zi boshqargani uchun bunday shakl xam bir aktyor teatri maqomini olgan. Bunday tomosha – spektakllarda aktyor teatrning barcha jixozlaridan – svet, muzika, rekvizit, dekoratsiya, kostyum, grimdan foydalanib badiiy yaxlit spektakl yarata olgan.

Har bir xalq orasida ertakchilar, xangoma aytuvchilar, aqinlar, baxshilar azaldan yakka o'zi – soz, qo'shiq, uyg'unligida bir kecha davomida tomosha – spektakl ko'rsata olgan. Shu an'anani davom ettirganlar keyinchalik "Bir aktyor teatri" maqomini oldi. Agar bunday aktyor konsertda qatnashsa-u chtets – adabiy janr ijrochisi deb e'lon qilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. So'z ustida ishlash deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'sirchan so'zga erishishda nimalarga ahamiyat beriladi?
3. Tasavvur omilining nutqdagi o'rni qanday?
4. Tasavvur va fantaziyaning o'zaro farqli va uyg'un jihatlari nimada?

5. Ichki ko‘rish xususiyati talaba ijodida qanday ahamiyat kasb etadi?
6. Sahna haqiqatiga qanday erishish mumkin?
7. K.S.Stanslavskiy munosabat haqida qanday fikrlarni aytib o‘tgan?
8. Sahnaviy diqqatning vazifasi nimalardan iborat?

2-Mavzu: ADABIY PARCHALAR TAHLILI

Reja:

1. Repertuar tanlash yo‘llari
2. So‘z ustida ishlash bosqichlari
3. Adabiy matnlar ustida ishlash

Tayanch iboralar: Repertuar, parcha, manzara, murakkab parchalar, adabiy kompozitsiya, mashg‘ulot, yakka ijrochilik.

Teatrda qo‘yiladigan spektakllar va yakka ijro etiladigan asarlar jamiga repertuar deyiladi. Repertuar tanlash ijro etish uchun munosib asarni izlab topish demakdir.

O‘quvchi va o‘rganuvchilar bilan ishlash uchun repertuar tanlaganda butun diqqat-e‘tibor tizimli, muntazam o‘rganish jarayoniga qaratilishi kerak. Buning uchun qilinadigan ishlarning oddiydan murakkabga, osondan-qiyinga tomon bo‘lgan yo‘nalishi va ana shu yo‘ldagi izchillikka rioya qilinishi shart. Shunga ko‘ra, so‘z ustida ishlaganda quyidagi bosqichlarni albatta o‘tish kerak:

**Manzarali
tasviriy parcha**

**Kam voqeali
adabiy parcha;**

**Ko'p voqeali
adabiy parcha;**

**Turli janrga oid
adabiy parcha;**

**To'liq asar yoxud
murakkab
adabiy parcha.**

Manzara – ijrochilik faoliyatining dastlabki davriga oid bo‘lib, ijrochida tabiiylik, ko‘rish, muomala kabi hususiyatlarni tarbiyalashda qulaylik tug‘diradi.

Manzara, albatta biror yozuvchi asaridan tanlab olinishi shart. Shuningdek, tanlangan manzara aniq ko‘z oldiga keltirilib (tasavvur etib) bo‘ladigan biror joy, narsa yoki shularga o‘xshash obyektning tasviri bo‘lsin. Unda qayg‘uli voqealar, dahshatli hodisalar yoki chalkash fikrlar bo‘lmasligi kerak. Oddiy, sodda, iloji bo‘lsa, biror kishi tomonidan gapirilib beriluvchi yorqin manzara bo‘lsin. Tanlangan parcha nasrda yozilgan bo‘lishi shart. Shunisi ham borki, parcha qisqa bo‘lsa ham tugallangan bo‘lishi, biror muayyan obyekt yoki hodisani tasvirlash bilan cheklanishi katta ahamiyatga ega. Parchalar, agar birinchi shaxs (men) nomidan gapirib beriladigan bo‘lsa, yanada yaxshi, chunki bunda ijrochi-talaba ham o‘z nomidan gapira boshlaydi.

Tanlanadigan manzara parchalari imkon boricha qiziqarliroq, ijrochi-talabani ruhlantiruvchi yoki hissiyotini uchqunlantiruvchi harakterda bo‘lishi foydalidir. Shuningdek, ijrochi-talabani musiqa eshitish qobiliyati va musiqa taktlari (o‘lchovi) ostida chinakam yashashga o‘rgatish niyatida, keyincha kuy va qo‘shiqlar kiritishga imkon beruvchi manzaralarni tanlash ham mumkin. Shuningdek, ijrochi-talabalarning shaxsiy xususiyatlari, harakteri va intilishiga qarab, turli muallif, janr, davr va hajmdagi tasviriy (manzara) parchalarga murojaat etish lozim.

Portret fransuzcha “*portraire – tasvirlamoq*” degani. Personajning so‘z vositasida tasvirlagan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), ijrochi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning harakterini ochish vositalaridan biri. Shartli ravishda statik va dinamik portret turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, portretning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday portretlar personad asar voqealigiga ilk bor kirib kelgan pallada (masalan, “Kecha” da Razzoq so‘fi portreti) beriladi. Dinamik portret deyilganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya’ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko‘rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday portret detallari (yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakati, qiliqlari) ko‘proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi.

Peyzaj fransuzcha “*paysaje – joy, yurt*” degani. Adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon tasviri. Peyzaj nafaqat tabiatni, balki, u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Jumladan, peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo‘llanadi. Bunda joy tasviri (unda “ranglar”) personaj ruhiyati bilan uyg‘unlik kasb etishi ham, unga kontrastli fon bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin. Epik asarlarda ancha mufassal tasvirlangan peyzajlar keng o‘rin tutsa, dramatik asarlarda faqat shartli ravishdagina peyzaj haqida gapirish mumkin⁸.

Kam voqeali parcha. Manzara bosqichi yaxshi o‘zlashtirilgach, ya’ni ijrochilar ko‘rish, muomala kabi zaruriy elementlarni o‘zlashtirgach, vazifani bir oz og‘irlashtirish mumkin. Agar manzaralar voqeasiz bo‘lgan bo‘lsa, endi olinadigan parchada chalkash yoki mashaqqatli bo‘lmagan bir-ikki voqea sodir bo‘lishi mumkin. Agar tanlangan parcha manzaradan boshlanib keyin voqeaga o‘tadigan bo‘lsa, yana ham yaxshi bo‘ladi. Lekin chalkash voqealardan, chuqur psixologik vazifalardan xoli bo‘lishini ta’minlash kerak. Hozircha aniq va ravshan talaffuz, mustahkam nafas, jarangli ovoz, yaxshi muomala va ko‘rish, shuningdek sodir bo‘layotgan sodda voqealarga munosabat elementini tarbiyalovchi parchalar ko‘zda tutiladi. Ularning hajmi (daftar qo‘l yozmasi o‘lchovida 1,5-3 bet o‘rtasida) quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Ajoyib odam

S.Ayniy

Bir kun asr va shom orasida mullalar odatlaricha Mir Arab madrasasining miyon saroyida – kirish yo‘lagida o‘tirgan edilar. Tashqaridan madarasaga qarab kelayotgan bir odam ko‘rindi. Bu odam uzun bo‘yli bo‘lib, podshohlik banoras choponi uning tizzasidan kelardi. Bu kishining gavdasi to‘liq bo‘lganidan bo‘yining uzunligi uncha sezilmas va birinchi qarashdao‘rta bo‘yli odamlarday ko‘rinardi. Uning bo‘yni ham bo‘yiga yarasha uzun va gavdasiga muvofiq to‘la edi. Lekin doshi

⁸ Д.Қуроноф, З.Мамажанова, М.Шералиева. Адабиётшунослик луг‘ати. Қайта нашр. Академнашр. Т-2013 йил. 220-226 бетлар.

odatdan tashqari katta bo‘lib, bo‘yni unday katta boshni ko‘tara olmaganidan bo‘lsa kerak, yo‘l yurganda u yon-bu yonga egilardi.

Bu odamning tusi bug‘doy rang, yuzi to‘la va silliq edi, yoshini oltmishdan oshgan-taxmin qilish mumkin bo‘lgani holda, yuzida ko‘zga ko‘rinarli ajinlar sezilmasdi. Soqoli o‘rtacha va qisqaroq, oq tuklari qorasidan ko‘proq ko‘rinardi.

Bu kishining qo‘lida ruscha hassa (palka) bor edi. Palkalar o‘rta bo‘yli odamlarni nazarga olib yasalgani uchun, u odamga bir muncha qisqalik qilar va u yo‘l yurganda bo‘yi palka tutgan qo‘li tomonga qarab bir oz egilardi. Bu odam sallona-sallona viqor bilan qadam bosib madrasa darvozasidan kirganda, miyon saroyda o‘tirgan madrasa kattalari joylaridan turib, qo‘l qovushtirib, ta‘zim bilan salom berdilar.

Ko‘p voqeali parchalar. Yuqoridagi bosqichlarni muvaffaqiyatli egallab o‘tgan ijrochilar, endi bir necha voqeali parchalar olaverishlari mumkin. Bu daf‘a, asosan, yuqoridagi elementlar bilan birga, katta parchalarning boshidan oxirigacha kompozitsion birligini saqlab qolishga, boshdan oxirigacha uyg‘unlikni saqlab, soxtalik, yuzakilikka yo‘l qo‘ymaslikka intilish kerak. Ijrochi endi ongli ravishda podtkstlarni (matn zamiridagi mazmunni) ocha olishi, qo‘yilgan harakatlarni bajarishi, parchadagi ikkinchi darajali elementlarni asosiy maqsadga bo‘ysundirishi lozim.

Turli janrga oid parchalar. Bu bo‘lim avvalgi bosqichlardagi janr turlarini inkor etmaydi, albatta. Lekin bu bosqichda asosiy diqqatni ijrochilarda janrlarni his etish, har bir janrga va hatto janrlar tarkibidagi turlanishlarga (masalan, N.V.Gogol komediyalari bilan A.P.Chexov komediyalari o‘rtasida juda katta farq bor, lekin ikkisi ham bir janr – komediyaga oid) to‘g‘ri “kalid” – yo‘l topa bilishni tarbiyalashga intilish kerak. Endi ular biror asar yoki parchani qo‘lga olishlari bilanoq uning barcha tomonlari haqida o‘ylay boshlash va tahlil etishga qobil bo‘lsinlar. Shuning uchun ham bu bosqichda turli janrdagi 2-3 parcha ustida bir vaqtda ishlash boshlasa ham bo‘ladi.

To‘liq asar yoki murakkab parchalar. O‘quv jarayonining yakunlovchi davrlarida, ijrochi o‘z didi bilan tanlagan va montaj qilib ishga tayyorlagan asar yoki

murakkab syujetli, ko‘p voqeali parchalar ustida ishlashga to‘g‘ri keladi. Bu davrda diqqat-e‘tiborni ko‘proq yetuk va to‘laqonli obrazlar yaratilishiga, ijrochining chinakam organika yo‘lidan borishiga erishmoq kerak. Agar ijrochi qobil bo‘lsa, ijrochilik repertuari bo‘lib qoladigan katta asarlar va hatto ayrimlari bilan adabiy kompozitsiyalar ustida ishlash ham mumkin. Albatta, bu kompozitsiyalar ijrochi imkoniyatiga loyiq va boshlovchilar uchun munosib (kichikroq) bo‘lishi kerak.

Xullas, muntazam mashg‘ulot davri repertuar tanlaganda asosiy e‘tiborni ijrochilarda san‘atning tabiiylik, chinakamiga yashash kabi hususiyatlarini tarbiyalashga qaratish kerak. Repertuar, zikr etilganidek, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga tomon yo‘nalishda tanlanishi kerak.

Muntazam o‘qish, o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lmagan hollarda esa repertuar tanlashning quyidagi hususiyatlariga e‘tibor berish lozim;

Yakka ijrochilar uchun repertuarining rang-barangligini ta‘minlash lozim. Tinglovchilarni har doim g‘oyaviy sog‘lom, ta‘sirchan va jahon adabiyotining qimmatli namunalaridan bahramand qilish kerak. Bu narsa ularda, ijrochi oldiga qo‘ygan maqsaddan tashqari, adabiyot va san‘atga bo‘lgan didni tarbiyalaydi. Bu esa tinglovchining tushunchasi, madaniy darajasi va estetik saviyasini ko‘tarish demakdir.

Yubiley, bayram va shu kabi marosim uchun repertuar tanlagan paytda asosiy e‘tiborni tematik doira birligiga jalb etish kerak. Bunday paytlarda o‘sha o‘tkazilayotgan marosim mavzusi doirasidan chetga chiqmaslik lozim. Bu, albatta, Navro‘z va yangi yil kechasida faqat u haqidagi asarlarni ijro eting, degan gap emas. Lekin hamma narsa o‘sha o‘tkazilayotgan marosim mavzuiga, ruhiyatiga mos bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash kerakki, ijro etish uchun tanlangan asarning qimmatini uning g‘oyaviy yuksakligi va badiiy yetukligi bilan o‘lchanadi. Bunday asarlar esa har doim tinglovchi diqqat-e‘tiborini jalb eta oladi va ularga manfaat keltirishga qobil bo‘ladi. Shuning uchun ham so‘z san‘ati uchun tanlanadigan repertuar g‘oyaviy puxta, badiiy yetuk, san‘at asoslarini egallash uchun qulay

bo‘lishi kerak. Tanyanch repertuar milliy adabiyotdan bo‘lishi, jahon klassikasi va taraqqiyparvar adabiyotdan ham o‘rinli va unumli foydalanish lozim.

1.3. Adabiy matnlar ustida ishlash

Aktyor qaysi zamon va makonda sahnaga chiqishidan qat’iy nazar, Alloh tomonidan in’om etilgan layoqatini, tabiiy iqtidoriga quloq solgan holda sahnaga olib chiqqan va tomoshabin qalbini junbushga keltira olgan. Demak, Stanislavskiy bu qonuniyatlarni ichidan to‘qib chiqargan emas, aksincha inson tabiatida yashirinib yotgan imkoniyatlarni ro‘yobga chiqargan, xolos. Bu ta’limot hech bir zamon va makonda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Lekin Milliy teatrda sahnalashtirilgan ayrim spektakllarni shu holicha boshqa teatrlarga ko‘chirib qo‘yish taqlidiy san’atdan boshqa narsa emas.

Har qanday ko‘chirmachilik, boshqa aktyor tomonidan ijod qilingan rolni boshqa aktyorning rol egasiga o‘xshab o‘ynashi xuddi birovning kiyimini o‘g‘irlab kiyib olishdek gap. Lekin bitta rolni ikki aktyor ijro etishiga to‘g‘ri kelib qolsachi?

Nazira Aliyeva o‘zining «San’at mening hayotim» kitobida «Alisher Navoiy» spektaklidagi A. Navoiy rolni ikki buyuk aktyor — Abror Hidoyatov va Olim Xo‘jayevlar gavdalantirganligi xususida to‘xtalib, shunday deb yozadi:

«Olim Xo‘jayev yaratgan Alisher Navoiy obrazining mukammal talqinini ko‘rgan va eshitgan kishiga Abror aka gavdalantirgan Alisher Navoiy obrazi bundan ham yuksakroq, teranroq, mukammalroq ekanligini tushuntirib berish qiyin... Bu ikki ulkan aktyor yaratgan Alisher Navoiy obrazi san’at bo‘stonida mangu viqor to‘kib turuvchi ikki buyuk chinorga o‘xshaydi»...

Demak, har ikkala aktyor yaratgan ulug‘ siymo qiyofasida ikki buyuk aktyorning o‘zigagina xos bo‘lgan entires, hishayajon va shijoat aks etgan.

Bu mavzudagi so‘zni muxtasar qilar ekanmiz, Stanislavskiyning: «Olg‘a intilmaydigan san’at va aktyor bamisoli orqaga ketayotgan san’at va aktyordir», — degan so‘zlarini ta’kidlab o‘tamiz.

Aktyorning professional tarbiyasi to'g'risida so'z borsa, shuni ta'kidlash lozimki, hech bir teatr maktabi aktyorga rolni qanday o'ynash kerakligini o'rgata olmaydi va buni maqsadni o'z oldiga qo'ymaydi ham.

Professional ta'limotning asosiy maqsadi — aktyor uchun ijodiy imkoniyatlarini ochish sharoitini yaratish, ijod jarayonida duch kelinadigan to'siqlarni yengib o'tishning usul va yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Badiiy ijod — tabiiy jarayon ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Faqat texnik jihatlarni namoyish qilishning o'zi san'at emas, u chapdastlik, ustalik bo'lishi mumkin, xolos. Shuning uchun har qanday teatr sohasidagi ta'limning maqsadi, bo'lajak aktyorga haqiqiy ijod sirlarini ochish uchun qulay sharoit yaratishga, yashirinib yotgan imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordamlashishdan iboratdir.

Aktyorlik mahorati o'qituvchisi, butun diqqat e'tiborini, talabaning ichki texnikasini uyg'otib, uni rivojlantirib, o'stirishga qarasayu, tashqi texnikani rivojlantirish (ovoz, nutq, jismoniy mashqlar, sahna harakatlari) yordamchi fan o'qituvchilarining vazifasiga kiradi, deb o'ylab, o'z zimmasidan bu fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni soqit qilsa, tarbiyaning mutlaqo noto'g'ri yo'nalishini tanlagan bo'ladi. Mahorat o'qituvchisining bunday munosabatini darhol o'zgartirish lozim.

Yordamchi va maxsus fanlar bo'yicha o'qituvchilarning vazifasi talabada ma'lum harakatlarning o'zinigina tarbiyalash bilan chegaralangan bo'ladi.

Tashqi harakatlarni to'g'ri bajarishning o'zi hali tashqi texnikani o'zlashtirib oldi degan gap emas. Qachonki, tashqi harakatlar ichki harakatlar bilan birgalikda davom ettirilsagina, uni «tashqi texnikani egallagan», deyish mumkin.

Bunday ishni ichki va tashqi texnikani birbiri bilan bog'liqlikda olib boradigan mahorat o'qituvchisigina bajara olishi mumkin.

Talabaning ichki texnikasini to'g'ri tarbiyalash orqali undagi haqiqat tushunchasini, yoki haqiqat sezgilarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. YA'ni texnikaning poydevori — harakat sezgisidir.

Haqiqat sezgisini bilmagan, tushunmagan, natijada undan bexabar talaba hech qachon to'laonli ijodiy jarayonga kirisha olmaydi.

Sababi, bunday talaba o'zi harakat qilayotgan shartsharoitda, yasama bilan haqiqiy, ko'chirmachilik bilan tabiiylik, taqlidiy san'at bilan kechinma san'at o'rtasidagi tafovutni sezmaydi. Haqiqat sezgisi talabaga yo'lni to'g'ri ko'rsatib turuvchi kompasga o'xshaydi.

Aktyorlik san'ati ijodkordan yana bir qobiliyatni talab qiladi. Bu shaklni sezish qobiliyatidir. Aktyorlik kasbining muhim tomonlaridan biri bo'lgan shaklni sezish salohiyati, o'zidagi barcha ta'sirchan vositalardan unumli foydalangan holda, tomoshabinga ta'sir ko'rsata bilish qobiliyatini vujudga keltirib, shakllantirar ekan.

«Shakl sezgisi»ni tarbiyalash tashqi texnikani o'stirishga olib keladi. Aktyorning professional mahoratini belgilovchi haqiqat va shakl sezgilari alohida makonda (ichki va tashqi) paydo bo'lishiga qaramay, birbirini uzluksiz to'ldirib turishi kerak.

Ularning o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida, aktyorning uchinchi quroli — ifodaliliktug'iladi. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi ichki va tashqi texnikani birbiriga bog'lash orqali sahnadagi harakatning ifodaliligini o'stirishga qaratilmog'i darkor. Professional ta'limning yana bir vazifasi aynan shundan iboratdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir asar uchun zaruriy xususiyatlardan tashqari, spektaklning sahnaviy talqini va shaklidan kelib chiqib, o'sha asarga xos bo'lgan ifoda vositalaridan mohirona foydalana bilgan aktyorgina o'zining yuksak mahoratli aktyor ekanligini isbot qila oladi. Milliy teatrimiz tarixida bunday yorqin iste'dod sohiblarini istagancha topish mumkin. A. Hidoyatovning «Malikai Turandot» asaridagi Kalof roli bilan Shekspirning Otellosi, SH. Burhonov ijrosidagi Gogolning «Revizor» asaridagi shahar hokimi siymosi bilan «Shox Edip» asarlarining talqini bu ikkala buyuk aktyor tomonidan turlicha shakl, turlicha ijro usulida turlicha talqin qilinganligini ko'ramiz.

Demak, mahorat o'qituvchisning asosiy vazifalaridan biri turlicha shakl, turlicha uslublardan o'rinli va joyida foydalana bilish sirlarini o'z talabalariga o'rgatish va amaliy mashg'ulotlar orqali ularning ongi va tafakkuriga chuqur singdirishni talab qiladi. Bunday mas'uliyatli vazifaning uddasidan chiqish uchun

yordamchi fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikni kuchaytirishi, ularning bilimi va imkoniyatidan umumiy ish uchun o‘rinli foydalanishi shart.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Repertur tanlashda nimalarga e‘tibor beriladi?
2. So‘z ustida ishlaganda nimalarga ahamiyat beriladi?
3. So‘z ustida ishlash bosqichlariga alohida misollar bilan to‘xtalib o‘ting?

3-Mavzu: TURLI MAVZUDAGI MATNLARDA TAHLIL VA TALQIN

Reja:

Asar muhitini o‘rganish

Asarda mavzu va g‘oya

Asar syujeti

Adabiy montaj san‘ati


Tayanch iboralar: Janr, nasr, hikoya, roman, mavzu, g‘oya, syujet, kompozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim, konflikt, montaj.

Adabiy asarning ijrosi borasida izlanish olib borgan talaba, avvalo asar muallifi va uning ijodiy yo‘li nimalar iborat ekanligini o‘rganib chiqishi talab etiladi. Muallifning badiiy salohiyati asar voqeligini hayotiyashtiradi. Muallif hayoti va ijodini o‘rganish talabning badiiy asar tili va uslubini yorqin talqin qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Cho‘lpon, Qodiriy, Oybek va shu kabi bir qancha yozuvchilarning hayoti qatog‘on davri malomatlari ichida kechgan va ularning ijod mahsullari shu davrning chirkin illatlarini ochib berishga yo‘naltirilgan. Shu bois ham ularning asarlari zamirida isyonkorlik ruhiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu isyonkorlik xalq hayoti va turmush tarzini yaxshilash, ma‘rifatli bo‘lishga chorlashdan iborat edi. Yozuvchining hayoti, ko‘rgan va bilgan haqiqatlari har bir asar negizida real va badiiy to‘qimalar bilan boyitilganligi uning badiiy ta‘sir kuchini belgilab beradi.


Misol uchun Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romani bosh qahramon Zebi obrazini yaratishda o‘zi bilgan va tanigan, qolaversa o‘sha davr voqeligini ochib berishda ma’naviy qaloq jamiyatning illatlari nimalarga olib kelishini haqiqiy hayotdan olib yozgan. Zebi obrazi Cho‘lponning sevimli shogirdi, o‘zbek teatr san’atida ilk ayol obrazlarini sahnada gavdalantirgan Tursunoy Saidazimovanning fojiali qismati asosida yaralganligi hech kimga sir emas. Cho‘lpon hayoti va ijodini o‘rganar ekanmiz, xalqimizning sevimli aktrisasi T.Saidazimovanning yoshi bir joyga yetib qolgan boyga 12 yoshida nikohlab berilgani, yosh qizning boy xonadonidagi xo‘rlilik va azob-uqubatlarga chidolmasdan qochib ketib, o‘z orzu-umidlari bilan baxtli hayot kechiriyotganida turmush o‘rtog‘i tomonidan 16 yoshida fojiali o‘ldirilishi o‘sha davr qizlarining ayanchli qismatidan darak berardi. “Oradan necha yillar o‘tib, ruhiy jarohatlari bir oz malham topgach, Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi-Zebona obrazida Tursunoyning mashaqqatli va fojiali qismatini tasvirlab, uning xotirasini abadiylashtirdi⁹”, - degan fikrlarni keltirib o‘tadi professor Naim Karimov o‘z izlanishlarida. Bu kabi faktlarni o‘rganish, badiiy asar ijrosining ta’sirchan va jonli bo‘lishi ta’minlaydi. Negaki, talaba asar zamirida va qahramonlar taqdirida nimalar ro‘y berganligini butun vujudi bilan his qilib turadi. Zebi obrazi orqali Tursunoy singari qizlarning ayanchli taqdiri talabani ham o‘ylashga, ham fikr yuritishga undaydi.

Turli mavzudagi matnlar tahlili va talqini jarayonida asar muhitini o‘rganish talabaning ijro mahorati yanada aniq va ravon bo‘lishini belgilab beradi. Bunda esa quyidagi badiiy hususiyatlarga murojaat qilish va ularni o‘rganib chiqish asosiy vazifa qilib beriladi:

9 Каримов Н. Чўлпон, - Т., 2003, “Шарқ” нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси, Б-327.



Janr – fransuzcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi tur, xil demakdir. Adabiyotshunos olimlar badiiy adabiyotni uchta asosiy janrlarga bo‘lgan holda o‘rganishni maqsadga muvofiq deb belgilagan, o‘z navbatida har bir janr yana bir qancha yo‘nalishlarga ajralganligini quyidagi jadval misolida o‘rganib chiqish mumkin:



Proza asosan nasriy yoʻlda yozilgan asarlarni qamrab olib, unda yozuvchini qurshagan tashqi dunyo voqea-hodisalarning bayoni tasvirlangan boʻladi, poeziya insonlardagi his-hayajonga boy tuygʻular kechinmasini sheʼriy talqinga joylaydi, dramaturgiya esa harakat va oʻzaro munosabatlarga qurilgan holda ishtirokchilarning dialog va monologlarida ochib beriladi. Janrlarning bunday oʻziga xosligi talabaning fikrlarini aniq, izchil, ravon va maqsadli yoʻnaltirishda ijodiy koʻmak beradi.

Muallif biron bir asarni yozishdan oldin, uning mavzusini aniqlab oladi, qaysi mavzuni qalamga olgani va uni kitobxonga qanday ifoda qilishni rejalashtiradi. Va eng muhimi bu mavzuni yoritish, uni xalq eʼtiboriga taqdim qilishda qanday gʻoyani olgʻa surmoqchi ekanligini aniq belgilab oladi. Shu bois ham asar mavzusi va gʻoyasini toʻgʻri baholay olish muallifning mahoratiga bogʻliqdir.

Mavzu – arabcha soʻz boʻlib, “qoʻyilgan, tartibga solingan” degan maʼnoni bildiradi. Badiiy mazmun komponenti, asarda qoʻyilgan ijtimoiy, falsafiy, maʼnaviy, ahloqiy va hokazo muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali. Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli oʻlaroq voqea boʻladi. YAʼni borliqda yashayotgan individ sifatida ijodkorni muayyan muammolar oʻylatadi, tashvishga soladi. Ijodkor oʻzini qiynagan muammolarni badiiy idrok etish uchun keng va qulay imkon beruvchi hayot materialini tanlaydi va tasvirlaydiki, bu badiiy asar mavzusidir¹⁰.

Muallif tanlagan va jamiyatdagi qaysidir muammoni qamrab olgan mavzuni talaba ijrosida aks ettirishi uchun muallif va ijrochi oʻrtasida ruhiy bogʻliqlik paydo boʻlishi kerak. Talaba asar mavzusini anglamasdan turib, uning ijrosini taʼminlay olmaydi. Badiiy asarni qunt bilan oʻrganib chiqqan talabagina muallif mavzusini toʻgʻri talqin qiladi. Talaba badiiy asarni mutolaa qilish jarayonida asar janrini, mavzusini tushinib yetadi va muallif olgʻa surgan asar gʻoyasini badiiy mushohada qiladi. Har qanday asarning qimmatini uning gʻoyaviy yetukligi taʼminlaydi. Shu

¹⁰ Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati – T., 2013, “Akademnashr”, B-158.

bois ham g'oya badiiy asarning ma'no-mazmunini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G'oya:

Badiiy g'oya, badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr. Aslida tasvirlanayotgan voqeaodisalarga muallifning g'oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar sistemasi vositasida qo'yilgan muammolarning badiiy idrok etilishi va baholanishi natijasida namoyon bo'luvchi badiiy hukm.

Ijodkor tasavvurida hosil bo'lgan, dard va qiyinchiliklarda tug'ilgan g'oya asosida ijod mahsuli yaraladi. Topilgan g'oya badiiy to'qimalar bilan boyitilib, chuqur ma'no-mazmunga ega bo'lgan asarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu g'oyalarni ochib berish, uni kitobxonga tushunarli qilib yetkazib berishda boqiy obrazlar faol qatnashadi. Asar g'oyasi asosan, bosh qahramon obrazida mukammallik kasb etadi va uning maqsad-muddaosi bilan hayotiy ko'rinish hosil qiladi. Tadqiqotchi olim S.Inomxo'jayev "Badiiy o'qish asoslari" kitobida asar g'oyasi to'g'risida shunday fikrlarni yozib qoldirgan: "G'oyaning salmog'i badiiy obrazlarning yetuklik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Agar Gamlet va Otello obrazlari shu qadar to'laqonli bo'lmaganda, mazkur asarlarda olg'a surilgan g'oyalar ham shu qadar boqiylik kasb etolmagan bo'lur edi.

Ijrochi ana shunday chuqur va murakkab hodisalarga to'qnash kelganda ham to'g'ri xulosa chiqara olishi, ijro etish uchun tanlangan asarning g'oyaviy salmoqdorligini, sog'lomligini ta'minlashi shart. Shuning uchun ijrochilarni tarbilashda ularni g'oyaviy chiniqtirishga alohida e'tibor berish kerak¹¹" - deydi.

¹¹ Иномхўжаев С. Бадий ўқиш асослари - Т., 1973, "Ўқитувчи" нашриёти.

Mohir hikoyanavis Abdulla Qahhor ijodini o‘rgangan olimlar M.Qo‘shjanov, O‘.Normatov yozuvchi ijodi va uning nodir asarlari yaralishida muhim bo‘lgan hususiyatlar to‘g‘risida shunday izohlarni keltirib o‘tgan: “Abdulla Qahhor kitobning o‘qimishli bo‘lishini ikki narsada ko‘radi. Birinchisi, kitob ilhom bilan yozilishi kerak. Ilhom esa, yuqorida aytilganidek, dard, ehtiros, xalq dilidagi dardni seza bilish, uning tili uchida turgan gapini bilish. “Ilhomsiz yozilgan o‘lik asarlarni hech qanaqa yuksak g‘oya, hech qanday muhim tema, texnika, malaka tiriltira olmaydi”. Kitobning o‘qimishli bo‘lishining yana bir manbai yozuvchining badiiy mahorat sirlarini egallashidadir¹²”.


Asar muhitini o‘rganishda mavzu va g‘oya birlamchi omil bo‘lsa, asar syujeti, konflikt va adabiy montaj jarayoni uni harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga keladi.

Adib biror maqsad-g‘oyani talqin etmoqlik uchun qator hayotiy voqealarni mujassamlashtirib, badiiy obrazlar yaratadi. Badiiy obraz yaratilish jarayoni esa qandaydir bir aniq hodisa yo voqeadan boshlanib, yozuvchi borgan sayin uni o‘stiradi, boyitadi. U o‘z maqsadini ifoda etuvchi hodisalarnigina tanlaydi va ularni aniq rivojlanib, takomillashib boruvchi asosiy voqeani yo‘nalish atrofiga birlashtiradi. Asarda muallifning fikri va maqsadlarni ifoda etuvchi turmush hodisalarning o‘sib, rivojlanib borishiga syujet deyiladi. Yana soddaroq qilib aytganda, syujet adabiy asarning asosiy mazmun skeletidir. Syujet fransuzcha suiet “predmet, asosga qo‘yilgan narsa” demakdir¹³.

Syujet butun bir asarning umumiy mazmun-mohiyatini qamrab olgan voqea-hodisa atrofida birlashadi va obrazlar xatti-harakati orqali jonlanadi. Obrazlarning harakati esa syujet chizig‘i doirasida voqelikni badiiylashtiradi. Asar voqeasi va obrazlar xatti-harakati quyidagi elementlar asosiga quriladi va mantiqiy izchillik bilan rivojlanib boradi:

¹²Qўshjanov M, Normatov Ў. Маҳорат сирлари - Т., 1968, G‘офур G‘улом номидаги бадий адабиёт нашриёти, Б-216.

¹³ Иномхўжаев С. Бадий ўқиш асослари - Т., 1973, “Ўқитувчи” нашриёти.



Tugun – badiiy asar syujetining muhim va asosiy elementi hisoblanadi. Asar mazmunidagi bosh muammo va konfliktlarni keltirib chiqaruvchi bo‘g‘in sifatida voqealar rivojiga turtki bo‘ladi. Tugun jiddiy to‘qnashuv zamirida paydo bo‘lib, asar voqeligida faol qatnashadi. Badiiy asar voqea-hodisalarning qarama-qarshiligi bilan o‘smaganligi sabab, syujet ham tugunsiz rivojlanmaydi. Masalan, yozuvchi Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” romani syujeti uchun shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayotini asos qilib oladi. Otasi Umarshayx mirzoning bevaqt o‘limi sabab, yosh shahzoda taxt xukmdori deb e‘lon qilinadi. Shayboniyxon qo‘shinining bostirib kelishi, shaharning qamalda qolishi Boburning ota yurtini tashlab, o‘zga yurtlarda qo‘nim topishiga sabab bo‘ladi. Bobur mirzoning otasidan ajralib qolishi hayotiy qarama-qarshilikni tug‘dirgan bo‘lsa, o‘z vatanidan chiqib ketishi jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi, bu jarayon esa asar syujetining tuguni sifatida voqealarni rivojlantirib boradi.

Tugundan keyin voqealar o‘sa boshlaydi. Qandaydir muammolarga ko‘tariladi, vaziyat keskinlashadi, konflikt chuqurlasha boshlaydi. Qarama-qarshi kuchlarning to‘qnashuvi tobora keskinlashadi, yondosh voqea va hodisalarning barchasi ana shu keskinlashuvga ko‘maklashadi. Asardagi voqealar rivojlanishiga oid ana shu yuqori nuqta, eng shiddatli payt, hal qiluvchi moment – **kulminatsiya** deyiladi. Kulminatsiya lotincha *culmen* – “cho‘qqi” demakdir.


Tugun voqealar rivojiga turtki beruvchi richag bo'lsa, kulminatsiya obraz xatti-harakati va his-hayajonining fig'oni bilan qiyoslanadi. Eng muhimi, kulminatsiyada qahramonlar taqdiri o'zgaradi, bu holat yo ijobiy, yoxud salbiy oqibatlar bilan tasvirlanadi. Jumladan, Bobur mirzoning Hindistonni egallab, podsho Ibrohim Lodining o'limiga sababchi bo'lgani keskin to'qnashuvlarni keltirib chiqaradi va podshoning onasi malika Bayda tomonidan Boburning zaharlanishi asarning kulminatsion nuqtasi sifatida baholanadi. Zaharlanishning asorati Boburning nafaqat tanasi, balki vatanga qaytish tuyg'ularini ham barbod qiladi. Shu bois ham kulminatsiyada obrazlar taqdiri, chigal ziddiyatlarning hal qiluvchi soniyalari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Har qanday asar syujetida boshlangan muammo va qarama-qarshiliklarning albatta yakuni bo'ladi. Asar tuguni voqea-hodisalarning boshlanishi, obrazlar xatti-harakati orqali qarama-qarshiliklarning ortib borishi natijasida kulminatsiyada to'qnashadi va asar so'nggida o'zining badiiy yechimini topadi. Asarning bunday hususiyatga ega bo'lishi, syujet qurilmasining puxta tuzilganligidan dalolat beradi.

Yozuvchi P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani bosh qahramon Bobur mirzoning o'limi bilan yakunlanadi. Bobur malika Bayda bergan zahar asoratining ta'sirida vafot etgan bo'lsa-da, aslida uni ona Vatan sog'inchi, yurt qadri, tug'ilib o'sgan ota makonga qaytib borolmaslik hissi halok etgan. Voqelik shu tarzda o'z yechimini topadi, lekin yozuvchi asarning mantiqan davomi bo'lgan "Avlodlar dovoni" romanini kitobxonlar e'tiboriga havola qiladi-ki, bu mavzu hali o'z yechimini topmaganidan dalolat beradi.

Asar syujet qurilmasi tugun, kulminatsiya va yechimdan iborat bo'lib, mantiqan uzviylikni ta'minlashda muhim omildir. Bunday uzviy birlikni bog'lovchi va harakatga keltiruvchi kuch esa konfliktdir.

Konflikt – (lotincha *conflictus* – to‘qnashuv) personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o‘zaro to‘qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar.



Har qanday badiiy asar voqeligi ziddiyat va qarama-qarshiliklar zanjiri bilan biriktiriladi. Syujet tuguni dastlabki qarama-qarshilikni keltirib chiqarsa, ziddiyatlarning o‘sishi va keskinlashuvi kulminatsiyada sodir bo‘ladi hamda barcha muammo va qiyinchiliklarning hal etilishi esa asar yechimida aks etadi. Bunday uzviy bog‘liqlik konflikt atamasi bilan yuritiladi va badiiy asarning asosiy markazida faol harakatda bo‘ladi.

Badiiy asarning qiziqarli va ta’sirchan bo‘lishida bir qancha konfliktlardan foydalaniladi va bu kabi yondosh yoki ikkinchi darajali qarama-qarshiliklar asosiy konfliktning harakatini rivojlantirib beradi. Shuning uchun ham asarning bosh konflikti aniq topilishi va ularning asar so‘nggida bartaraf etilishiga asosiy diqqatni qaratmoq kerak.

Jumladan, yuqorida P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida tugunni keltirib chiqargan ziddiyatlar tizimi bilan tanishib, asardagi ikkinchi darajali to‘qnashuvlar asosiy konfliktni yorqin tasvirlaganiga guvoh bo‘lamiz. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zga yurtlarda sarson-sargardonligi, ota makon Andijonni qo‘msash, Vatan sog‘inchi bilan yashashga mahkumlighi ushbu asarning bosh konfliktidir.

Talabning badiiy asar syujet tizimini mukammal o‘zlashtirishi, uning ijrosida maqsadli xatti-harakatni ta’minlaydi. Ijro uchun nokerak bo‘lgan mantiqsiz, monoton, xissiz va ta’sir kuchi bo‘lmagan Stanislavskiy tili bilan aytganda, taqlidiy san’atning vujudga kelishiga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun ham badiiy asarni har jihatdan to‘g‘ri tahlil qilish kelgusida professional kechinma san’atiga asoslangan talqinni yaratishda zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba o‘z ijrosining eshitimli va qiziqarli bo‘lishini ta’minlashda asarni qisqartirish va muvofiqlashtirishni bilishi lozim. Bu jarayon esa badiiy adabiyotda montaj san’ati deb yuritiladi.

Montaj – (fransuzcha montage - yig‘moq) turli makon va zamonda kechgan voqealar tasvirining bir-biriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishini anglatadi. Epik asarlarda bir qarashda bir qarashda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan voqealarni alohida, o‘z holicha mustaqildek joylashtirish ham mumkin bo‘layotirki, sirdan aloqasizdek ko‘ringan bu parchalar badiiy niyat, g‘oya asosida bir butunlikni hosil qiladi¹⁴.

Adabiy montaj san’ati talabaning savodxonligini oshiradi. Asarning kompozitsion qurilmasiga mantiqan putur yetmasdan, qisqartirish va muhim bo‘lagini ajratib olish uchun ham asarni to‘liq o‘qib chiqish talab etiladi. Ijro uchun ajratib olingan adabiy parchaning hajmi katta va batafsil tasvirdan iborat bo‘lsa, uni qisqartib, sahnaga moslash zarur, negaki har qancha muhim voqelik tasvirlangan bo‘lmasin, uzoq va cho‘zilib ketgan ijro tomoshabinni zeriktiradi. Shu bois ham tanlangan parchada asosiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan qismlarni ajratib olish va bosh konfliktning aks etishiga diqqat qaratmoq kerak. Bu kabi izlanishlar muallif fikri va g‘oyasini talaba nutqidagi oliy maqsad bilan uyg‘unlashtirib, badiiy yetuk ijro mahoratini shakllantiradi.

“Sahna nutqi” fanining so‘z ustida ishlash qismida deyarli barcha asarlar adabiy montaj qilinadi va ma’lum bir bosqich asosida o‘rganib boriladi. Jumladan, kam voqeali parcha, ko‘p voqeali parcha va murakkab voqeali parchalarni ajratib olishda kompozitsion qurilmaning mantiqan izchilligi buzilmasligi lozim.

Mahoratli ustoz S.Inomxo‘jayev talaba diqqat qaratishi lozim bo‘lgan jihatlarga to‘xtalib: “adabiy asarlarni montaj qilish shart ekan deb, unga palapartish qo‘l urish, yengiltak munosabatda bo‘lishdan o‘zni tutish kerak. To‘g‘rirog‘i, har bir ijrochi biror asarni montaj qilish uchun kirishar ekan, muallifga nisbatan ham, o‘sha asarga nisbatan ham adolatli bo‘lishi, mantiq va badiiy yetuklikka putur yetkazmaslikka, aksincha, asarning sahna va badiiy so‘z ijrochiligida yanada

¹⁴ Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – T., 2013, “Akademnashr”, B-179.

izchillashuvi va kamol topishiga intilishi kerak. Buning uchun esa, san'at va adabiyot nazariyasini mukammal egallash, tanlangan asarni har tomonlama o'rganish, xullas, katta bilim va mahorat egasi bo'lish kerak¹⁵”, - degan qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan. Ustozning ko'rsatmalari va badiiy adabiyotda keltirilgan izohlardan shunday xulosa qilish mumkin, yuksak salohiyat va mahorat egasi bo'lish uchun badiiy asarlar tahlilini mukammal o'zlashtirish va betakror ijroni talqin qilishda asl kechinma san'atini egallash talab qilinadi.

Sahna asari g'oyasini, uni sahnalashtirgan rejissyor rejasini tomoshabinga namoyish qiladigan, unda fikr, his-hayajon uyg'otadigan zot — aktyordir. Tomoshabin ma'naviy dunyosida o'zgarish yasaydigan aktyorlar faqat sahnada tomosha ko'rsatuvchi kishilargina emas, ayni paytda, ular milliy estetik dunyoqarash targ'ibotchisi hamdir.

Bitta asarni o'nta rejissyor o'nta teatrda sahnalashtirsa, asar ma'lum aniq g'oyaga asoslanishiga qaramasdan, uning talqini har xil bo'ladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir ijodkorni alohida bir-biridan ajratib turadigan o'z qalami va o'z uslubi bor ekan. Shuning uchun bitta asarni o'nta rejissyor, o'nta teatrda sahnalashtirsa asar ma'lum aniq g'oyaga asoslanishiga qaramasdan uning talqini har xil bo'ladi.

Uslub to'g'risida gapirganda, aktyorlarda ham obraz talqinida o'ziga xos yo'nalish borligini guvohi bo'lamiz. Shuning uchun qo'g'irchoq teatr sahnasida yaratilgan jodugar kampir shoh, malika, bo'ri, quyon, ayiq, tulkiyol obrazlari har xil aktyorlar ijrosida turlicha talqin qilingan.

Misol «Yangi yil mo'jizasi», «O'lmas Kasheshey» spektaklidagi jodugar kampir o'zining xususiyatiga ko'ra bir xil xarakterga ega bo'lgan obraz. YA'ni o'zining atrofida qilarga faqat yomonlik istovchi personaj. Shunga qaramasdan bu obraz bolalar teatrining spektaklida juda ko'p talqin qilingan obrazlardan biri bo'lib kelmoqda. Yoki yosh tomoshabinlarning sevimli qahramoniga aylangan «Quyon» bilan «Bo'ri» obrazlari ham shular jumlasidan hisoblanadi. Har xil spektakl yoki

15 Иномхўжаев С. Бадий ўқиш асослари - Т., 1973, “Ўқитувчи” нашриёти.

multfilmda turli xil talqin qilingan Quyonvoy obrazi kichkintoylarning sevimli qahramoniga aylangan. Uni bolalar jon-dillari bilan sevib, himoya qilishadi. Bo‘ri obrazini oladigan bo‘lsak u har ikki pyesaning birida uchrab turadi. U ko‘pincha o‘z xarakterli xususiyatiga ko‘ra, bir xilda salbiy obraz tariqasida ko‘rsatilgan.

Lekin aktyorlar bu personajni gohida hammani qo‘rqitib yuradigan, gohida landovur, gohida rahmdil qilib, obrazni ko‘p qirralarini ochib berish imkoniga muyassar bo‘lishgan. Demak, aktyor obrazni ro‘yobga chiqarish uchun u o‘zining aktyorlik mahorati hamda iste’dodini turli vosita, usul bilan bir qatorda sahna san’atida yaratilgan ijodiy yo‘l-yo‘riqlardan ham foydalanish imkoniga sazovor bo‘lishi kerak. Ana shunda talaba bolalarning sevimli qahramoniga aylangan Polvon Kachal, Zumrad, Zolushka, G‘ozcha, Quyonvoy, Sehrli kiyik va h.k.larni har safay sahnaga olib chiqqanda, bu personajlarni yangi bo‘yoqlarda ifodalab, ularga xos bo‘lgay yangi-yangi xususiyatlarni topib, obraz talqiniga yangicha jilo bera olish imkoniga sazovor bo‘lishadi.

Obrazlarga xarakteristika berish jarayonida talaba o‘zi sahnaga olib chiqadigan personajning xulq-atvorini, uning atrofida qilargilarga munosabatini, yetakchi xatti-harakatini va oliy maqsadini aniqlab olishi zarur. Shunda obraz talqini to‘g‘ri va aniq bo‘lib chiqadi.

Aktyor faoliyati – teatr sahnasida ham, syomka maydonida ham ma’lum qonun va tartiblar, talab va imkoniyatlar darajasida kechadigan jarayon sifatida birmuncha riyozatlidir. Inson (obraz) tafakkuri, mushohadalari, dunyoqarashi, ichki olami, ruhiyatini kashf etish va buni kechinma hamda tajassum san’ati asosida amalga oshirish – bu san’at turlarining har ikkalasini birday taqozo etadi. Aktyor shu yo‘l bilan tomoshabinlar idrokini qamrab olishi, qalbiga yo‘l topa bilishi lozim. Teatr ham, kino ham san’atning sintetik turlari bo‘lib, har bir spektakl va kinofilm rassom, aktyorlar, rejissyor, grimyor, kompozitor singari turli san’at egalari mehnati zahirida yaratiladi. Bulardan har birining spektakl yoki kinofilm badiiy yaxlitligini ta’minlashdagi hissasi beqiyosdir. Chunki aktyor ijrosi, dekoratsiya, musiqa, kostyum, grim va boshqa unsurlar teatr hamda kino san’atining uzviy komponentlari hisoblanadi.

Sahna san'ati – eng murakkab, shu bilan birga, ezgulik, go'zallik, yuksak axloqiy g'oyalar bilan yo'g'rilgan sirli olam. Tomoshabinlar bu dargohda har oqshom qahramonlarga hamnafas bo'ladilar, ular ijrosidagi obrazlar bilan jonli muloqot shavqini tuyadilar.

Bundan bir necha yillar ilgari mashhur kinorejissyor M. I. Romm bir maqolasida: «Hozirgi kino taraqqiyoti teatrni siqib chiqaryapti», degandi. Ko'pincha tomoshabinlarimiz: «Televizor chiqqandan beri teatrga tushish kamayib ketyapti», deyishadi. Bu gaplarda jon bor, albatta. Chunki yaqin-yaqinlargacha odamlar ko'pincha bir-birlari bilan ko'rishish niyatida ham teatrga borishga va'dalashar edilar. Teatrning hamma san'atlar ichida alohidaligi shundaki, siz zalda o'tirib, sahnada rol ijro etayotgan san'atkor nafasidan ham, atrofingizdagi tomoshabinlar kayfiyatidan ham bahra olasiz.

Inson ruhi o'zaro muloqotlarda kamol topadi. Masalan, o'zbeklarga xos bo'lgan askiya ko'pchilik o'rtasida aytilsagina chinakam ta'sir etadi. Chunki atrofdagilarning umumkulgisi senga ta'sir ko'rsatib, zavqingni ming chandon oshiradi.

Har bir obrazni talqin etganda, uning odamiyligidan kelib chiqilaverilsa, hayotiy voqealar qahramon kimligini ko'rsata oladi. Shuning uchun aktyor hech qachon o'z ishiga kasb taqozosi deb qaramasligi kerak. Aktyorlik oddiy kasbga aylangan joyda san'at o'z qadrini yo'qotadi. Aktyorlik san'atini burch, iste'dod, hayot deb bilgan kishigina haqiqiy san'atkor bo'la oladi. Izlanish va ijod mashaqqatlariga bardosh bera oladigan chinakam fidoyilar ana shu yo'lni tanlashi va o'z burchiga sodiq qolishi mumkin.

San'at sohasida K.S. Stanislavskiy aktyor ijodining ikki yo'nalishini aniqlab bergan.

1.Kechinma sanati

2.Taqlidiy (namoyish) san'at

Kechinma san'atining asosida hayotiy haqiqat yotadi. Haqiqiy san'at insonni tarbiyalaydi, dunyoqarashini shakllantiradi. Ong tuyg'ulariga, ijtimoiy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Kechinma san'atining asosiy mezonni kishi hayotining ichki

dunyosini ochish, rolda inson ruhiyatini yaratish, badiiy shakllarda tomoshabinga ma'naviy ozuqa berish, har bir ijroda odamning ichki ruhiy omillariga singib borishdan iboratdir. Kechinma san'atida qiyofa yaratayotgan aktyor hayotning natijasini emas, uning harakatdagi jarayonini ochib berishi va ijod jarayoniga aktyor o'zini baxshida qilishi lozim bo'ladi. Hayotning murakkab chigal muammolarini hal qilishda mahorat ustuvorligi, astoydil mehnat qilish, ter to'kish lozim bo'ladi.

Aktyor butun vujudi bilan pyesaga berilib ketishi natijasida beixtiyoriy harakat qiladi. Chunki shunday paytlarda aktyor o'zini qanday his etayotganini, nima qilayotganini sezmasdan, hammasini o'z-o'zidan beixtiyor ravishda chiqaraveradi. Lekin bunday ijod hamma vaqt ham aktyorga nasib etavermaydi. Kechinma san'ati ongning ijodga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatishidir. Inson qalbi uning ongi va irodasiga bo'ysunish qobiliyatiga ega. Mana shu xususiyat ruhiy jarayonga beixtiyor ta'sir ko'rsatishga qodirdir.

Sahnada turib, rol hayoti va unga monand sharoitda to'g'ri, mantiqli, izchillik bilan xuddi hayotdagidek fikr yuritmoq, xohlamoq, intilmoq, xatti-harakat qilmoq demakdir. Aktyor aytilganlarga erisha olsa, rolga yaqinlashadi va u bilan bir xilda his qila boshlaydi. Bu rolning kechinmasidir.

Kechinma sahna san'atining asosiy vazifasini bajarishda aktyorga yordam beradi. Vazifa esa roldagi "inson ruhining hayotini" yaratish, bu hayotni sahnada badiiy ifodalashdan iboratdir. Aktyor sahnada kechiradigan hayotida, ijodning hamma sohasida san'atning birdan-bir va asosiy maqsadiga muvofiq ish tutishi lozim.

Shuning uchun ham aktyor eng avval yaratilayotgan rolning ichki tomoni haqida o'ylashi kerak. Bu ijod qilishning birinchi shartidir. Aktyor rolga monand tuyg'ularni his etmoq uchun har safar uni takrorlaganda rol hayoti bilan yashamog'i lozim.

Kechinma san'ati ijodning asosiy maqsadi roldagi "insonning ruhiy hayoti"ni yaratish bilan birgalikda badiiy shaklda uning tashqi ko'rinishini ham tomoshabinga yetkazib berishdan iborat.

Aktyor rolning faqatgina ichki kechinmalarini o‘z boshidan kechiribgina qolmay, o‘sha kechinmalarning tashqi ko‘rinishini ham gavdalantirmog‘i lozim. Otello rolini ming ichki kechinma bilan ijro etsa-yu, uning tashqi qiyofasini ijro eta olmasa, demakki, u haqiqiy Otello emas. Demak, rolning tashqi qiyofasini gavdalantirish ichki kechinmalarga bog‘liq bo‘lishi, kechinma san’atida kuchlidir. Aktyor faqat kechinma jarayonini yartuvchi ichki dunyosi haqida qayg‘urmay, balki tuyg‘ularining ijodiy ishi natijasini, ya’ni, uning tashqi ko‘rinishda mujassamlashgan shaklini to‘g‘ri aks ettiradigan tashqi qiyofasi ustida ko‘proq qayg‘urmog‘i lozim. Aktyor hayotiy kechinmalar bilan yashagandagina rolning sezilarsiz, nozik yerlarini va uning butun ichki dunyosini badiiy to‘la-to‘kis ifodalay oladi.

Faqat shunday san’atgina tomoshabinni o‘ziga to‘la jalb qilishga, sahnada sodir bo‘layotgan hamma voqealarni o‘z boshidan kechirishga majbur qiladi, uning hayot haqidagi tushunchalarini boyitadi, qalbida umrbod yo‘qolmaydigan izlar qoldiradi. Kechinma san’atida aktyor har gal ijrosida yangi qiyofaga kiradi, butun jarayonni qaytadan vujudidan o‘tkazadi.

Teatr sanatining jozibasi ham mana shunda. Rol berilgan shart-sharoit to‘g‘ri mushohada qilinib, harakat yo‘nalishi to‘g‘ri olib borilsagina hayotiy, tabiiy chiqadi. Aktyorning ichki va tashqi texnikasi, inson tabiatining qonunlariga asoslanib, ovozi, jussasidan to‘g‘ri va unumli foydalangan holda tasavvur olamiga boy, kuzatuvchan, hayotni chuqur bilgandagina zalvorli qiyofalar yaratiladi. Kechinma aktyori inson qiyofasiga, ruhiyatiga izchil kirishib borishi, uning xarakterini mukammal ochib berishi kerak. 2 Taqlidiy (namoyish) san’atida ham, kechinma san’atidek har safar rol his etiladi, lekin rolni faqat bir yoki bir necha marotaba his etib, tuyg‘ularning tabiiy paydo bo‘lishidagi tashqi shaklni bilib olgandan keyin, o‘rgatilgan muskullar yordami bilan bu shaklni mexanik ravishda qaytara berish ham mumkin. Aktyorning bu ijrosi taqlid deb ataladi. San’atning bu oqimidagi kechinma jarayoni ijod qilishning asosi bo‘lmay, balki keyingi aktyorning ijodiy mehnati bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Bu mehnat – yaratilgan sahna obrazining ichki mazmunini yaqqol ko‘rsatib beruvchi tashqi va badiiy shaklni izlashdan iboratdir. Bunday izlanish vaqtida aktyor, eng avvalo, o‘ziga murojaat qiladi va o‘zi ijro etayotgan shaxsni chinakam his qilishga – uning hayotini boshidan kechirishga intiladi. Lekin bu narsa ayonki, aktyor buni sahnada emas balki uyida repetitsiya qilib keladi. Kechinma san’atida rol ijrosining har bir lahzasi, har nafas yangidan his etilishi va yangidan gavdalanishi lozim. San’atda ko‘p narsalarga, garchi ular qat’iy belgilangan bo‘lsa ham improvizatsiya tarzida yondashiladi. Bu xil ijod aktyorning ijodiga samimiylik bag‘ishlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

Asar muhiti deganda nimani tushunasiz?

Asarda mavzu va g‘oyaning qo‘llanilishi to‘g‘risida gapirib o‘ting?

Syujet qurilmasi nimalardan iborat?

Adabiy montaj san’ati deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – T., 2013, “Akademnashr”.

Inomxo‘jayev S. Badiiy o‘qish asoslari - T., 1973, “O‘qituvchi” nashriyoti.

Qo‘shjanov M, Normatov O‘. Mahorat sirlari - T., 1968, G‘ofur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.

Karimov N. Cho‘lpon, - T., 2003, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Amaliy mashg‘ulot. TURLI MAVZUDAGI MATNLARDA TAHLIL VA TALQIN

So‘z san‘atida so‘z sehri, uning ta‘sirchanlik qudrati jumlar qurilishi va jozibador, betakror bo‘lishi uchun ham murabbiy, ham talaba izchil izlanishga so‘zning fikrlar, ta‘surotlar, tafsilotlar, munosabatlar ummonidan oqayotgan goh tiniq buloq zilol chashmasidek toza, goh tog‘u-toshlardan jo‘shqinlik va qudrat bilan oqayotgan shaloladay fusunkorlik kashf etishi beqiyos ahamiyatga, katta ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy qimmatga ega albatta o‘z-o‘zidan hech narsa sodir bo‘lmaydi. Talabalar tomonidan tanlangan turli janr mavzu voqeali adabiy matnlar yuzaki yo‘l-yo‘riq va yodlash bilan tinglovchini ishontira oladigan, ta‘sir qila oladigan, jalb qila oladigan so‘zga aylanmaydi. So‘z o‘zining jonli va ta‘sirchanlik quvvatiga ega bo‘lishi uchun, so‘z ustasi ruhan pishib yetilishi kerak. Bu esa talabadan ko‘plab adabiyotlar o‘qishi, kuzatuvchan, qiziquvchan, izlanuvchan bo‘lishini taqozo etadi. Ammo nutq texnikasini o‘rganish va o‘zlashtirishning boshlang‘ich davridanoq talabalarga matnning rivoji ifodaviy yechimini shakllantirishini ham nazarda tutishi zarur.

Matn bilan ishlashning mas‘uliyati, yuki, mashaqqati rejissyor va ishtirokchi uchun baravar kuch talab qiladi. Taniqli Ozarbayjon yozuvchisi Anor o‘zining «Dantening yubileyi» qissasida rejissyor va aktyor orasidagi rol ustida ishlash jarayonini aniq va hayotiylik mahorati bilan yoritadi. Qissa talabalar uchun adabiy ijro matni sifatida va so‘z ustida ishlashning mashaqqatli jarayonlarini his qilishlari uchun nazariy tushunchalar sifatida ma‘nba bo‘la oladi:

Bu kecha... Bu ko‘kcha... Bu ko‘cha...

Bu kecha... Bu ko‘kcha... Bu ko‘cha.

Bu kecha... Bu ko‘kcha... Bu ko‘cha.

Yo‘q, yo‘q, yo‘q!

Tomosha zali bo‘m-bo‘sh va qorong‘i. Zalning o‘rtasida ikki kishi rejissyor va rassom o‘tiribdi, rassom rejissyorning yelkasi osha sahnaga qaraydi.

Rejissyorning oldidagi kichkinagina stol ustini xira lampa yoritib turibdi. Stolda lampadan tashqari sochilib yotgan qog‘ozlar qalam, kuldon, diskasiz qora telyefon, bir shisha «bodomli» suvi va stakan bor edi.

Mashq borardi.

Rejissyor o‘rnidan sapchib turdida, ildam qadamlar bilan sahna tomon yurdi.

Chap tomondagi chiroqlar yoritib turgan sahnada grimsiz ikkita aktyor turardi. Ularning egnida o‘zlarining kundalik kiyimlari. Rejissyor chaqqonlik bilan hatlab sahnaga chiqdi va oldinda turgan qoramag‘iz o‘rtayashar aktyorning oldiga bordi.

-Fayzulla, azizim, jon birodar, - u iloji boricha hotirjam va yumshoqlik bilan gapirishga harakat qilardi, - o‘zingga iching achimasa ham, bizga rahming kelsin, ertalab to‘qqizdan beri shu yerdaman, hali tuz ham totganim yo‘q. Jonim senga qurbon, insof qil, azizim, ahir biz ham odamtz-ku!... Butun asar davomida atiga uch

og'iz so'zing bor, shuni ham aytolmaysan-a. tavba uchog'iz so'zni aniy aytishning nimasi qiyin?! Bu kecha... Bu ko'kcha... Bu ko'cha... vassalom!

Fayzulla kir bo'lib ketgan dastro'molini olib ter bosgan yuzini, bo'ynini tinmay artardi.

-Hozir-hozir-deya rejissyorni tinglantirmoqchi bo'ldi, u

-Hozir aytaman.... Ko'ngligdagiday qilib aytaman. Shoshma... Hozir... ko'p siqilaverma...

-Qani gapir-chi

-Hozir, hozir...

rejissyor gugurt chaqib sigaretini tutatdi, orqaga qaramasdan nariroqda turgan aktyorga dedi:

-Aliakrom, boshla!

Orqada turgan aktyor Fayzullaga murojaat qildi:

- Ho'sh, qani?

-Bu kecha, bu ko'kcha, bu ko'cha, - dedi Fayzulla jon-jahdi bilan

-Tfu! E seni...-Rejissyor o'zini bosolmadi, jahli chiqib tutoqib ketdi. Sahnadan pastga tushib, o'zi o'tirgan joyga bordi. Sigaretini kuldonga bosib, ezg'ilab o'chirdi, ko'krang cho'ntagidan dori olib bittasini og'ziga otdida, stakanga suv qo'yib ichib yubordi. Keyin horg'inlik bilan o'zini kresloga tashladi. Fayzulla nochor bir kayfiyatda rejissyorga yolvorardi:

-Asabiylashma, azizim asabiylashma. Biroz sabr qilgin, hozir aytaman. Hayronman, menga bugun nima bo'ldi-ya, hech o'zinga kelolmayapman.

Rejissyor rassomga o'girilib shivirladi:

-Huddi boshqa kunlari qotirib o'ynaydigandek gapiradiY.

-Bo'ldimi? Deb so'radi Fayzulla.

Rejissyor javob bermadi, faqat kallasini qimirlatib qo'ydi.

-Bu kecha! Bu Ko'kcha! Bu ko'cha! Dedi-da rejissyorga boqdi Fazulla. Rejissyorning yuzida hech bir ifoda yo'q edi. U sahna chekkasiga ma'nosiz termulganicha nigohini bir nuqtadan uzmasdi. Go'yo qotib qolganday hech narsani ko'rmas, hech narsani eshitmasdi. Fayzulla so'zlarni cho'zib, boshqa ohangda gapirdi:

-Bu kecha... Bu ko'kcha... Bu ko'cha.

Rejissyor ilon chaqqanday o'rnidan irg'ib turdi:

-Hey inson, birodar, hamshahar, musulmon, armani, mo'ltoni! Odam bolasimisan o'zi! Ey seni... deya birdan kafti bilan og'zini berkitib o'tirib qoldi. Hamma aktyorlar uning bu qilig'ini yaxshi bilishardi. Jahli chiqib asabiylashganida haqoratlovchi so'z aytib yubormasligi uchun u shunday qilardi. Rassom uning yelkasiga qo'lini qo'ydi:

-Siyovush, hoy Siyovush..., o'zingni bos...

rejissyor jahl bilan «Bodomli» suvini olib shishasidan icha boshladi. Keyin biroz hoviridan tushib rassomga yuzlandi:

Ko'ryapsanku, ko'ryapsan-ku mening ahvolimni?! Yana sen Brext, Meyrxold deysan! Axir o'zing o'yla, mana shu mahluq bilan Brext asarini qo'yib bo'ladimi? Ertalabdan beri uch og'iz so'zni odamday aytdirolmayman ko'ryapsan-ku! Men

axmoq bo'lsam, mana shu Fayzulla Kabirlinskiyga o'xshaganlar bilan buyuk san'at yarataman deb yuribman-a! Asabiy ravishda titrayotgan qo'llari bilan sigaret olib tutatdi. Rejissyor jahl bilan bosib-bosib tortdi, so'ng Fayzullaga qarab dedi:

-Hoy inson, bilib qo'y, sendan yaxshi etikdo'z, choyhonachi, oshpaz chiqadi. Yana bilmadim nima hunar qoldi. Aytaylik hommomchi, murdashov chiqishi mumkindir, lekin ikki dunyodayam sendan aktyor chiqmaydi! Ey musulmonlar, ikki qulog'ingiz bilan yaxshilab eshitib olinglar! San'at bu! Eshitdinglarmi! San'-a-a-t! Ijod! Yaratish! Ha yaratish-bu ijod! Bu san'at! Hissiyot, harorat kerak bu yerda! Lekin o'ttiz oltiyu-olti harorat bilan san'at yaratib bo'lmaydi. Avvalo o'zing qiynalishing, yonishing, yaratishing ijod qilishing kerak! Tani-joning, vujuding bilan yonishing, qrvirilishing, qaynab toshishing lozim. Quruq ovozga zo'r berganing bilan san'at yaratolmaysan, ey inson! Quruq qichqiriq bilan obraz yaratib bo'lmaydi. Ovozning o'ikir bo'lsa machitga bor, azon ayt! Lekin aktyorlik qilma! Tushundingmi? Eshitdingmi ey birodari aziz! Muazzin bo'l!

Fayzulla sahnada lom-mim deyolmay qotib qolgandi. Uyatdan, hijolatdan cho'g'day qizarib ketgandi, uning yuzidan ter quyilardi. Qirq yildan beri sahnada u, shu yillar davomida qancha-qancha rejissyorlardan, aktyorlardan ne-ne tag'nalar, haqoratlar eshitmadi, ammo ularning hech-qaysisi mana bu rejissyorday – Siyovushday haqorat qilmagan edi! Ulardan birontasi muazzin, murdashov, azon, machit degan so'zlarni tilga olmagandi. Teatrda hamma, Siyovush ham, Aliakrom ham, Fayzulla-ruhoniylar oilasidan ekanini, otasi mufti bo'lganini bilishadi. Buni ehtimol ana shu yosh rassom eshitmagandir, chunki u teatrga yaqindaina kelgan.

Rassom pichirladi

-Ey Siyovush, o'zingni qo'lga olsangchi, bechorani buncha qiynab nima qilasan? Pichoqsiz bo'g'izlading-ku, sho'rlikni qo'lidan kelgani shu bo'lsa nima qilsin.

-Ho'sh, men ahmoq nima qilay bo'lmasa? – qarg'ab ketdi Siyovush. Mening nima gunohim borki, umrimni manavi galvarslar bilan tortishib hazon qilsam?! Ho'sh aybim nima? Mana bu zot ikki so'zni bir-biriga qovushtirib gapira olmaydi-yu, yana sahnaga chiqib oladi, aql o'rgatadi!

Rassom uning so'zini bo'ldi:

-Ayb bo'ladi Siyovush, sal hurmat kerak, otang tengi odam-a.

-Otam tengi – ijirg'andi rejissyor – mening otam allaqachon narigi dunyoga ravona bo'lgan. Mana bu jonli tosh esa meni ham, seni ham tamom qiladi. Hafa bo'lma, bular yuz yil yashaydi. Nega endi yashamasin? Nima dardi, qanday g'ami bor buning? Unga ming baqir, ming haqorat qil qichqir, o'zingni-o'zing yeb ado qil parvoyi palak, boshini egib molday baqrayib turaveradi. Ehtimol ichida mening ustimdan kulishi ham mumkin, anavi ahmoqni qara, arzimagan narsaga bo'g'ilib asabni buzib jinniday qichqiryapti deb, qaraganda unga, pinagini buzmaydi. Ahir bunday axvolda qanaqa teatr, qanaqa san'at haqida qayg'urish mumkin?! Bu haqda so'z ham bo'lishi mumkin emas! Qirq yildan buyon sahnada bor yo'g'i uch og'iz so'z aytadida, maoshini olib uyiga beparvo jo'naydi. Yana qirq yil umr ko'rsa, huddi shunday yashaydi. Biron-bir o'zgarish bo'lmaydi. Biz ahmoqlar esa qayoqdagi san'at, yangilik, taraqqiyot degan be'mani gaplar bilan boshimizni og'ritib, laqillab

yuramiz! Bularning hammasi kimga kerak ahir, zaynal?! Yo‘q, yo‘q, hammasi bekorchi gaplar. Aslida dunyo mana shularniki, Fayzallaga o‘hshaganlarniki, yashashni, davr surishni mana shularga chiqargan!

Rejissyor yuragini bo‘shatib, sal yengil tortdi, sigaret tutatdi, bir ikki bosib-bosib tutatdi-da sahnaga qaradi. Fayzulla munkayganicha, haykaldek qotib turardi. U rejissyorlarga shunday itoatkorona ko‘zlari mo‘ltirab jovdirab qarab turardi.!

Talabalarda katta iste‘dot bilan yaratilgan, badiiy pishiq va yetuk, voqealari ta’sirli muallifning g‘oyasi, maqsadi bugungi kunimizga milliy istiqloq mafkurasiga uyg‘un sasrlarning tanlanishi, talabalarning fikri-yodi qalbini uyg‘ota olishi hayolini band qilib qo‘yishi ham hal qiluvchi sabablaridan biridir.

Nutq texnikasi, mantiq, so‘z bilan ishlashning hamma jarayonlarida ham talabada so‘zga, jonli so‘zga, ta’sirchan betakror so‘zga doimiy mehr chanqoqlik uyg‘otib borish zarur. Talabalar so‘zni eng noyob, bebaho ijod ma’nbasi ekanligini butun vujudi, ongi va qalbi bilan his etishlari kerak. So‘zga mehri, chanqoqligi bo‘lmagan ijodkor qanday qilib ijod mashaqqati yukini his qilishi va so‘z orqali o‘z tomoshabinlari ishonchi, hayratini zabt etishi mumkin? So‘zga hassoslik, so‘zning qadr-qimmatini bilmay izchil o‘rganmay jonli so‘zni his qilish va o‘z tomoshabinlariga his etdirish mutlaqo mantiqqa zid urinish bo‘lar edi. Adabiyot olamida insoniyatning ma’naviy dunyosiga suv bilan havodek zarur manbalar borki, u so‘z san’atida ifoda namunasi bo‘lishga arziydi:

Insoniyatni hamon larzaga solib keluvchi noinsoniy illatlar – urushlar, zo‘ravonlik, terror, o‘z yurti, Vatani, halqiga sadoqatsizlik, hoinlik juda katta muammo bo‘lib turgan paytda Vatan, yurtga sadoqat madhi aks etgan milliy istiqloq g‘oyasi ta’sirchan talqin etilgan asarlar yosh ijodkorning dunyo qarashi, tasavvuri, tafakkurini shakllantiruvchi ma’nba bo‘lishi muhim qimmatga ega.

Qozoq adibi Sobit Do‘sanovning «Arvona» nasriy dostonini namuna uchun tavsiya qilinishi talabalarda so‘z boyligini o‘stirish, vatanparvarlikka e’tiqod uyg‘otish, so‘zlar qurilishining ravonligi, voqealarga munosabatini faollashtirish maqsadi uchun ham badiiy qimmatga ega shuningdek so‘z san’atining qadimiy an’anaviy ifodaviyligi halqning bebaho ma’naviy hazinasi ertaklar, dostonlar, qasidalar orqali tildan-tilga ko‘chib ma’naviy hazinasi sifatida mavjudligi ham bu asarga e’tibor qaratishimizning sabablaridandir.

Asarning asosiy voqeasi:

Bosqinchilik, zo‘ravonlik, adolatsiz qirg‘in barot tufayli Arvonaning tug‘ilgan yurti, Vatandan judo qilinishi.

Muallifning va ijrochining oliy maqsadi:

Ona tuproq, tug‘ilgan yurt-ota makon Vatanga cheksiz sadoqat – mehr-muhabbat tuyg‘unlarini ulug‘lash.

Yetakchi harakat: Arvonaning hayot-mamoti. Vatanga qaytish mashaqqatlarini yengishga bo‘lgan beqiyos kuchi, mehri, sadoqati orqali tinglovchilarda Vatanga e’tiqod uyg‘otish.

1-voqea: Arvonaning tutqunligi.

2-voqea: Ona yurt sog‘inchi azoblari.

3-voqea: Ozodlik armonlari – Vatan, ilinji. Qochqinlik.

4-voqea: Qochqinlik uchun jazo uqubatlari.

5-voqea: Armonaning bo‘talog‘idan judo bo‘lishi:

6-voqea: Ozodlik sari urinishlari.

7-voqea: Bo‘rilar galasi qurshovida.

8-voqea: Hayot-mamot va ozolik aro mashaqqatlar.

9-voqea: Yo‘lbars hujumi.

10-voqea: Manzilga yetish umidlari.

11-voqea: Makon – Vatan bilan yuzma-yuz.

Ijrochi asarni chuqur o‘rganganidan so‘ng Chingiz Aytmatovning Asrlarga tatirlik lahza mug‘ullar istilyosiga oid tarixiy asarlar, Chingizxon, Botuhon haqidagi V.Yanning asarlarini, Yavdat Ilyosovning asarlarini o‘rganishi qo‘shimcha ma‘nbalar bilan tasavvurini boyitishga intilishi muhim ahamiyatga ega:

«Arvona»

S.Do‘sonov

Mana bir haftadirki, Arvona /ona tuya/ olis safarni ko‘zlaydi. Mash‘um taqdir uni bu g‘anim yurtiga o‘lja qilib olib kelganiga ham oz emas, ko‘p emas yetmish kun bo‘lib qolibdi. Shundan beri unga bu sehrli kuch tinchlik bermaydi: ko‘ngli olisda qolgan ona yurtini qumsaydi, qandaydir bir ilohiy ohangrabo uni o‘sha tomonlarga betinim undaydi. O‘sha mash‘um ayriliqdan beri uning ko‘zlari qorachig‘ida kindik qoni to‘kilgan yurt osmonining parqu bulutlari aks etadi. O‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning ko‘m-ko‘k qo‘llari-yu, yashil o‘t-o‘lanlari ko‘z oldidan nari ketmaydi. Olabo‘ta bilan yantoqning, yovshan bilan izyonning /cho‘l giyohlari/ hushbo‘y isi hamon dimog‘ida. Shularning barini sog‘inadi, beihtiyor ko‘zlariga yosh keladi. «Ey tangrim, ko‘m-ko‘k yaylovlaringda bemalol o‘tlab yurgan kezlarimda, tekisliklaringda emin-erkin chopib yurgan paytlarimda nima uchun qadringni bilmagan ekanman-a?» - degan kabi so‘zlar yotsa ham, tursa ham uning ushalmas armoniga aylangan.

To‘g‘ri yot ellarda yursa-da, ahvoli unchalik yomon emas, joni tinch, yegulik o‘t-o‘lan mo‘l. Bularning ham o‘zicha sabablari bor. Qalmoqlarning tuyalari Mug‘ullarning tuyalari bilan qondosh, ular tanasi yumur, yurishi chaqqon, junlari o‘siq bo‘lgani bilan qozoq tuyalariga nisbatan ko‘rimsizroq, uncha-muncha og‘ir yuk ortsangiz yotag‘on keladi. Begona yurt tuyalari qoni aralashmagan qozoq tuyalarining esa o‘rkachlari balandligi naq yarim gaz keladi, huddi tog‘ cho‘qqilariday tik, go‘shtdor. Manglaylari do‘ng, yag‘irlari keng, tumshuqlari huddi qo‘chqornikiga o‘hshaydi, ham ulkan, ham sutli, buning ustiga jundor ham, muskullari baquvvat, bellari uzun, chidamli.

Tunov kuni Qalmoq honining chorvachilik sohasida o‘ng qo‘li hisoblanmish chuqur ko‘z, qulog‘i chinoq mushuk mo‘ylov hos hodimi – chuvakkina qora chol arvonaning yarg‘inlari, yelkasi-yu pochalaridagi chuvalib turgan chuvdalarini /ipga o‘hshab eshilib qolgan yunglar/ silab turib qozoqi tuyalarining boshqa tuyalardan afzalliklarini qaramog‘idagi hizmatkorlarga obdon tushuntirgan. O‘shandan u qozoq tuyalarni qolmoq tuyalari bilan chatishtirib, o‘zgacha zotli tuya olmoqchi ekanini ham yashirmagan edi. Shu gapdan so‘ng Arvona o‘ziga bo‘lgan e‘tibor sababini anglaganday bo‘ldi. Angladi-yu, ammo bu e‘tibor uning ko‘nglidagi o‘ksikni, g‘am

bilan anduhni birpasga bo'lsada nari surolmadi. Rosti, Arvonaning bu yerda eminkin yashashi uchun hamma sharoit bor, ammo, birgina narsa yetmaydi. Bu o'zi tug'ilib o'sgan yurtning musaffo havosi. To'g'ri, havo bu yerlarda ham bor, biroq o'zi tug'ilgan yurtning musaffo va shirin havosiga nima yetsin! Yurt havosida erkin nafas olasan, u tanangga quvvat beradi. O'zga yurt havosi nafasingni qisadi, qandaydir yuk ustingdan bosib turganday, qorong'u tunakda yurganday his qilasan o'zingni.

Arvona tag'in bir narsani esidan chiqarmaydi. Bu tug'ilgan yurtning tuprog'i. O'sha tuproqda o'sgan o't-o'langina totli, uning ta'mi hamon tanglayidan ketmaydi, boringki, jismidagi barcha fazilat ham o'sha sarta'm giyohlardan. Shuning uchun ham u ko'pdan beri o'sha sarta'm o'tlarga yetaklab boruvchi yo'lga intizor. Bu armon o'z yurtiga yetmay ushalmasligini u aniq tiniq his etadi.

Arvona o'zi tug'ilib o'sgan yurtning qaysi tomonda ekanini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u o'sha tomonga entikib, termulib, alog'ida bir mehr bilan boqadi. U endi bunaqa entikish-u ho'rsinishlardan, qolaversa ko'z yoshlardan hech qanday naf yo'qligini, o'zida bir jur'at topishi lozimligini tushundi, bir yo'lini qilib bu yerdan juftakni rostlashga jazm etdi. To'rt oyog'i omon bo'lsa, zim-ziyo tun uni o'z bag'riga olsa, tangri-taolo yo'lini bersa, juftakni roslashi aniq.

Bunday qarorga kelguncha arvona sho'rlikning bo'ladigani bo'ldi. Hayoli har qayoqqa charx urib, rosa qiynaldi. Yaxshi o'ylab ko'rmabdi, hali uning oldida yana bir muammo turgan ekan. Yo'-o'q, bu muammo olis yo'lning azobi emas, bu taqdirning mazog'i edi. Tan-joni sihat bo'lib tursa, bu yo'l azoblari uning uchun hech gap emas. Toliqsa ham, azob cheksa ham chidab, jonajon yurt mehrini qanot qilib uchardi-ya! Attang, mana bu qo'sh ko'zlari mo'ltirab turgan murg'akkina bo'talog'ini qayoqqa tashlab ketadi. Yov qo'lida qoladimi? Qanday qilib ko'zi qiyib tashlab ketadi pushti kamaridan bino bo'lgan jigarporasini? Mabodo tashlab ketguday bo'lsa, ertaga uni sog'inib, qumsab onaizorining jigari hun bo'lmaydimi? Bugun o'zini asirlikdan ozod qilib ketgani bilan ertaga bo'talog'iga bo'lgan sog'inch dardi uning ich-etini yemaydimi? O'zining boshi bo'sh bo'lgani bilan bo'talog'ining boshida nuhtasi bor, ulkan hariga bog'liq. Uni bir amallab bo'shatishning chorasi bormikan? Arvonaning yuragida tosh bo'lib turgan hadigi mana shu, mana shu muammo uni ipsiz bog'lab turar, armonga yetolmas, oqimga qarshi suzolmas edi. Olti kundirki, u shu azobda qiynalardi. Olti yilga tatigulik olti kun!..

Tug'ilgan yurt ohangrabosi, tug'ilgan yurt muhabbati huddi och bo'riday tatalardi, uning o'ksik yurak-bag'rini. Mana yettinchi kunning uqubatli tongi ham yorishdi. Bo'zarib yorishgan osmon ham, guldir-guldir sayrayotgan bo'zto'rg'aylarning navosi ham huddi yangi kelinchaklarday yasanib, yastanib yotgan dala-yu-dasht ham shu dala-dashtda barcha sepini ko'z-ko'z qilgan tabiat ham arvonaning o'ksik ko'ngini yozolmasdi. Uning ko'nglida faqat birgina armoni bor, u ham bo'lsa, qanday qilib bo'lsada, ilojini qilib, o'z jonajon yurtiga, o'z ota makoniga yetib olish edi. Shu armonga yetsa, mayli o'lib ketishga ham rozi. Ana shunda ko'nglidagi armoni ushaladi.

Arvona shu kabi og'ir hayollar bilan osmonga qaradi. Quyosh qoq tepaga ko'tarilibdi. Shu soniyada uning boshiga yilt etib bir fikr keldi. Bo'tasini bog'lab

turgan nuhta iplarini o'tkir tishlari bilan g'ajib-uzib tashlasa-chi! Bu fikrdan uning ko'ngli yorishib ketdi. G'oz ko'targan bo'ynini past egdi. Shu zahoti uning ko'zlari g'anim yurtida tug'ilgan begunoh ma'sum bo'talog'iga tushdi. Jigargo'shasi hech narsa bilan ishi yo'q, ko'zlari mo'ltirab og'ziga olgan hashakni kurt-kurt chaynab hotirjam yotar edi. Uning uchun yorug' dunyoning hamma jihati yaxshi, hamma narsa chiroylik, hammasi uning uchun do'st. Uning o'y-hayoli ham go'dakona, tashvishi-yu barcha harakati ham go'dakona edi.

Bu bir-biri bilan urishgan, chopishgan yurt g'animlar yurti ekanini, bu yerda ortiqcha yashab bo'lmasligini, hatto bu yerda o'lib ham bo'lmasligini u bilmas edi. Arvonaning diydasi bo'shab ketdi, bo'taginasini iskab, erkalab, boshi bilan silab-siypaladi. Bo'taloq bir narsani sezganday gindiraklab o'rnidan turdi. Arvona bo'talog'ining nuhtasini, nuhtaga bog'langan ipini tumshug'i bilan turtib ko'rdi, so'ng ipning qoziqqa bog'langan tomonini og'ziga olib g'ajiy boshladi. Shunaqa g'ajidiki, huddi g'animning biror a'zosi og'ziga tushib qolganday, bamisoli hamma o'chini shu arqonday olayotganday g'ajidi. So'ng bo'talog'ini gavdasi bilan itarib yubordi. Arqon haligi g'ajilib omonat bo'lib qolgan joyida chirs etib uzildi. Quvonginida tuya bechoraning ko'zlaridan yosh tirqirab ketdi. So'ng orqa-oldiga qaramay yo'lga tushdi sho'rlik, oldiniga nima bo'lganini anglamay qolgan bo'talog'i, ma'sumona baqirdi-yu, onasining ketidan ergashdi...

Arvona havoni ko'kragi bilan kesib, yelib borardi. Hozircha orqasidan quvib kelayotgan ot dupuri eshitilmasdi. Arvonaning tanasidan ko'pdan beri ter chiqmagan edi. Endi o'sha ter chiqdi, o'zini yengil his qilib, obdon qizib chopa boshladi. U ovul orasidagi kaftdaygina maydonchada o'zining qay darajada ildam chopishini sinab ko'rolmasdi albatta. Emin-erkin chopish uchun keng dala kerak. Mana endi imkoniyat tug'ildi. CHo'zilib chopasanmi, yozilib chopasanmi ihtiyor o'zingda. Hohlaganingcha chopaver! Mabodo chopa olmasang, yulduz bo'lib oqolmasang, o'z uvoling o'zingga! Jur'ating bo'lsa, qanoting bo'lsa, yer tanobini tortib ko'r. Arvona o'pkasi toshib ketsa ham o'sgan yurt hududiga yetmay to'htamaslikka qasd qilib, chunonam chopdi-ki, asti qo'yaverasiz.

Bamisoli otilgan o'qdek uchib kelayotgan arvona anchagina orqada qolgan bo'talog'ining zaifgina ingraganini eshitib, to'htab qoldi. Bu uning jigarporasiku ahir. Orqasida bo'talog'i borligini, u o'ziga yetolmay kelayotganini endigina his qildi. Shunda ham u ortiga qayrilishga, bolasi sari bir ikki qadam tashlashga jur'at qilmadi, to'htab bo'talog'ining kelishini kutdi. Onasining ketidan chopachopachop o'pkasi toshib ketgan sho'rlik bo'taloq onasiga yetdi-yu, yotib oldi, go'yo biror nojo'ya ish qilib qo'ygan boladay onasiga mo'ltirab qaradi. Jiqqa terga tushib ketibdi jonivor. Ikki buyri bulk-bulk qilib, zo'rg'a nafas olib yotardi, bechora. Ko'z yoshlarimi, yo terlaganimi, ko'z qorachig'idan tomchilar sizilib oqardi. Arvona jigarporasiga achindimi, uzun bo'ynini pastga egib, tumshug'i bilan silab-siypalamoqchi edi, shu payt orqadan ot tuyoqlarini dupuri eshitildi. Ha, bu o'sha tuyasi sol, jahl ustida qamchisini havoda o'ynatib, baqir-chaqir qilib chopib kelardi. Shum taqdir unga tag'in bir tuzoq qo'yganini sezsa ham arvona parvo qilmadi. CHo'kib bo'talog'iga mehr ko'rsata boshladi. Qolmoq chol bularga yetdi-yu otining jilovini tortdi. U jahl ustida bo'lsada bir birini yalab-yulqab, erkalab yotgan ona-

bolani, hali go‘dakkin bo‘taloqning asbiylarcha shirin qiliqlarini ko‘rib shashtidan tushdi... Arvonaning onalik mehrini, hali o‘pkasini bosolmasada, onasiga talpinib yotgan bo‘taloqning yarashiqli erkalanishlarini ko‘rib mahliyo bo‘lib qoldi.

Bir mahal Arvona og‘ir qo‘zg‘alib o‘rnidan turdi. Terlab ketgan peshonasini shabadaga qaratib bir oz turdida, so‘ng ona yurti tomonga bir bor, yana bir bor ko‘z tashladi. Ko‘z tashladi-yu, qandaydir bir mungli, zorli tovushda bo‘zlab yubordi. Unga bo‘talog‘ining nozik va mungli zori jo‘r bo‘ldi. Ona bolaning o‘z yurtini qumsab qilayotgan nolalarini eshitib, qolmoq cholning ham diydasi bo‘shab ketdi. Bu yorug‘ dunyoda, oltmish yil yashab, qirq yil mol boqib, tuya jonivorning shunchalik eslik, shunchalik fahm-farosatli bo‘lishini endi angladi. Chol ularni beayov jazolamoqchi edi. Endi bu fikridan qaytdi. Ularga yurak-yuragidan achindi... Hatto bu bechoralarni ozod qilishga ham rozi edi. Biroq uning kallasiga bu hayol qanchalik tez kelgan bo‘lsa, bu fikrdan qaytish ham shunchalik tez yuz berdi. O‘sha zahoti ko‘z oldiga honning qahri qattiq, hos hizmatkori keldi-yu, tuya bilan bo‘taloq sho‘rlikni beayov savalab, baqirtirib oldiga solib haydab ketdi. Tuyani topolmadim, deb qaytib borishi ham mumkin edi. Ammo o‘sha badjahl, hos hizmatkor uning tanasidan tasma tilishi aniq edi. Uchiga qo‘rg‘oshin tugib o‘ralgan qamchisi bilan orqasini tilim-tilim qilib savalashi aniq... «Yo‘-o‘q, bunaqa azobdan hudoning o‘zi asrasin. Busiz ham umrning menga atalgan jabru-jafolari to‘lib-toshib yotibdi!»

Arvona ovulga emas azobga, azobgina emas do‘zahga kelayotganday edi. U hozir haydovda, haydovdagina emas baylovda kelardi. Boshida nuqta bo‘lmasa-da, hayolida nuqta bor edi.

Tashlagan qadami unmasdi, g‘anim yurtiga bir qadam ham tashlagisi yo‘q. Biroq «Nachora?! Voy bevafo dunyo-ya! Voy mening o‘z ona yurtimda o‘n oqlab yurgan davri-davronlarim-a! Tag‘in qaytib kelasami-yo‘qmi? YO bir yo‘la kelmasga ketganingmi? Men sho‘rlik endigi umrimni o‘kinch bilan, g‘am-anduh bilan o‘tkazzamanmi? Ey dunyoyi vevafo, nega mening dardu-hasratlarimga quloq osmaysan! Hey odamlar! Aqlu-farosatingizdan aylanayin odamlar! Vijdonlaring oldida ikkilanmay javob beringlar! Nega urushlar bo‘ladi? Nega o‘tovlarimizning gancharoqlari chayqalib, kerachayu uvuqlari shart-shurt sinadi? Nima uchun bir-birlaring bilan yovlashasizlar. Kimga kerak bu jangu-jadal! Nega bir-birlaringni ota makondan ayirasizlar?! Tug‘ilgan yerdan ayro tushish, bahtdan ayro tushish emasmi? Bu siz ham mana bu yolg‘on dunyoda g‘am bilan qayg‘u-hasrat to‘lib-toshib yotibdiku!

Bechora Arvonada zabon yo‘qda. Agar unda til-zabon bo‘lganida, o‘zi aqlli farosatli jonzot deb tushunadigan odamzotga mana shunday savollar bilan murojaat qilgan bo‘lar edi.

Arvonaning esiga ho‘v bir gal kechqurun bo‘tasini tashlab dalaga chiqqani tushdi. O‘shanda u o‘z ona yurti tomonga qarab uzoq turib qolgan edi. Bir ketgisi keldiki, ammo bog‘liq turgan bo‘talog‘ini tashlab qayoqqa ham borardi. Jigargo‘shasining oldiga qaytib keldi. Bu gal ham ipsiz bog‘lanib qoldim. Seni chirqiratib, qayoqqa ham borardim, bolaginam. Bu yot joylardagi yolg‘iz yupanchig‘im ham, bahtim ham sensan-ku axir, yumshoqqinam...

U hozir qayg'u bulutining yopirilib kelganini his etdi. His etdi-yu, baribir bir kun mas bir kun tushovini uloqtirib tashlab, o'sha ota makonga, moviy osmonli serquyosh makonga, ozodlik o'lkasiga ketishini ko'ngligi tugib qo'ydi.

Arvona so'nggi kunlarda birdan o'zgarib qoldi. Ilgarigi yumshoqlikdan, mehribonlikdan asar ham yo'q, yurak bag'ri toshga aylanib, dunyodagi barcha ishlarga beparvo qaraydigan bo'lib qolgandi. Buning ham o'zicha sabablari bor edi albatta. Hov anov kuni bo'taloq'ining oyog'iga qaramayman deb yov qo'liga tushib qolgani arvona uchun qattiq zarba bo'lgan edi. O'sha og'ir zarbadan keyin endi o'ziga kela boshlaganda shu taqdir unga tag'in bir musibatni ravo ko'rdi. Tuyachi chol ona bolani qaytarib olib kelganidan o'n kun chamasi o'tkach, sho'rlik Arvona suyukli jigargo'shasidan ayrildi. Qalmoq honi uni qo'shni ovullik jiyaniga tortiq qilib yubordi. Jiyan deyayotganimiz o'n bir, o'n ikki yoshlar chamasidagi mug'ul bashara beo'hshov, o'ng qovog'idan chandig'i bor, tentakroq bola edi. Bo'taloq qo'liga tekkanidan boshlab u bor hunarini ko'rsata boshladi: bir cho'ktirdi, bir turg'azdi, hushiga yoqmasa boshi, ko'zi demay qamchi bilan savalaydi. Hullas bechora bo'taloqni judayam qiynab tashladi, u tentak bola. Bu yov bolasining bo'taloqqa ko'rsatgan azobimi, mazog'imi Arvona buni bilmaydi. Ammo tentak bolaning bo'talog'iga nisbatan qilayotgan qiliqlarini, adolatsizliklarni ko'rib qattiq qiynaldi. Ko'zlaridan yosh oqib tevarak atrofida o'tirgan odamlarga qarab najot kutdi. «Hoy mehribon odamlar! Manavi tentak bolaning qilayotgan qiliqlarini ko'rmayapsizlarmi? Ajratsalaringchi uni! Bu adolatsizlikku axir. Nega qarab turibsizlar! Sizlarning ham yosh bolalaring borku ahir!»- deganday bo'lardi uning yosh to'la ko'zlari. Biroq qimiz ichib qizib olib, qisir hangomaga tushib ketgan odamlar bu holga parvo ham qilishmasdi. «Attang, ular ko'rmayapdilar-da!..»- deb ovutardi Arvona sho'rlik o'zini. Shu orda tentak bola navbatdagi sovuq qilig'idan zavqlanib qah-qah otib kuldi. Tepalikda o'tirgan boyagi odamlar bola tomonga yalt etib qarashdi. «Ko'rishdi, endi azobdan qutuldi bolaginam!»- deb o'yladi arvona. Qayoqda, ular tentak bolani tiyib qo'yish u yoqda tursin, qaytaga uni rahbatlantirishdi. «Bu qanaqasi! Dunyoda adolat, diyonat degan narsalar qolmaganmi o'zi? Shu sizlarga loyiqmi odamlar! Biz sizlarni dunyodagi eng aqilli jonzot, deb yuribmiz-ku, axir. Bu nima qilganlaring!»- deb nido qilardi uning dardga to'la yuragi.

Bo'taloq ko'zlaridan yosh oqib bo'zlab turgan onasini ko'rdi, ko'rduyu, go'yo tanasida qandaydir bir kuch sezib, birdan shataloq otib, o'ynoqlab, ustiga och kanaday yopishib olgan tentak bolani uloqtirib tashdi-da, onasining oldiga chopib bordi. Qalmoqning qora dumaloq, mo'g'il bashara tentak bolasi ham o'jar ekan, o'rnidan turdi-yu, bo'taloqning ortidan yugurdi. Bo'taloq esa himoya istab onasining bag'riga tiqildi. Bola jon-jahdi bilan bo'taloqning pahmoq junlariga yopishmoqchi bo'lgan edi, arvona uni ulkan gavdasi bilan turtib yubordi. Bola mukkasidan yiqilib tushdi. Onasiga talpingan bo'taloq behosdan bolaning panjalarini bosib o'tganda, u qo'lining og'irig'iga chidayolmay, yayu-hannos solib yig'lab yubordi. Tepada o'tirgan kattalar endi ahamiyat berishib, hoy-hoylab tovush chiqarishdi. Ba'zilar bu yoqqa chopib kela boshlashdi. Sal o'tmay sho'rlik Arvona bilan bo'taloq bamisoli

pishiqirgan ilonday qamchilar tagida qolishdi. Arvona bo'talog'ini bag'riga olib himoyalashga urindi.

O'sha kuni qalmoqlar arvonani hipchin bilan obdan savalashib, qorong'u qo'raga qamab tashladilar. Bo'taloqni esa boshqa tomonga olib ketdilar. O'shandan beri arvona yakka-yu yolg'iz. Yot yurtlardagi qorong'u dardi dunyosida chiroqday yongan bittagina ovunchog'i bor edi, undan ham ayrildi.

Qorong'u qo'radagi qamoqdan chiqqach, Avonani ovuldan chetroqdagi mol yoyiladigan o'tloqqa jo'natishdi. Baribir, bu yerdagi tuyalar ham arvona uchun begona edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Avona asta-sekin ulardan o'zini chetga ola boshladi. Shu alpozda yurganida to'satdan quloqlariga bir nido chalinganday bo'ldi. To'htab quloq soldi. Ortiga burilib, ho'v narida, orqasida o'tlab yurgan tuyalar to'dasiga qaradi. Qulog'iga eshitilayotgan nido u tomondan kelmas edi. Endi Arvona o'zi hech ham u ko'nika olmayotgan ovul tomonga razm soldi. U tomondan ham hech qanday tovush eshitilmasdi. Ortidan hech kim quvib kelmayotganiga amin bo'ldi. Tuyachi chol esa boya qorong'i tusha boshlashi bilan ovulga ketgan. Endi ertaga choshgohda keladi. Qamoqdan chiqqach u bir haftalargacha Arvonani qattiq nazorat qilib yurdi. Yaylovdan sal uzoqlashsa bas, tezda orqaga qaytarib, tez-tez habar olib, hushyor bo'lib turdi. Arvonaning qayta qochmasligiga ko'zi yetdimi, keyingi paytlarda tuyachi chol uni ko'pam bezovta qilmaydigan bo'lib qoldi.

Boyagi arvona uchun g'alati eshitilgan nido tag'in qulog'ining tagida g'ing'illadi. Arvona tag'in atrofga alanglab qaray boshladi. Biyday dala. Dalada oppoq selev /cho'lda o'sadigan oq bargli giyoh, uni ba'zan chalov ham deyishadi. /chayqalib turibdi. Bu atrofda undan boshqa ko'zga tushadigan narsa yo'q. Adirlar, qirlar, tikka jarlar ortda qoldi. Ular hov uzoqdan elas-elas qarayib ko'rinardi. «Unda bu qanday nido bo'ldi? Qanday kelyapdi? YO tangrimning tag'in menga atalgan tuzog'imi bu ?!» Arvona hayron. Kun oydin, tevarak atrof sutdek charog'on, mayin esib turgan dasht shabadasi arvonaning peshonasini erkalab silaydi. Arvona esa ko'zlari to'rt bo'lib, tug'ilgan yurti tomonga qaraydi. Shu payt osmondagi bir yulduz pastga qarab oqdi, oqdi-yu, orqasidan uzun iz qoldirib, birpasda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yurti tomondan esayotgan erka shabbodadan qonib-qonib nafas olgan Arvonaning yelimplari ko'pchib, iyib ketdi...

U boshini ko'tarib, boyagi oqqan yulduz o'rniga qaradi. Boya uncha e'tibor qilmaganmida yo yangidan paydo bo'ldimi, buning farqiga bormaydi-i, ammo, boyagi oqqan yulduzning o'rnida boshqa yulduzlarga nisbatan kattaroq, undan ham yorqinroq bir yulduz paydo bo'lib qolibdi. Go'yo Arvonani o'z yurtiga, jonajon ota makoniga chorlovchi baht yulduzi misol. Huddi shu mahal boyagi nido tag'in elas-elas qulog'iga chalinganday bo'ldi. Nido borgan sari avjiga chiqib, qandaydir bir go'zal kuyga aylana boshladi. «Bu qanday karomat bo'ldi?!» Arvona hayron edi. Yo'q, sal vaqt o'tgach, bu sirli nidoning siri ochilganday bo'ldi. Bu nido o'zining yuragidan qalbidan otilib chiqayotgan ekan. Buni tushundi.

Yetti qaroqchi aniq ko'rinib, boyagi yangi yulduz charaqlaganida o'sha yulduzni mo'ljalga olib, Arvona yo'lida davom etdi. U yelganida yelib yot yurtdan olislayverdi-olislayverdi. Yela-yela ahiyri, hulkar ko'zdan g'oyib bo'lguncha ota makonga olib boradigan ilon izi so'qmoqqa ham chiqib oldi.

Yot elda yurganida taqdirning bunga ravo ko'rgan ikkita mash'um sinovini boshidan kechirdi. Biri ho'v anov kuni qochmoqchi bo'lganida qo'lga tushib it azobini tortgani. Ikkinchisi jigarporasi bo'talog'iday ayrilgani. Mana shu ikkita mash'um sinov uni esankiratib qo'ygan esada, Arvona tezda o'ziga keldi. O'sha qalmoqlarning o'z yurtlariga bosqinidan beri u faqat bir narsani o'ylardi. Bu ham bo'lsa qanday qilib bo'lsada, o'z kindik qoni to'kilgan ota makoniga qaytish edi. Mana, u o'sha armoniga boshlagan taqdir so'qmog'idan o'tib borayapdi.

Bir ozdan so'ng Arvona mo'ljalga olib kelayotgan yulduz ham ko'rinmay qoldi. Ammo u izsiz yo'qolmaydi, Arvona yo'ldan adashmasin dedimi, o'rniga CHO'lpon charaqlab chiqdi. Tong shabadasidan Arvonaning tanasi yayrab, yurishi boyagidan ham tezlashdi. Birozdan so'ng kuzning salqin tongi yorishdi. Barkashday qizarib chiqqan quyosh tafti ham Arvonaning badanidagi terlarni quritilmadi. Terlagan sayin ertalabki salqin havoda badanidan bug' ko'tarilib, go'yo tanasida ilohiy kuch paydo bo'lganiday jadal yelib borardi.

Arvona uchgan sayin uchib borardi, armonini quchib borardi, orqasini kunga kuydirib, dasht yeliga yuzin suydirib..., olg'a intilardi.

U yo'l yurib, yo'l yursada mo'l yurib borardi. Ho'v birda qolganida yov qo'lga tushib chekkan azoblari esiga tushib, yana qayta qo'lga tushsa nimalar bo'lishini o'ylab, bor kuchi bilan yelib borardi. U charchadi-yu, toliqmad. Ota makonga yetish murodi unga yo'ldosh bo'lib, madad bo'lib, tinmay olg'a intildi. Faqat bir kun o'tgandan so'nggina tongga yaqin katta bir soy bo'yida to'xtadi. U to'xtay deb to'xtagani yo'q, chorasiz qolganidan to'xtadi: azboroyi qattiq terlaganidan boshimdan oqqan sho'rtak ter ko'zlariga tushib achishtirib, ko'z oldi xiralashib qolganidan noiloj to'xtashga majbur bo'ldi. Yurishlari ham unmay qolgani uchun to'xtadi. Endi bu yerda biroz dam olib, terini quritib olmoqchi. Shunday qilsa, qayta kuchga kirib olib, uzoq yo'lning tanobini tortishi aniq.

Arvona soy bo'yidagi tol tagiga borib cho'kdi. Bir oz nafasini rosladi, so'ng ko'm-ko'k soy suvidan qonib-qonib shimirdi, suv o'rtasiga borib cho'mildida, tag'in yo'lga tushdi.

Bu mahalda quyosh yarim gazga ko'tarilib qolgan edi. Ko'z quyoshining zarrin nurlari yer betiga yoyilib, xuddi ona mehri misol silab-siypab turibdi. Arvonaning birinchi kuni bosib o'tgan yo'li pasttakkina tog', ikkinchisi kuni yurgan yo'li, xuddi suvi tortilib qolgan kul o'rniday o'ydim chuqur biyobon ustidagi egri bugri so'qmog'u o't o'lani mo'l chakalakzor edi. Endi uning oldida tag'in bir oshib o'tishi qiyin tepalik, undan so'ng chekipoyoni yo'q xuvillagan dasht bor. Bir amallab shu yerlardan o'tib olsa, nariyog'i adiru qirlari ko'p, suvlari mo'l, o'rmonlarda shovullab yotgan ota makonining hududiga yetgan bo'ladi, oldinga intiladi. Undan nariyog'i bir qadam deyavering.

Arvona birdan tez chopmadi. Asta sekin o'zini o'rgatib, yelib, bir maromda lo'killab bordi-yu, keyin cho'zilib chopishga tushdi. Quyoshning o'tkir tig'lari atrof tevarakni qizdirib tursada, o'z jonajon yurti xududiga qadami tegmay to'xtamaslikka axd qildi. U umrovi bilan havoni kesib, otilgan o'qday uchib borardi. U shu zayil bepayon dashtni ham bosib o'tdi. Bu mahaldi butun borliqni o'zining olovli taftida

kuydirib turgan quyosh o'z qo'nalg'asiga rsta-sekin botayotgan edi. Endi avvvalgiday chopib emas, yelib borardi.

Kun bo'yi biyday chopa-chopa charchasada niyati yo'ldosh bo'lib hamon uni olg'a undardi, shu niyat uni tobora bardam qilib borardi. Uni bardam qilib borayotgan tag'in bir narsa eliga, yurtiga bo'lgan muhabbati-yu sari-orqaning tanga davo qo'ng'ir shabadasi edi.

Mana, bugun ham artilgan shishadek ko'm-ko'k osmonda oy tug'ildi. Dala dasht oy yorug'ida mavjirab huddi sut rang har bir pardaga o'ralib turganday tsurot qoldirardi. Hamma yoq jim-jit go'yo tabiat pinakka ketganday. Arvona tinmay yelib borar, kechasi yorug' yulduz huddi ota makon sari chorlayotganday parpirab turar edi. Shu mahal to'satdan oy yuzini bulut qopladi shekilli, tevarak atrofga qorong'ulik indi.

Jiqqa terga tushib ketgan Arvona so'lig'ini bosib olish uchun bo'lsa kerak, chopishdan asta-sekin yelishga o'tdi. Yo'lni mo'ljalga olmoqchi bo'lib bunday, bo'ynini cho'zib olg'a razm solgan edi, oldinda bir to'p yulduzning o'zi tomonga suzib kelayotganiga ko'zi tushib qoldi.

Avvaliga Arvonaning bu qanday yulduzlar ekanligiga fahm-farosati yetmagan esada, negadir yuragi uvushib, taqqa to'htab qoldi. Haligi kattaligi angushvonaday-angushvonaday bir to'p yulduz yer bag'irlab tobora yaqinlashib kelardi. Dastlab bu yer bag'irlab jadal kelayotgan yulduzlarning nima ekanligini arvona bilmagan edi, endi fahmladi: ular bir to'da bo'rilar edi. Bildi-yu, bechora qo'rqanidan dir-dir titrab og'zidan oq ko'pik sochdi. Bu yovuzlardan qochmoqchi bo'lib, o'zini o'ngga olaman deganida nimagadir qoqilib o'mbaloq oshdi, ammo jon holatda sakrab o'rnidan turdi. Tizzalari titrab yon atrofga qaragan edi, yovuzlaruni allaqachon o'rab olishgan ekan. Jon taslim qilish osonmi? Arvona esini yig'ib, nima bo'lsa ham ulardan qutilish chorasini ahtara boshladi. Bo'rilar ham birdan unga tashlanmay, uning oldi orqasidan oyoqlari bilan yer tirnab tuproq socha boshladilar. Arvonaning terlab ketgan badaniga tuproq yog'ilib, aslida uning badani qaysi rangda ekani bilinmay qoldi. To'satdan bo'rilar ikki guruhga bo'linib, ikki yon boshidan hujumga o'tishdi. Oldi tomoni ochilganini sezgan Arvona birdan oldinga otildi. Ulkan, beo'hshov gavdasi bilan chunonam oldinga intildiki, buni bo'rilar sezishmay ham qolishdi. Haligina oldinga otilganida bo'rilarining orloni bir chapdast harakat bilan arvonaga tashlanib, bir parcha go'shtini uzib olishga ulgurgan edi. Arvona etining qizuvidan buni uncha elamagan edi. U shu alfozda oldinga otilib bo'rilar to'dasini anchagina orqada qoldirib ketdi. Shunday bo'lsada yirtqichlar uni tinmay ta'qib qilib kelar, Arvona esa jonini hovuchlab tayranglaganicha jon-jahdi bilan oldinga intilardi. Ta'qibchilar ham uning izidan qoladigan emasdi, bir payt arlon bo'ri bor kuchi bilan oldinga chopib o'tib, Arvonaning yo'lida g'ujanak bo'lib yotib oldi. Ko'zlari saksovul cho'g'ida yonib turar, oziq tishlari shaq-shaqillar edi. Arvonaga hamla qilmoqchi bo'lib, yer bag'irlab o'rmalab kelar edi.

Arvonaga yaqinlashib, endi hamla qilmoqchi bo'lib turgan orlonga Arvona og'zidagi oq ko'pigini chunonam purkadiki, bo'ri oldinda nima bor, nima yo'qligini ko'ra olmay qoldi. Arvona ham payt poylab orlonning ustiga bor, salmog'i bilan cho'kdi, cho'kdi-yu, uni ko'ksi bilan chunonam ezg'iladiki, bir pasda orlonning

nafasi ichiga tushib ketdi. Shu payt orqadan bo‘ri va bo‘rivachchalar ham yetib kelishdi. Bu ko‘rgan Arvona jon hajdi bilan o‘rnidan turdi-yu, oldinga intildi. Bu mahalda bo‘rilardan bittasi Arvonaning o‘ng yonboshini o‘yib ulgurgan edi. Boya u yaramas yonboshidan chopib o‘tganida badani jiz etgan ediya! Hozir o‘sha joyidan qip-qizil qon sizib oqib turar edi.

Arvona bunga ham ahamiyat bermadi, bu ajal kushandalaridan qanday qilsam qutulaman deb, chivin jonini avaylab asrab tobora oldinga intilar edi. Maqsadi ota makonga yetib olish. Bordi-yu o‘lsa o‘z yurtiga yetib jon taslim qilmoqchi. Arvona o‘mrovi bilan havoni kesib borar, bo‘rilar esa uning ortidan qolmay yugurar edi. Endi Arvona badanining qay yeri yirtildi-yu, qay yeri tirnaldi, bilishga majoli yetmasdi. Avvaliga badanining u yer bu yeri tirnalgani-yu, jiz etib achiganini sezib kelardi. Endi buni ham sezmaydigan ahvolga tushib qoldi. Hozir badanining bir joyi emas, hamma joyi baravariga achishar edi. Shunga qaraganda tanasida sog‘ joyi qolmagan ko‘rinadi-yov. Chamasi bo‘rining tishi tegmagan joy faqat oldingi oyoqlari bilan keyingi oyoqlarining tirsaklari-yu, qir orqasi bo‘lsa kerak. Biroq bularni ko‘rishga vaqt yo‘q, tinmay oldinga intilar edi.

Tong bo‘zarib qoldi. Sal o‘tmay atrof yorishib, tevarakdagi narsalar aniq-tiniq ko‘rina boshladi. Bu mahalda arvona ota makon hududiga yetib ulgurgan edi.

Shunday qilib, u el hududiga yetib, uning dastlabki qarich yeriga qadam qo‘yib, atrofi qalin qamichzor soy bo‘yida yaqinlashib qolganida oldidan kattakon bir targ‘il yo‘lbars chiqib qolsa bo‘ldimi? U, nimaga ekannini kim bilsin, birdan yo‘lini changitganicha Arvonani quvib kelayotgan bo‘rilar to‘dasiga hamla qildi.

Ham orlonidan ayrilib, ham ochiqib qolgan alamzada bo‘rilar jon-jahdlari bilan yo‘lbarsga tashlanishdi.

Dala tuzning, butun jon-jonvorlarning yolg‘iz hukmdori yo‘lbars bilan och bo‘rilar galasi ancha olishdi. Ular bir-birlarini yenga olmay olishayotganlarida Arvona paytdan foydalanib ajal tuzog‘idan ancha uzoqlashdi.

Arvona kindik qoni to‘kilgan muqaddas yerga tovonni tekkanini his qilgach, badan badanini achitib turgan jarohatlarini elamay chopaverdi, tug‘ilgan yerning marhamatimi, ishqilib, unda qandaydir bir kuch paydo bo‘lgandi. Sog‘inchdanmi yo sevinchdanmi, kim biladi deysiz, uning ko‘z qorachiqlari jiqqa yoshga to‘lgan, tasirtusir qilib yelib borardi.

Ehtimol, Arvona elu yurt diydorini ko‘rolmay, biyday dalada jon taslim qilardi. Biroq, u bundan sira ham o‘qinmaydi. Nega deganingizda u ko‘zlagan maqsadiga yetdi. Jasadini yot yerlarga ravo ko‘rmadi. U mushtumdagina yuragi bilan suyagini ota makoniga olib keldi.

Arvonaning endigi armoni o‘z egasining bo‘sag‘asiga yetib yiqilish edi.

Arvona entiksa, toliqsada, to‘htamay oldinga intilib borardi. Qayerga yetib yiqilishini kim biladi deysiz?..

Arvona badanidagi jarohatlarini og‘rig‘iga ahamiyat bermaslikka harakat qilsa ham baribir bo‘lmaydi, a‘zoyi badani achisha boshladi. Avval yirtiqichlar bilan olishib, o‘z kindik qoni to‘kilgan yurtiga yetish ilinjida jon talvasasida kelayotganida unchalik sezilmagan edi. Mana endi bilinayapti. Vaqt o‘tgan sayin bo‘rilarning og‘zi tekkan, yulingan, tirnalgan joylari, terisi osilib qolgan yerlari biram zirqirab

og‘rirdiki, asti chidam bo‘lmasdi. Quyosh nayza bo‘yi ko‘tarilib qolgan, uning tig‘li nurlari kechagidan ko‘ra issiqroq edi. Yo‘q, issiqroq emas, huddi olov purkayotgandek edi. Arvonaning jarohatlari bu olov taftida qizib, tirisha boshladi.

Jarohatlari achitib, azob bergani sayin uning yurishi ham unmasdi. Shunday bo‘lsa ham tinmay oldinga intilaverdi, intilaverdi. Maqsadi, esidan ayrilmay turganida bir amallab yurtiga yetib olish. Shu birgina maqsadda jon talashib, bir nafas ham orom olmay oldinga yo‘rtardi.

Mana, quyosh ham tikkaga ko‘tarilib, uning o‘tkir tig‘lari Arvonaning jarohatlarini tobora kuydirib, bamisoli kesgir pichoqday tilkalar, yohud bir bemehr qo‘l o‘tda qizdirilgan temirni jarohatlariga jiz-jiz bosayotganday bo‘lar edi.

Shunda ham u egasiga yetib olish uchun jon talashib chopib borardi.

Borgan sayin Arvonaning kuch-quvvati kamaya bordi. Go‘yo oldinga tashlangan qadami orqaga ketayotganday. Ko‘zi bot-bot yumilaverdi, yumilaverdi. Bir mahal u gandraklab, yiqilib qolayozdi. Haytovur bir amallab o‘zini o‘nglab oldiyov.

Shundan ham to‘htamay yelib borardi. Shu alfozda u qancha yurganini bilmasdi. Hayoli joyida emas, boshi lo‘qillab og‘rir edi. Bo‘g‘inlari bo‘shashgan suyaklari qisir-qisir qilardi. Go‘yo butun a‘zoyi badani sochilib ketadiganday, oyog‘larini zo‘rg‘a sudrab bosib, suratigina kelar edi.

Arvona shunda ham to‘htamadi.

Quyosh tikkandan og‘ib, manziliga shoshardi. Arvona ham jon talashib, ulkan gavdasini arang ko‘tarib borar edi. Goh-goh ko‘zlarining oldi qorong‘ilashib ketardi. U yana qorong‘ilashib ketardi. U yana gandraklab, yiqilib tushayozdi. Bu gal ham kuch-quvvatini to‘plab, o‘zini o‘nglab oldi. Endi u gandraklamaslikka, yiqilmaslikka harakat qildi. Chunki yiqilguday bo‘lsa qayta turolmasligini bilardi.

U bor kuchini yig‘ib olg‘a intilardi. Hozircha u surinmay, yiqilmay, qoqilmay borardi. Oldinga intilyapti degani bo‘lmasa, yurishi hech ham unmayotganday edi.

Bu ham jon saqlashning bir yo‘lida.

Arvona shunda ham bir amallab, olg‘a siljib borardi. Shu alfozda, quyosh yotog‘iga bosh qo‘ygan mahalda o‘z ovuliga yetdi-yov bir amallab. Aqlli jonivor o‘z egasi marhum Turlibekning bo‘sag‘asiga yetib yiqildi. Yiqildi-yu o‘zini bilmay qoldi.

Oq o‘tovda eri Turlibekka qora kiyib aza tutib o‘tirgan boyvuchcha eshigi bir nima gurs etganini eshitdi. Nega ekanini o‘zi ham bilmaydi, hizmatkorini chaqirmay, o‘zi eshik oldiga chiqdi. Orqama-orqa hizmatkori ham yugurdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, eshigi odida to‘rt oyog‘i to‘rt tomonga taravaqaylab bir tuya yiqilib yotardi. Yugurgilab uning oldiga borishdi. Bu holni ko‘rib, hizmatkori lol bo‘lib qolgandi. Boyvachcha Arvonani darhol tanidi. O‘zining Arvonasi, haloldan topgan moli ko‘zlariga o‘tday bosildi. Hash-pash deguncha ovul odamlari to‘planib qolishdi. Bu mahalda tuya jonivor o‘ziga kelolmay, zo‘rg‘a nafas olib yotar edi.

Ovul odamlari arvonani o‘rab unsizgina turishlar, boyvuchcha bir og‘iz so‘z qotmaganidan iymnishdimi, bunisi bizga nomlum, ular g‘ing deyishmas, go‘yo yelkalarini bir botmon yuk ezib turganday qimir etishmasdi.

Bir mahal Arvona og‘ir qo‘zg‘alib, oyoqlarini bazo‘r bag‘riga yig‘ib oldi, bir amallab ko‘zlarini ochdi. Odamlar nafaslarini ichlariga yutib Arvonaga tikilib qolishgan edi. Boyvuchcha Arvonaning boshiga yostiq bo‘lib turgan qayroqi yerda sizib oqqan qon izlarini ko‘rib, yuragi allanechuk bo‘lib ketdi...

Arvonaning yurt tuprog‘iga tomayotgan ko‘z yoshini ko‘rib, atrofda turganlarining diydalari bo‘shab ketdi. Bu ko‘z yoshlar ne-ne yuragi toshlarning ko‘ngillarini buzib yo yubordi. Turlibekaning bevasi shu ovulning obro‘li kayvonisi o‘zini zo‘rg‘a tutib turardi. Bir mahal u o‘tira solib, Arvonaning boshini quchdi. Buni ko‘rib turganlar o‘zlarini tutolmay ho‘ngrab yuborishdi. Taqdirning o‘ziga ko‘rsatgan azob-uqubatidan qutulib yurt tuprog‘iga yetib yiqilgan arvonaning ko‘z yoshlarini ko‘rganda ba‘zi bir loqaydlarning yuraklarida ham dushmanga bo‘lgan adovati jo‘sh urdi, qalblarida bu adovat isyonga aylandi, erkaklik nafasoniyatlari tug‘yon urib, yovga nisbatan nafratlari ming chandon oshdi. Ayollar ham chidayolmay qolishdi. Emaklagan go‘dakdan tortib to soqoli selkillagan chollargacha bu holatdan yuraklari zirqiradi. Ovul kishilari, agar qo‘yib bersang, otlariga minib, na‘ra tortib yov ustiga g‘azavotga otlanishga hozir turishar edi. Ular shu vaqtgacha nima uchun o‘choq boshidan aylanib nariroq chiqa olmaganlariga hayron bo‘lishardi. El ori, nomusi, uchun qilich yalang‘ochlab yov bilan olishmaganlariga achinishdi. Hatto eng qo‘rqoqlar, eng quyvon yuraklar ham shu fikrda turar edilar.

Arvona hali ham yum-yum yig‘lab yotar edi. U ko‘ksi to‘la g‘am-anduhni, yovdan tortgan azob-uqubatlarini, yov qo‘lida himoyasiz qolgan yetim bo‘talog‘ining ahvoli, zorini, ajali oldidagi hasratga to‘la mungli qo‘shig‘ini va nihoyat, ushalgan armonining quvonchini ko‘z yoshlari bilan ifoda etayotgan edi.

Quyosh botganiga ancha mahal bo‘lib qoldi. Ovul odamlari uy-uylariga tarqalishgan, arvonaning atrofida esa uch to‘rttagina baobro‘ kishilar qolishgandi. Boyvuchcha boyagina huv naridagi tepalik ustiga qo‘chqormuchus nusha naqsh tushirilgan kiygiz yozdirib, ustiga to‘shak soldirgan edi. Odamlar bir amallab Arvonani o‘rnidan turg‘izishdida asta suyab olib borib o‘sha to‘shak ustiga bir amallab cho‘ktirishdi. Hozir arvona o‘sha joyda.

U hamon yum-yum yig‘lab yotardi. «Mayli, menga desa osmonda oy tutilib, quyosh so‘nsin! Ammo yurtimiz ustiga yov chopib, men ko‘rgan, kechirgan qayg‘u-hasratlar takrorlanmasin!» deganday oqardi uning ko‘z yoshlari... Arvona yotgan joyida sal anrida to‘bilg‘iyu /dashtda o‘sadigan yog‘ochlar/ saksovuldan o‘yilgan gulhan lovullab yondi. «Ajalga qarshi borib, yov qo‘lida azobu-uqubatlarga dosh berib, tug‘ilgan yurt bag‘riga yetib yiqilgan qahramonimizdan issig‘imizni ayamaymiz,» deganday qirsilib-chirsillab yonardi gulhandagi saksovulu tubilg‘i shoh-shabbalari. Gulhan lovullab yonib, Arvonaning muzlagan badanini isitar, alangasi esa uning so‘nib borayotgan ko‘z qaroqchiqlarida yilt-yilt aks etar edi.

Ovuldagi chollar Arvonaning jarohatlarini emladilar, yirtilgan terilarini tikdilar, har xil giyohlardan tayyorlangan malhamlarni surkadilar. Shundan so‘ng uning joni biroz orom olganday bo‘ldi. Buni ko‘rgan ovul odamlari ich-ichlaridan quvonishdi.

Afsus, ularning quvonchlari uzoqqa bormadi. Tongga yaqin Arvona bezovtalanib ingrana boshladi. Ovul kishilari havotirlanib, tun bo‘yi uning boshida o‘tirib chiqdilar. Tong otishi bilan ular Arvonaning jarohatlariga qaytadan yangi malhamlar qo‘yishdi. Biroq bularning hammasi, kor qilmadi. Quyosh chiqishi bilan u ko‘zlarini yumdi...

To‘g‘ri, uning o‘limiga hech kim ko‘z yosh qilmadi, yo‘qlov ham aytishgani yo‘q, ammo changqubizdan, sibizg‘idan mungli kuylar taraldi. Ovul odamlari go‘yo qahramonidan ayrilganday aza tutishdi. Ayniqsa boyvuchcha qattiq qayg‘urdi. Unga go‘yo o‘sha kuni ko‘l ho‘sinib, tog‘ nido berganday, yer silkinib, osmon chayqalganday, go‘yo jon-jonivorlar tugal ma‘rashib qushlar mungli no‘la qilishganday tuyuldi. Boyvuchcha qalbdagi shuncha og‘riqlarga, hozir boshidan kechirayotgan alamlarga mardlarcha bardosh berdi. Uning maslahiti bilan ovul odamlari arvonani so‘nggi safarga kuzatib qo‘yish taraddudini ko‘ra boshladilar.

Namozi asr paytida barcha ovul kishilari huv naridagi tepalikka to‘planishdi. Ular go‘yo bir mehribonidan judo bo‘lganday homush edilar.

Odamlar Arvonani izzat-hurmatini joyiga qo‘yib dafn etishdi...

Talabalarda ijodkorlik mas‘uliyati, ehtiyoji, hohishi va imkoniyatlari uyg‘onishi, shakllanishi, hamda betakror ifoda aylanishi uchun talabalarda ijodiy tasavvurning rang-barang davomiy uyg‘oq tarzda jonlanishi katta ahamiyatga ega. So‘z sehri, so‘z qudrati, so‘zning ta‘sirchanlik yuki fikrlar ummoni bilan uzviy bog‘liq.

Aktyorlik mahoratida berilgan shart-sharoit asosida turli hayotiy lavhalarni mantiqiy ruhiy va jismniy hatti-harakatlar tizimiga uyg‘unlashtiradi. Talabalarining ko‘p vaqti qunti, diqqati, e‘tibori, kuchi bilimi aktyorlik maktabining imlolarini o‘zlashtirish, mustahkamlash va rivojlantirish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Agar bu jarayon mustahkam o‘zlashtirilsa yosh ijodkorning sahnaviy so‘zlash mahorati ham risoladigidek ta‘sirchanlik, tabiiylik hayotiylik nafasi bilan jaranglaydi. Sahnada erkin va rang-barang fikrlash, aniq maqsad va hatti-harakat mahoratini chala o‘zlashtirgan talabadan jonli so‘zni talab qilish besamaradir. Sahna nutqi texnikasi bilan ishlanish jarayonining o‘zi ko‘p vaqt talab qilishiga qaramay qo‘shimcha va doimiy tarzda mustaqil ishlanish mustahkamlashni, so‘z san‘atini mukammal egallashning muhim omillaridan biridir.

Yuqorida berilgan Arvona nasriy dostonini ijrochilik mahorati ustida ishlanish jarayonida ham, undan oldin keyin qo‘shimcha hayotiy vaziyatlar shart-sharoitlar, turli voqealar tafsiloti tasavvuran va hayotiy erkin jonli ta‘sirchan so‘z orqali ifodalash talqinlari ustida ishlanadi:

Talabalar, tasavvur uyg‘oqligi, fikriy munosabat uyg‘oqligi faolligi ta‘sirchanlik iste‘todini o‘stirishga katta ahamiyat qaratilishi lozim:

Ma‘lumki, har bir insonda turli vaziyatlar, voqealar, taassurotlar, manzaralar, mavjudotlar, odamlar turlicha ichki munosabat, hissiy anglash va undan hissiy quvvatni yuzaga keltiradi. Hissiy quvvat o‘z o‘rnida so‘zni jonlashtiruvchi so‘z kuchi qudratini kuchaytiruvchi man‘badir. Biz bu man‘bani uyg‘otuvchi turli hotiralar yoki o‘xshash voqealar, shart-sharoit vaziyatlar tizimini yaratish yo‘lida izlanishga va uni kichik dramaturgiyasini qurilishi haqida ham izlanishimiz va

talabalarga ham yo‘llanma berishimiz, ularda ijodkor hissi va ma’suliyatini uyg‘otishga yordam beradi.

1. Men faxrlanaman- Ona yurtimdan, ota-onamdan, vatanimdan, millatimdan, do‘stimdan, ustozimdan, halqimdan, vatanim qahramonlaridan, mashhur odamlarimizdan, buyuk ijodkorlar, yetuk ijodkorlar, talantli aktyorlar, rejissyorlar, yozuvchi va shoirlar, qiziqchilar, go‘zallikdan, g‘aroyib mo‘jizalardan va talabalardan erkin tabiiy faxrlantiradigan voqealar haqida, erkin jonli tasavvur uyg‘otuvchi so‘zning shakllanishi ustida ishlanadi. Ish jarayonida talabalarda kutilgan jonlanish fikriy uyg‘oqlik, munosabat aniqligi va faolligi kuzatildi. Ayrim talabalar erkin jonli, emotsional faol munosabatlar bilan o‘z qarashlari tuyg‘ularini ifodalaydilar: ularda ma’naviy barkamollik vatanga, insonga va insoniylikka mehr e’tiqod muruvvatning uyg‘onish jarayoni hamda o‘zi ishongan astoydil hohlagan asl jonli so‘zi bilan ifodalash uquvini tinglovchilarga «yuqtirish»ga intiladilar. Ayrim vaziyatlarda guruhda jonli va jo‘shqin publitsistik nutq jaranglashiga zamin yaratiladi. Har bir talaba o‘zining ichki nigohi, ichki munosabati, ishonchi, umidi, e’tiqodini aslicha ifodalashga intilar ekan, guruhdoshlarida havas, ergashish, ijodiy yondoshish, rivojlantirish tuyg‘ularini uyg‘otishga muvofiq bo‘ldilar.

Garchand guruhda 14 ta, 16 ta talaba birin ketin 3-4 lahzalik muddatda dil izhorlarini bayon qilsalarda hamda ayrim talabalar guruhdoshlarini aynan takrorlasalarda so‘zi jonli, tasavvur uyg‘otuvchi va qiziqarli tarzda edi:

1-talaba: Keyingi paytlarda negadir ona yurtimiz va uning bugungi, ertasi kelajagi haqida taror va takror o‘ylagim keladi. Bu ehtimol ozodlik nasimlarimizning hayotbahshlik musaffoligidandir. Ehtimol halqimiz Vatanimiz taqdiri uning ko‘z o‘ngimizda jadal oyoqqa turishini ko‘rolmay uning tinchligi osudaligiga ko‘z olaytirib rahna solayotgan g‘alamislar paydo bo‘lganligidandir.

Inson va Vatan taqdiriga befarq yashashni men yashash deb hisoblamayman. Men shunday yurtda tug‘ilib o‘sib yashayotganimdan fahrlanamin. Mening bebaho-beqiyos orzularim bor, orzularimdan fahrlanaman. Meni tog‘amni o‘g‘li Vatani oldida o‘zining haqiqiy insonlik mardlik, jasurlik hislatini ko‘rsata oldi. Tog‘amni o‘g‘li Mansurdan fahrlanaman! Meni otam o‘qituvchi, bizni ertamiz, kelajagimizni yelkalarida ko‘taruvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya beradi, dunyoqarashini boyitadi, mehnatga, ilmga ishtiyoq uyg‘otadi, kamtarona hayot kechiradi. Men otamdan faxrlanaman.

2-talaba: Ming shukronalar-ki hayotimizda fahrlanadigan tomonlar bisyor. Hammasidan bir shingil aytgum bor. Ammo a‘lolar ichida a‘lo, donolar ichida dono, go‘zallar ichida go‘zal bir qiz bor, ismlari Ra’no. Men Ra’nodan fahrlanaman...

Talabalar: O‘-o‘-o‘... barakalla boshla...

2-talaba: To‘g‘rirog‘i Ra‘noni ko‘zlarini... Eh ko‘zlarini aytsam ichida go‘yo ming bitta ma‘no... Sochlarini aytsam-chi... Qop-qora eng muhimi yo‘g‘on, qaychi jabrini tortmagan... Qaniydi shu sochlarning bir umrlik soqchisi bo‘la olsam.

Talabalar: Ha... orzuga ayb yo‘q!

2-talaba: Aqlini aytsamku... Eh ba‘zan zavlanib hayratlanib ketaman oqilalik qanchalar ziynat har safar iqror bo‘laman. Men Ra‘nodan fahrlanaman...

3-talaba: Men qiziqchilarimizdan judayam fahrlanaman-da. Dili toza, quvnoq, halqimiz g'uborini tarqatuvchi, topqir dono, oqil, mashhur insonlarda ular. Ularni O'zbekistonimizning eng quvnoq, eng zukko shodlik ulovchilari degan bo'lardim. Hayot havo bilan, suv bilan rizqu-ro'z bilan. Ammo san'atsiz hayot, qah-qahasiz hayot hayot emas, shunday emas-mi?.. Har bir so'z ustasi o'zi bir olam, so'zi bir olam. Men qiziqchilarimizdan bir fahrlansam, yetuk aktyorlarimizdan, bir fahrlanaman.

Tanlangan mavzu talabalarni jalb qiluvchi, haqiqiy insoniy munosabat uyg'otuvchi bo'lishi kerak. Toliqtiradigan qiziqtirmaydigan, tasavvurini uyg'otmaydigan mavzular o'z o'rnida ta'sir quvvatini kesishi bilan birga talabalarda yuzakilik, loqaydlik, dangasalik illatlarining paydo bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. Shu o'rinda murabbiyning ruxshunoslik tajribasi o'zi qo'yayotgan shart-sharoit vazifalar mavzular majmuasini nechog'lik uyg'oqlikda, haqqoniylikda yetkazib bera olishi, talabalarda majburiylik asosida emas, erkin qiziquvchanlik maylida yo'llanma berilishi kutilgan samarani beradi.

2-vazifa: Dunyoda eng totli shirinliklar haqida ta'riflash musobaqasi, tariflash mahoratining qiyosiy ko'rigi.

Vazifasi: Har bir talaba o'zi uchun eng shirin, totli tuyulgan shirinlikni-shirinligini boshqa shirinliklardan afzalligini isbot qila olishi uning rangi, mazasi, shirinligi haqida aniq to'liq yoritib berishi kerak.

2-talaba: O'zi uchun shirin tuyulgan shirinlikning shirinligi haqida o'z tasavvuri va tinglovchi tasavvurini tasavvurlash ham o'z munosabatini ifodalagach kimning shirinligi, hammasidan shirin savoli bilan g'oliblik bahsi o'tkaziladi. G'oliblikka davog'lar avvalo o'zaro ikkitadan keyin har bir guruh g'oliblari o'z aqli, topqirligi, o'zini va tinglovchilarini ishontira olish mahorati bilan tortishadilar. Bu mashq garchand fikrlar tortishuvi so'z harakati tortishuv o'yini asosiga qurilgan esada zamirida so'z mahorati, har bir talabaning ma'lum bir mavzuda o'z qarashi fikrini tasavvurlash va so'z orqali targ'ib qila olish uquvini o'stirish vazifasi bor:

1-talaba: Bolalar shirinliklar haqida hayolparastlik qilmaymizmi-a?

2-talaba: Oh-oh qaniydi... shirinlik deyishing bilan og'zim suv ochdi... Ammo holva deganing bilan, og'zing chuchimaydiku, qanday qilib?

3-talaba: To'g'ri ming marta holva de, million marta holva de bir chimdim holva yemaganingga og'zing shirin bo'lmaydi.

1-talaba: E...e., qoyil qolmadim sizlarga kim aytadi sizlarni ishontiruvchan ijodkor deb. Tasavvur kuchimizni qayoqqa qo'yamiz axir, xotiralarimiz nima uchun? Nima umringizda eng shirin narsa yemabsizmi? Yegan shirinliklaringizni unutuvchan xotirasizmisiz, xotira kuchingiz qayerda qoldi? Hullasi kalom ikkilanishlarni qiling tomom. Men uchun dunyoda eng shirin shirinlik, bu tutmagizni shinnisi. Oh-oh xozirgacha mazasi tilimda...

2-talaba: Menimcha esa dunyoda eng shirin shirinlik, bu qulupnay murabbosini... O'v-v-v, xidlari hanuz dimog'imda...

3-talaba: Menimcha esa dunyoda eng shirin narsa, tog' asalining tozasi. Dunyoda asaldan shirin narsaning o'zi yo'qkuya, ammo tog' asalining tozasi

judayam shirinda bir choy qoshig'ini yarim piyola qaynoq sutga aralashtirib ichib yuborsangiz, oh-oh tirnig'ingizning uchigacha shirinlik yetib borganday bo'ladi.

4-talaba: Eha, novvotni aytinglar, novvotni. Pir piyolagina ko'k choyga chaqaloqni mushtidaygina novvotni tashlab choy qoshiqda aralashtirib, issiq, issiq ho'plangu tanagiz yayraganini, aqlingiz qayralganini, qoshingiz chimirilib, ko'zlarinigiz charaqlab, lablaringiz o'z-o'zidan iljayganini his etasiz...

5-talaba: Manimcha esa, shirindan-shirin yanayam shirin narsa, bu soyaki uzumning magizi bilan yong'oqni, bodomni, mag'zini aralashmasi. Oh-oh kecha ertalab bir xovuchgina ermak qiluvdim, hozirgacha to'ygan qo'ziday yuribman deng. Tuz totigan bo'lsin, mo'yloving o'smay qolsin.

6-talaba: E... men aytgan shirinlikdan o'tadigan shirinlik bor ekanmi, bu ichiga magiz qulupnay solingan muzqaymoq. Ana shirinligu, mana shirinlik.

7-talaba: Shirinliklarni xo'rozi menimcha, oq novvot qovunining qoqisi qora anjirning murobbosi...

shunday tarifdan keyin talabalar ikki guruhga bo'linib, shirinlik tanlovi musobaqasini boshlaydilar. Albatta musobaqa talabaning tasavvuri, so'zning jonli, tabiiy va tasirlilik jihatlarini to'laroq va samarali rivojlantirishga yordam beradi. Ijodiy jarayon barkamolligi uchun bunday oddiy, sodda va bolalarcha mashg'ulot har bir talaba ijro mahoratida diqqatini so'z qudratini turli, bir-biriga o'hshamagan tafsilotlar aslini ochishga, jiddiy va chuqur qirisha olsagina keyinchalik boyitiladigan mashg'ulotlar jarayonidagi murakkab ijodiy izlanish jarayoniga asoso soladi. Inson tomonidan ifodalanayotgan har bir so'zda tinglovchi yoki tinglovchilarning, suhbatdosh yoki suhbatdoshlarning fikriga ta'sir qilish, tasavvur uyg'otish, o'zgartirishdek ruhiy va mo'jizaviy vazifadan iborat. Bu vazifa ijrochiga so'z ma'nosini chuqur anglay olishi, aniq maqsadini so'z hatti-harakati orqali ifodalay olish mahoratiga ega bo'lishi kerak: Jonli, uyg'oq, ta'sirchan so'zni uyg'otuvchi va shunday o'tkir so'zga sabab bo'luvchi man'balari hayotiy lavhalar, vaziyatlar, voqealar ko'p. Ijrochi bizni o'rab olgan rang-barang, boy-betakror borliqni va undagi ming bir tafsilotlari, manzaralarni ilg'ay olishi, his etishi hamda o'z qarashi, munosabati, tasavvuri orqali idodalash ehtiyojiga ega bo'la bilishi zarur. Har birimizda tafsilotlar kuchi bilan, his etganlarimizni «yetkazish» ogoh qilish mayli bo'lishi tabiiy, ammo bu tabiiylik doim ham o'zining erkin va faol ifoda tarzini topavermaydi. Mashg'ulotlar jarayonida imkon qadar bo'lg'usi ijrochi ijodkorlarga betakror, jonli, go'zal so'zga mehr, chanqoqlik intilish uyg'otib borish katta ahamiyatga ega. So'z bu hazina, aql hazinasi, u ko'ngildagi bor orzu, hohish, iroda maqsadni ifodalovchi asosiy man'balari kaliti, zamon qanchalik o'zgarmasin insondagi eng noyob insoniylik hazina, aql ko'ngil mulki jonli go'zal va asl so'zda ifodalanaveradi. Ifodaning betakror, mukammal, go'zal shakllarini takomillashtirish professional ma'naviy tarbiyaning muhim tarmoqlaridan biridir. Nutq texnikasini mukammal, namunali meyorda o'zlashtirish ijrochining adabiy ijroviy matn tanlash didi, zehni, hassos so'zga bo'lgan mehri bilan to'ldiriladi. San'at olamida dunyoni go'zallik qutqaradi-degan umidbahsh ibora bot-bot takrorlanadi. Jamiyat taraqqayotining hamma pog'onalarida ham go'zallikning, barkamollikning, komillikning ahamiyati yetakchi sabablardan biri bo'lgandir. Istiqlolimiz quyosh

misol nur sohib, o‘z yog‘dusi bilan mamlakatimiz taqdiriga hayotbahshlik qimmatini bahshida qilib, halqimiz, millatimiz tafakkuri qalbi, dunyoqarashiga ta’sir qila o‘laroq odamlarimiz nigohi, munosabatlari hamda ehtiyojlarida yuksalishga kuchliroq sezilmoqda. Yashash tarzimizda shahar va qishloqlarimizning obodonligida manzaralarimizning fusunkor va hayratlarga soluvchi muhtasham obidalar, fahrlarga soluvchi yangi inshootlar buyuk kelajagimizning poydevori bo‘lib qad ko‘tarmoqda.

Bu beqiyos o‘zgarishlar ijrochilik san‘atida ham mazmun mohiyatiga hamohanglik kasb etishi lozim. Ijroviy adabiy matn tanlashda buni chuqur anglab yetish va haqiqiy mehr ardoq bilan milliy istiqlol g‘oyalari singdirilgan yangi zamon ruhi yangi davr tarannum etilgan asarlar ustida ishlanishiga kengroq o‘rin berilishi lozim. Katta bir umidlar, qaynoq orzular bilan ijodkor bo‘lish ahdidagi har bir talabani nutqiy fe‘l atvorini o‘rganish u, unga turli mashqlar majmualarini topish-u, bu mashqlarga talabani qiziqtirish, singdirish va undan go‘zal jljibador, mukammal nafas, ovoz, talaffuz namunalarini olish-u, ularning tasavvurlash mahoratini, hamda ijro mahoratini shakllantirish, o‘stirish, mustahkamlash, milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va ijrochilik repertuarlarini rang-barang zamonaviylik ruhi aks etgan yo‘lda tarbiyalash kabi ezgu mas’uliyat, burch, vijdon amri bilan, ularning dunyoqarashi, mafkurasining shakllantirilishi murabbiy ustoz uchun ham, uning shogirdi uchun ham katta iroda diqqat talab qiladigan jarayon. So‘z bilan ularning fikriga, hayotiga kira olish katta san‘at. Bu juda katta salohiyat, bilim, e’tiqod, mehr talab qiladi.

2-amaliy mashg‘ulot. NUTQNI TAKOMILLASHTIRUVCHI TEXNIK MASHQLAR

Vazifa: Charxpalak mashqida, birin ketin doira bo‘ylab, bulutlarday erkin suzib jaranga erishadilar.

Nafas sarfiga amal qilib qo‘llarida charhapalak cho‘michiday erkin go‘zallik tarovat obi hayot timsoli bo‘lib suv sohadilar.

Bulutlardan jamlanib koinotda kezamiz.-1*1-2-3.

Nafasimni asrayman zarra-zarra sarflayman.3marta

Shamollardan quvvat olib osmon bo‘ylab suzamiz.2*2-3-4

Zarra-zarra sarflasam charchamayman shoshmayman,5 marta

Osmonlarga sig‘may qolsak guldiraymiz olamga,3*3-4-5.

Charchamasam shoshmasam so‘zlarimni boplayman,7marta.

Mendan salomlar ayting shimol shamol sanamga.4*4-5-6.

So‘zlarimni boplash chun tovushlarni sozlayman. 9 marta

Tez safarga otlansin katta bo‘ron bobom ham,5*5-6-7.

Tovushlarni sozlashchun nafasimni rostlayman.11 marta

Ortlaridan ergashsin shabada oy momom ham.6*6-7-8.

Charhpalak ko‘zasiday qo‘llaringa suv olib, 13 marta

Gumbur gumbur qarsillab hayqiramiz sa'moga,7*7-8-9.

Ekinzoru gulzorlarga obi hayot sochaman. 15 marta

Momoqaldir gumburlari taralsin xo'p sa'moda.8*8-9-10. 3 marta

Ko'k yuzini chok-chok qilgan chaqmog'u nur chaqinmiz,9*9-10-11. 5 marta

Bulutlarning bag'rin tilgan mardonovor qo'shinmiz.11*11-12-1

Gumbur-gumbur zambarak, gumbur-gumbur zambarak,har biri va guruh.

Ovozimiz jarangini tinglasin osmon falak.

Tugal tugal tutallar tuzish. (T-D tovushi uchun)

Guruh:(birin ketin.)Db-dbdb-dubti- Db-dbdb-dubte- Db-dbdb-dubta- Db-dbdb-dubto- Db-dbdb-dubto'- Db-dbdb-dubtu-dbti.

Td-dtti- Td-dtte- Td-dtta- Td-dtto- Td-dtto'- Td-dttu- Td-dtti....

Tpbddivv -Tpbddevv- Tpbdavv -Tpbdovv -Tpbdovv Tpbddivv Tpbddivv Timbala-dippa,tumbala-dippa timbala dimm. Tembele-deppe,tembele-deppe tembele demm.

Tambala-dappa,tumbala-dappa tambala damm. Tombolo-doppo,tombolo-doppo tombolo domm.

To'mbo'lo'-do'ppo',to'mbo'lo'-do'ppo' to'mbo'lo' do'mm. Tumbulu-duppu,tumbulu-duppu tumbulu dumm.Timbala-dippa,tumbala-dippa timbala dimm.

Tugal tutalni tutilmas tezlikda, tasavvurni toshirib, diqqatni damlab, dutoru tamburday chertib, doiraday takillatib, qaddi qomatni rostlab, turfa tovush birikmalarda ravon, tilni toza tirillatib, g'irillatib, izillatib, tizillatib, tuzilgan tuzilmalar mashqi.

Tugal tuzsang toza tuz, tugal tuzolmasang tiling muz. Tutalni toza tuzmaganning tili muz og'zida to'qqiz hovuch tuz. Dedi Mohinur har bir so'zini dona dona, nuqsonlardan begona qilib.

To'qqiz hovuch tuz bilan, tilingdagi muz bilan, talaffuzing botqoqmi, chala chulpa cho'pakmi, tariqdagi qo'noqmi, ipirindi sipirindi tutab yongan o'choqmi,tutab yongan o'choqdagi, qozonchaga qopqoqmi, qopqoqli qozonchada, kuygan pista po'choqmi, kuygan pista po'choqcha, so'zing so'zmas so'ngakmi yoki so'ngan chiroqmi. Dedi Mohinur har bir so'zini dona dona, nuqsonlardan begona qilib.

To'qqiz hovuch tuz bilan, tilimdagi muz bilan talaffuzim botqoqmi, chala chulpa cho'pakmi,dengizdagi ko'pikmi, tariqdagi qo'noqmi, ipirindi sipirindi tutab yongan o'choqmi,tutab yongan o'choqdagi qozonchaga qopqoqmi, qopqoqli qozonchada, kuygan pista po'choqmi, kuygan pista po'choqcha so'zingso'zmas so'ngakmi yoki so'ngan chiroqmi.So'zim so'ngan chiroq bo'lsa ichimda qum-tuproqmi, ichimda qum tuproq bo'lsa, ichim bo'm bo'sh savatmi, ichim bo'm bo'sh savat bo'lsa, muammoga o'rtoqmi, muammoga o'rtoq bo'lsa, qavat qavat hasratmi? Qavat qavat hasratning, bahosi has kepakmi?bahosi has kepakka

chalinmagan chapakmi, chalinmagan chapakning qimmatini chang kesakmi, unga kerak elakmi, ichi chirik terakmi, shundan hissiz yurakmi, bu sahnaga kerakmi? Dedi Nigora har bir soʻzini ravon-ravon, nuqsonlardan begona qilib.

Bu sahnaga kerakmas, ichi chirik terakmas, hissiz yurak-yurakmas, qavat qavat hasratning, bahosi has kepakmas, has tuprogʻu kepakka, chang tuprogʻu kesakka, sira elak kerakmas, chang tuprogʻu kesakmas, unga kerak elakmas, ichimda qum tuprogʻu boʻlsa, ichim boʻm boʻsh savatday, muammoga lim-lim lim, qavat qavat hasratday, chala chulpa noʻnoqday, tariqdagi qoʻnoqday, ipirindi sipirindi tutab yongan oʻchoqday, tutab yongan oʻchoqdagi qozonchada qopqoqday qopqoqli qozonchada kuygan pista poʻchoqday, kuygan pista poʻchoqcha soʻzim soʻngan chiroqday, Soʻzim soʻngan chiroq boʻlsa ichimda qum- tuprogʻumi? toʻqqiz hovuch tuz boʻlsa, ogʻzim toʻla suv boʻlsa tilimdachi muz boʻlsa, talaffuzim botqoqdir, soʻzim soʻzmas yaproqdir. dedi Sirojiddin har bir jumlaning jonli –jonli ifodada iforli, nuqsonlardan begona qilib.

3-amaliy mashgʻulot. VOQEALAR TIZIMIDA SOʻZ HARAKATI. SAHNAVIY ASARLARDA OBRAZLAR VA OBRAZLILIK

Insoniyat oʻzining ikki ming yillik manzilini sir sinoatlarini yechilishi, ilm va tafakkurning hayratomuz parvozlari, sanʼat maʼnaviyat ijtimoiy hayotning rang-barang koʻrinishlari, kurashlar, yutuqlar, magʻlubiyatlar, talatoʻplar, boʻxronlar silsilasi bilan yukingan tarzda bosib oʻtdi. Goh yuksaldi, goh tanazzulga yuz tutdi. Har bir davrda ham soʻz va soʻz sanʼatining oʻzining yaratuvchilik, uygʻotuvchilik kabi buyuk quratli kuchini namoyon etib kelmoqda. Soʻz sanʼati hamisha oʻz zamonining ruhi, dardu, dunyosi, muammolarini aks ettirib kelmoqda. Soʻzning teran maʼnolilik hususiyati ijrochidan qanchalik koʻp vazifalarning ijodiy yechimini topishni talab etadi. Oʻz oʻrnida ijrochi ijodkordan oʻz zamonasining eng ilgʻor fikrli, joʻshqin eʼtiqodli va rang-barang talqin, ifodaviylik mahoratini mukammal egallashni talab qiladi. Har bir ijrochi avvalo oʻz zamonasi, davri muhitini oʻzida singdirgan oʻzi yashayotgan jamiyatni hamma tomonlama teran anglagan, uning yutuqlaridan chin insoniy qalb bilan quvona oladigan, fahrlanib ardoqlab, olqishlay oladigan ijodkor fuqaro boʻlishni davr illatlari umuminsoniy qadriyatlarga yot sarqitlar, salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi inson tabiatiga yot nuqsonlarga murosasiz kurashchi va tashviqoti targʻibotchi boʻla olishdek burchni yuklaydi. Demak, ijroviy matn tanlash, tahlil qilish va talabalar bilan ishlash jarayoni shu jihatlarga boʻysundirilishi kerak. Soʻz sanʼatida zamon ruhining jarangi tarannum etilishi shu zamin istiqloqlarning oyoqqa turayotgan bugungi kunida qoʻyilishi va eʼtirof etilishi, ilmiy nazariy, amaliy asoslarda chuqur yoritilishiga nechogʻlik atroflicha harakat qilmaylik uning ochilmagan jihatlari yana koʻproq anglanish

lozimpligini his etaveramiz. Jahonda har soniyada tezkor sodir bo'layotgan va bir lahzada butun olamga ma'lum bo'lib, insoniyatni jumboqlarga duchor qilayotgan voqealar, tinchlik yaratuvchilik tamoyillari bilan nafas olayotgan Vatan, halq taqdiriga yovuz va yot qarashlari bilan hammamizni bezovta qilayotgan notinch voqealar terrorizm, korrupsiya, mafiya, narkotik moddalarning tinimsiz kulfatlari ahloqiy tubanlik, yoshlarning yot ta'sirlarga chalg'ib qolishi va boshqa ko'plab g'ayrinsoniy, g'ayrioddiy vaziyatlar o'z kelajagini tinch bahtini, ijodiy parvozlari ko'zlagan har bir insondan har bir millat, halq ijodkoridan, san'atkordan o'z zamonasi ruhini teran anglashini, ogohlilikni hamda bor vujudi, aqli, tafakkuri, qalbi bilan buyuk yaratuvchilikning madh etuvchi, istiqlol mafkurasi, milliy g'oyalar bilan dunyoqarashi shakllangan ijod mezoniga ahamiyat qaratishimiz, hayot tarzimizni, umrimizning mazmuni, e'tiqodimiz, sadoqatimiz timsoliga aylanish kerak. Tomosha san'ati hususan aktyorlik san'atida ijodkorning yetuk malakasiga ijro mahoratiga ega bo'lishligi uchun ham uning borliqqa bo'lgan aniq va faol munosabati, qarashi hamda uni ifoda qila olish salohiyati bilan bog'liq. Biz so'z san'atida zamon ruhi ifodasining katta hayotiy ahamiyatini to'laroq anglashimiz, his etishimiz uchun prezidentimizning qator asarlari o'rganib va talabalarga chuqur o'rganishni tavsiya va targ'ib qilib, turli savollarning mantiqiy yechimini topamiz.

So'z san'atida bel bog'lab o'zining uzoq yillik pedagogik amaliy va nazariy tajribasiga ega har bir murabbiy ustozga ma'lumki: Ijroviy adabiy matn tanlash jarayoni mas'uliyatli diqqat talab, sinchkov va zukkolik bilan yondoshishni taqozo etadigan davr. Tanlangan asarning pishiqligi, katta iste'dod va mahorat bilan yozilganligi, mantiqining kuchliligi, tasvirlarining mukammalligi, voqealarning qiziqarliligi, tasvirlarining pishiqligi, asarning insoniy qadriyatlarga monandligi, har bir ijrochi va tinlovchining dardu dunyosiga ta'sir kuchi, ijrochining tasavvuri, munosabati, irodasini uyg'ota olish hususiyati va boshqa jihatlari yetuk bo'lishining ahamiyati katta. Ammo asar avvalo uni tanlayotgan ijrochiga manzur bo'la olmasa, hamda unda zamon ruhi milliy g'oyalari, istiqlol mafkurasi aks etmasa o'z-o'zidan bo'shliq paydo bo'lishi: zo'rma-zo'rakilik, sun'iylik to'laqonli talqin hamda ijro mahoratiga halal berishi aniq. Har bir ijodkor avvalo o'zi tug'ilib o'sgan yurtning yeru tuprog'i, musaffo havosi, suvi, tog'u-tosh, bog'u-rog'lari, undagi halqning bahti, tinchligi farovon, boyu badavlat yashashi uchun fidokorlik qilayotgan insonlarga haqiqiy mehr mahabbat, ardoq ularga ergashish hamda alqash ehtiyojini his etmas ekan, uning ijodi va ijrosida odamlarga ta'sir qiluvchi, ishontiruvchi, hayratlarga soluvchi kuchni topish qiyin kechadi, ya'ni talabalarda tarihiy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, eng nodir, bebaho badiiy adabiyotlarimizda tarannum etilgan bugungi ozodlik quyoshi charog'on bo'lib odamlarda haqiqiy fahr, mehr, qadr uyg'ota olgan borliqni his eta bilish, bugungi kunimiz uchun bir daqiqa ham o'ylashdan kurashdan to'xtamagan buyuk insonlar, allomalarimiz,

mutafakkirlarimiz, haqida yaratilgan asarlarga murojat qilish lozimligini to'laroq his etmoqdamiz. Katta iste'dod bilan yaratilgan, badiiy pishiq va yetuk, voqealari ta'sirli, muallifning g'oyasi, maqsadi bugungi kunimizga milliy istiqlol g'oyalariga uyg'un asarlarni tanlash va ularga talabalarda haqiqiy mehr chanqoqlik, kuchli hohish uyg'ota olish hamda talabalarning ham shunday asarlarni topib tanlay olishi katta kuch va hohish, qunt bilan o'rganishi kabi vazifalar o'z yechimini kutmoqda.

Nutq texnikasi, mantiq, so'z bilan ishlashning hamma jarayonlarida ham talabada so'zga, ta'sirchan betakror so'zga doimiy mehr, chanqoqlik uyg'otish zarur. Talaba so'zning eng noyob, bebaho ijod ma'nabasi ekanligini his etishlari, qadrlay olishi, so'zga, hassos so'zga chechan bo'lishi va buning ijodkorlik barkamolligining eng asosiy omillaridan biri ekanini bor vujud, qalbi, tafakkuri bilan his etishlari kerak.

So'zga mehri, tashnaligi bo'lmagan talaba so'z orqali o'z tomoshabinlarining ishonchi, hayrihohligi, diqqatini zabt etishi qiyin kechadi. Jamiyat taraqqiyotining hamma pog'onalarida ham go'zallikning, barkamollikning, komillikning ahamiyati yetakchi sabablaridan biri bo'lib kelgan. Halqimiz, millatimizning tafakkur-mafkurasi, ma'naviyati, dunyoqarashi ehtimol ikki o't orasida murakkab jarayonlar, hayot-mamot uchun tanlanish, o'zgarish, yuksalish jarayonida ekan yashash va ijodiy faoliyat tarzimizda zamon ruhi aks etishi lozim.

Ho'sh, zamon ruhini mustaqillik yillari yaratilgan qanday badiiy-ilmiy, nazariy, publitsistik asarlar, qissalar, romanlar, sahna asarlaridan topishimiz mumkin, qanday tanlashimiz, qanday tahlil qilishimiz talabalar bilan qanday ishlab uning tafakkuriga qanday yetkazib, qalbini qanday uyg'otishimiz kerak? Bunday savollar har soniyada har-birimizni bezovta qilishi tabiiy.

Biz fikrlarimiz har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan yoritmaylik baribir aniq amaliy ijodiy ish jarayoni o'zining ishlash jihatlari bilan hal qiluvchi natijani beradi:

So'z san'atida zamon ruhini biz aniq adabiy matnda istiqlolimizning juda murakkab shart-sharoitlarida qat rostlayotgan bugungi kunda va bundan keyin kechadigan har bir kunimizda hayotimizning qadr-qimmati, tinchligimiz tinch osuda taraqqiyot yo'lidan ketayotgan ildam odimlarimizning qadr-qimmati, yerimiz suvimiz, o'tu giyohlar-u, hazinalarimiz qazilma boyliklarimiz, tomchisi asalga monand sharbatlar beruvchi mevalarimiz, ona yurt qadri, Vatan qadri, odamlarimizning qadri katta qalb katta muhabbat va e'zoz bilan yozilgan Vatan she'rining teran ma'nolarida jamlangan bunday she'rlarni katta mehr, fahr, ardoq bilan to'lib toshib doim aytishlik burch va mas'uliyat bo'lib qolishi kerak.

Talabalarda she'rni to'laqonli his etish uchun qator izlanishlar, qunt, iroda zarur. Hozirgi davrda har bir o'qituvchi talaba, yo voyaga yetgan fuqaro hayot tashvishlari bilan band bo'lib ilohiy yuksak tuyg'ular burch, vatanparvarlik, halqparvarlik, adolat, haqiqat, insoniy qadriyatlarni e'zozlash kabi hislatlarga doim

ham e'tiborli bo'lolmayotganday. Taraqqiyotimizning taqdiri esa shu muqaddas tuyg'ularning gullashi, kamol topishi bilan bog'liq. Bu o'rinda o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, san'at, kino, televideniya, radio, adabiyot, matbuot zimmasida beqiyos vazifalar turibdi. Vatanparvarlik tuyg'usining insoniy munosabatlarda aslicha aks etishi har qanday jamiyatning rivojlanishi, gullab yashnashida yetakchi ma'nba, kuch bo'lib kelgan. Shuning uchun prezidentimiz bu tuyg'uga juda katta e'tibor bilan qarab har bir asarida buning nechog'lik muhimligini qayd etmoqda. Zamon ruhi matbuotimizda, nashr qilinayotgan yangi-yangi asarlarda, teatr, kino, televideniya, radioda taraqqiyot tamoyillarimizning imkon qadar turlicha yoritib kelinmoqda.

Davlatimiz halqimizning eng nufuzli, eng mazmundor bayramlariga aylangan mustaqillik bayrami, navro'z bayramida ham biz ijtimoiy hayotimiz, siyosatimiz, yaratuvchanlik tinchlik-omonlik, oliy maqsadlarimiz, uyg'un qarashlarimizni ming bir ohanglar gultoji so'z san'atida fahr va g'urur bilan tinglaymiz. Bizlarni hayajonga, g'ururlarga cho'mdiradi.

Mamlakatimiz tom ma'nosi bilan, mazmunlari teran qadimiy qadriyatlarimiz bilan bog'liq bayramlar, yubileylar, tadbirlariga boy mamlakat. Xalqimizning oddiy gapidan tortib, turli marosimlari an'analari alohida bir ma'no mazmun, kashf etadi. Ularda ham halq ruhi zamon ruhi mavjuddirki mazmunan boyitishga harakat qilib kelinmoqda.

So'z san'atida zamon ruhi yorqin aks etgan yana bir she'riyat namunalaridan biri Muhammad Yusufning «O'zbekiston» she'ri.

Yalpizlari ko'kka tutash,
 Yo'li ipak, suvi marjon
 Mayizlari qotgan quyosh
 Oltin dala, olmos qalam.
 Zumrad osmon, zilol bo'ston
 Kuzda ketgan qushlari ham
 Yozda topib kelgan ayvon.
 O'zbekiston, O'zbekiston.
 Dunyo ichra tengsiz dunyo
 Zar chopon qalb, yalangto'shim
 Qo'li ochiq, mehri ochiq,
 Qahri bosiq, ko'ngil bo'shim.
 O'g'liga ot bo'lib, cho'kib
 Qiziga allalar aytgan
 Belbog'ig'a borin to'kib
 To'yga borib, to'ymas qaytgan.
 O bola fe'l, o bolajon

O‘zbekiston, O‘zbekiston.
 O‘zini o‘ylamay o‘ylab,
 Farzandini yurgan sizlab
 O‘ngga kirmay bolasi
 Sarpo yiqqan qalliq izlab
 Bizda urf shu, boringni qo‘y
 To‘rtta o‘zbek to‘plansa to‘y.
 Bolang uchun kerak bo‘lsa
 Joningni sot, ko‘zingni o‘y
 To‘k topganing, yoz dasturxon
 O‘zbekiston, O‘zbekiston.
 Buku bir she‘r satqa ming jon
 O‘zing qo‘shiq, o‘zing doston.
 O otamdan qolgan qo‘rg‘on
 O‘zbekiston, O‘zbekiston.

Bu she‘rni o‘qigan talaba tug‘ilib o‘sgan ona yurtning tengsiz qimmatini, muqaddasligi har bir insonning ich-ichidan anglash lozim.

«Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» tushunchasini har bir inson butun aqli vujudi qalbi bilan his qilish uchun shoir ulug‘vor maqsad, oliy shon, katta bir insoniy ardoq bilan otasidan qolgan qo‘rg‘onni alqaydi, madx etadi.

Matn bilan ishlanish jarayoni talabalarning ma‘naviy dunyosi, profesional ijro malakasi o‘zining fuqarolik burchiga sadoqati, ona Vatani, halqi, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yeriga mehr va ardoq uyg‘otishga safarbar qilishi uchun manbadir. Talabalar bilan amaliy ishlash natijalari shuni ko‘rsatadiki, ularning fikrlash hamrovi, intizomi, qiziquvchanligi, qunti, diqqati, izlanuvchanligi, tirishqoqligi mukammal darajada kuchli bo‘lish bilan birga, ularda o‘zi yashayotgan muhit, atrofini o‘rab olgan borliq olam turli voqealar, manzaralar, tafsilotlarga o‘tkir nigohi, sinchkovligi, qiziqishi, aniq munosabati bo‘lmasa ijro san‘ati so‘z san‘atida qoniqarli darajadagi ijrochilikni kutib bo‘lmaydi.

Bu she‘rni mantiqiy tahlil qilinsa, asosiy voqea: bebaho hayotimiz uchun yashash, kamol topish, baxtu saodatga, aqlu zakovatga beqiyos ijodga erishishimiz uchun mavjud ulug‘ zaminimiz noyob tabiatimiz «Yo‘li ipak», «suvi marjon», «oltin dalalar», «zumrad osmon», «zilol bo‘ston»ning borligi va biz shu zaminda ulg‘ayayotganimiz, dunyomizning «dunyo ichra tengsiz»ligi.

Oliy maqsad: shu buyuk zaminni ulug‘lash, tinglovchilarda ona zaminimiz muqaddas Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash yetakchi hatti-harakat:

Ona zamin va muqaddas Vatanga mehr va e‘tiqod uyg‘otish.

1-Voqea: Tabiatimizning betakror sehri, jozibasi, go‘zal olami.

2-Voqea: Shu Vatanga borliq mavjudotlarning mehri va sadoqati.

3-Voqea:Halqimizni bolafe'llik, bolajonlik hislatlari.

4-Voqea:Millatimizning tantiligi, sahiyligi, bag'ri kengligi, fidoiyligi.

5-Voqea:Tiriklugu so'nggi makonimiz, otamizdan qolgan qo'rg'onning azizligi, tengsiz qimmatini.

Talabalar bilan matn ustida ishlanish jarayonida ko'plab qo'shimcha m'lumotlar, ularning qalbi, ijodiy tasavvurini uyg'otuvchi tafsilotlar ustida to'htalish lozim bo'ladi.

O'zida zamona ruhini aks etdirgan va katta aql idrok, mahorat bilan.

So'z orqali tomoshabinlar tasavvuriga dunyoqarashi, muayyan borliq, voqealar tizimiga bo'lgan munosabatiga ta'sir qila olish salohiyati ijrochining irodasi, aniq maqsad asosida qattiyat bilan tomoshabinga ta'sir qilish nufuzini doimiy o'stirish uchun qator uslubiy tavsiyalar, mashq va mashg'ulotlar majmuni ishlab chiqish teatr san'ati maktabining doimiy e'tiborida.

So'z qudrati, ta'sir mahoratini o'stirish uchun yana quyudagi qator tavsiyalarimizni yoritmoqchimiz:

Ijro maxoratini mustahkamlovchi shart-sharoit, vaziyat, voqea va holatlar mashqi.

Shart-sharoit: Yozning jazirama issiq kunlaridan biri. Saraton zaptiga olgan cho'l. Sement ortilgan beshta vagon turibdi.

Vazifa:10 ta talabadan iborat guruh vagonlarni semendan bo'shatib o'rnini qum bilan to'ldirishi kerak. Har bir talaba navbati bilan guruhdoshlarini ishlatish uchun ishontirish kuchi, vaziyatdan chiqish mahorati bilan guruhdoshlariga murojat qila olishi, ko'nikilmagan sharoitda, agarda shu shart-sharoitda hayotda shu ishni qilishga to'g'ri kelsa qanday qilib vaziyatdan chiqa oladi, qanday qilib ishlatadi, shu buyruqni bera olishi kerak. Buyruq asosida «So'z harakati» bilan bor irodasi kuchi hohishi bilan ta'sir qilishga intiladilar. Guruhdoshlari ishning ko'lami mashaqqatini haqqoniy his qila olishi va o'zlarida bajara olishga kuch topa bilishi lozim.

Berilgan vazifaning tasavvurni uyg'ota olish manzarasi, vaziyatning talabada munosabat uyg'ota olishi, befarq qoldirmasligi muhim ahamiyatga ega.

CHO'l, sahro quyoshning ayovsiz qizdirishi, tashnalik, toliqqanlik sharoitida ishlashga safarbar qilish va safarbar qilinish talabalarda iroda intilish, ichki harakat, aniq maqsad sari aqli fikrini safarbar qilishga intilish jarayoni tasavvur va so'zning uyg'onishi va so'z harakatining tabiiy faollashishiga yordam beradi. Mashg'ulot davomida talabalar mas'uliyat va intilish bilan ishlashlariga e'tibor berish zarur.

2-vazifa: «Tog'ora to'la suvni to'kmasdan to'rtta tepalikdan olib o'tish musobaqasi» /o'yin mashq/

Bosh hakam: Diqqat diqqat muhtaram honimlar va janoblar! Mana bugun butun jahon g'aroyib musobaqalar shinavandalarining nigohi «Hayda-hayda, hayt-

hayt» tepaligiga qaratilgan. Bu yerda birinchi marta o‘tkazilayotgan g‘aroyib musobaqaning boshlanishiga sanoqli soniyalar qoldi.

Sharhlovchi: UZR-uzr bosh hakam bova! Nazarimda vazifalarimiz almashib qolganday, hayajonlanganingiz ko‘rinib qoldi. Aslida sharhlash meni vazifam edi... Siz meni o‘rnimga sharhlovni ham boshlab qo‘ydingiz.

Bosh hakam: Hah, hayajon qursin... Hay ana o‘zingizdan eshitaylik.

Sharhlovchi: Olam uzra charog‘on quyosh

Nurlarini sochmoqda bebosh...

Taniqli shoiramiz Barot Boyqobilov «So‘z mulkinging sohibqironi» she‘ri bilan buyuk daho Mir Alisher Navoiyga hammamizda uyg‘onishi lozim bo‘lgan e‘tiqod mehr, hayratni izhor qiladiki, talabalarda ham she‘rni guruhning umumiy ishi yoki yakka ijro matni qilib buyuk bobomizni anglashga yordam beradi.

So‘z mulkida garchi ko‘p o‘tgan shohlar,

Siz kabi muzaffar kishvariston yo‘q.

Hoqondek siylagan oliy dargohlar,

Sizga teng donishmand hisrav nishon yo‘q.

Yo‘qdir sizdek buyuk va tabarruk zot,

Ahli dilga shafe komil inson yo‘q.

Yo‘qdir ahli johga berguvchi najot,

Kalom kishvarida fahri davron yo‘q.

Shodumon etgali ahli zamonni

Inson tilin bilgan bir zobondon yo‘q.

Yak qalam qilgali ozod davronni

Zakiy sohib qalam bir suhandon yo‘q.

Yo‘qdir so‘zg‘a shavkat berguvchi daho,

Muazzam tog‘ kabi bir soyabon yo‘q.

Yo‘qdir turk ulusin uyg‘otgan sado,

Hurlikdan o‘kirgan bir arslon yo‘q..

Garchi aqlim oldi ne-ne daholar,

Nazm davlatida sizdek sulton yo‘q.

Padari buzurgdek qilmish duolar,

Sizdek menga aziz bir mehribon yo‘q.

Yo‘qdir turk nazmida siz qadar daho,

«Hamsa»dan buyukroq asar hamon yo‘q.

Yo‘qdir «Hazoyin-ul-maoniy» yakto,

Sizsiz Xuroson yo‘q, buyuk Turon yo‘q.

Ne baht mukarramsiz ahli olamga,

Siz siz nozimlarga davri-davron yo‘q.

Qilichlar qudratin bermish qalamga,

Siz siz ona zamin toza osmon yo‘q.
 Hamonki, maddohlar ustomon, dilhoh,
 O‘zining dardidan bo‘lak armon yo‘q.
 Sanohonlik qilur, so‘zamol sullox,
 Tilini tiyguvchi mardi-maydon yo‘q.
 Yo‘qdir kalom qadrin baland tutgan zot,
 So‘z bozori kasod fidoyi jon yo‘q.
 Yo‘qdir suhanpavar sarvari, Barot,
 Inshodan bahtiyor ahli iymon yo‘q.
 Ne sharaf ulusga rahnamo padar,
 Qadringiz sarbaland etmagan on yo‘q.
 Milliy bog‘imizni qilib munavvar,
 Sizga gul eltmagan ahli zamon yo‘q.
 Yo‘qdir sizga ta‘zim qilmagan mehmon,
 Prezidentu Qirol, shohu sulton yo‘q.
 Yo‘qdir nomingizni bilmas o‘zbekxon,
 Chordovon yetmagan hur honadon yo‘q.
 Sizdek bunyod etib oliy qasrlar,
 Hazrati sarvardan, balki shodmon yo‘q,
 Havas qilsa arzir ellar, nasllar,
 Mashriqda bundayin dorul-omon yo‘q.
 Yo‘qdir bundan obod dorus-saltana,
 Ulusga Vatandin aziz makon yo‘q.
 Yo‘qdir o‘zga yurtda bunday tantana,
 Sardori fidoyi me‘mor inson yo‘q.
 Siz millat ramzisiz millat faxrisiz,
 Sizdek shamsul millat, zebi jahon yo‘q.
 Siz bilan to abad baland qadrimiz,
 Tangri nazar qilgan sizdek komron yo‘q.
 Yo‘qdir elga sizdek azizu g‘amxo‘r,
 Ulsin o‘ylagan sohib davron yo‘q.
 Yo‘qdir har kalomi ming durri shohvor,
 Masnaviyda sizdek faxri jahon yo‘q.
 Sizga shahar qurdik Navoiy debon,
 Bundan ziyod balki, zo‘r armug‘on yo‘q.
 Zamon farhodlari qiloldi bo‘ston,
 O‘zbekday me‘moru qo‘li gul jon yo‘q.
 Yo‘qdir ikki qadam shaharda armon,
 Ulug‘ kentlar aro bunday bo‘ston yo‘q,

Yo‘qdir hayrat bilan boqmagan inson,
 Bir to‘htab o‘tmagan azim karvon yo‘q.
 «Yangi Hamsa» bitdim sizga ey ustoz,
 bu ayyom bundan-da ulug‘ doston yo‘q.
 Bir umr bog‘ingiz eturmen obod,
 Men sizni unutsam O‘zbekiston yo‘q.
 Yo‘qdir sizdek hoqon bu jahon aro,
 Nazmda zabardast bir qahramon yo‘q.
 Yo‘qdir piri komil bir dostonaro,
 So‘z mulkida sizdek Sohibqiron yo‘q!

O‘qituvchi tomonidan tanlangan matn talabalar uchun doim ham jozibali, fikru, yodi qalbini rom qilib qo‘yadigan bo‘lavermasligi kuzatiladi. Matnga fikran va qalban maftun bo‘la bilish uchun muallifning asarni yaratish muhiti va tuyg‘usi, bezovtaligini his qila olish kerak bo‘ladi. Talabaning intilishi, uning tasavvurini zabt etgan voqealar, manfa‘atlar, hohish, qiziqish matndagi manzara, voqea, tasvir tafsilotga hamohanglik uyg‘otish, asarning har tomonlama qimmatiga unga ayon qila olish ustozlik mahorati qirralaridan biridir. Hazrati alloma buyuk mutaffakkir Mir Alisher Navoiy umuminsoniy mezonlarda ham jahonning buyuk siymolari oldidan joy olgan daho. Uni besh asrdan osharoq shoiri zamonlar, shohlar, olimlar, donishmandlar uning beqiyos hayoti va ijodini alqab keladilar. Insoniyat bordirki Navoiyni anglash va undan bahramand bo‘lishdek hayotiy ehtiyojga bog‘lanib qolaveradi. Barot Boyqobilov ham juda go‘zal samimiyati va hayratini «So‘z mulkining sohibqironi» she‘riga tizishga erishganki, ijrochi uchun jonli tabiiy, betakror manzara va tavsilotlar namoyon bo‘ladi. Insoniy hislat va buyuklik aql quvvat va so‘zday uchta hayotiy tayanch ustida tursa so‘z aql va quvvatning takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Barot Boyqobilovday hassos shoir ijodining yetuklik manzillaridan Navoiyning so‘z qudrati, so‘z sehri, so‘zdagi buyukligini katta hayrat va mehr bilan yoritmoqqa intilar ekan o‘zi, o‘qituvchilari va ijrochilar uchun Navoiydagi noyob va bebaho qirralarni kashf etishga intilganday bo‘ladi. Jahondagi hamma millatlar ham tenglar ichra teng, ular bebaho, beqiyos, mo‘jizaviy oliy shon qimmatidagi hazrati insonlar toifasiga dahldordirlar, har bir millat umumbashariy o‘lchamlarda daho darajasiga ko‘tarilgan mutaffakkir olimlari shoiri zamonlarini ulug‘laydilar. Har bir millat o‘zining buyuk insonlarini qanchalar munosib ardoqlasa, ulug‘lasa, uning ilmiy-nazariy, ijodiy mehnatlarini yoki qahramonliklarini hizmatlarini yodida tutsa bu millatning barkamolligi rivojlanishi hamda umuminsoniy taraqqiyot uchun ham ta‘sir qilishida ahamiyati katta. Yosh ijodkor ijrochilar buni bor vujudi, borliq olamga bo‘lgan nigohi va munosabati bilan chuqur his qilishi ibrat olishga intilishi hamda buni targ‘ib qila olish burchi va

mas'uliyati bilan yondosha olishi uchun ham tanlangan matn qimmatini ma'naba bo'ladi.

She'r millatning donoligi, oliyjanoblighi, zakovati, salohiyatini o'zida mujassam qilgan qator buyuk siymolar qatorida Alisher Navoiydagi o'zidan so'nmas nuru-ziyoni aql va qalb ko'zi bilan his etishga chorlayotganday tuyuladi.

Muallifdagi shu oliy matlabni ijrochi keng va chuqur his etib o'z oliy muddosiga singdirilishi she'rning hayotiyligi ta'sirchanligini shakllantiradi.

Ijrochining oliy maqsadi insoniyatni insoniy daho, umumbashariy ijodiyot, aqlu-zakovat komillik manzillari sari chorchash.

Yetakchi harakat hazrat Alisher Navoiydagi buyuk salohiyat, ijodiy yuksakliklar, mo'jizaviy so'z qudratini ulug'lash!

Milliy istiqlol g'oyasi:

Millat va Vatanning taraqqiyoti yo'lidagi buyuk insonlarning noyob faoliyati va ijodiy anglash va shu ruhda kelajak avlodni tarbiyalash.

1-voqea: Insoniy baht saodat va so'z san'atining mushtarakligi.

2-voqea: Alisher Navoiyning so'z san'atidagi tengsiz hizmatlari.

3-voqea: Alisher Navoiy, «Hamsa», «Hazoyin-ul maoniy» asarlarining bebaho hazina sifatida Huroson, buyuk Turon va jahon adabiyot hazinasidagi qimmatini.

4-voqea: Qilich qudratidagi qalam sohibi va uning ona zamin, musaffo osmondagi o'rni.

5-voqea: Alisher Navoiyning benazir hayot, tiriklik olamida ildiz otgan ustomon, dilhoh maddoh, sullohlarni fosh qilguvchi qudrati.

Turli mavzularning berilgan shart-sharoit, muallifning g'oyasi, muddaosi, asosiy fikr falsafa tuyg'ulari ijrochi tomonidan aniq va chuqur anglanishi, tahlil mulohazalar, izlanishlar doimiy e'tibor qunt talab jarayon.

Har bir adabiy matn o'ziga hos aniqlikda izchil yondashishni va monand voqealar berilgan sharoitlar, qiyoslashlar tafsilotlarning mantiqiy izchil va faol ifodaviy yechimini topishimiz kerak:

Bu vazifalar har bir talabaning xotirasi, hayotiy kuzatuvlari, kechinmalarini eslash, qayta uyg'otish va jonli qiziq ifodalash yo'llari ahtariladi. Har bir insonga xos holatlar, tafsilotlar kechinmalar, voqealikni chuqur his qila olishi, aniq faol munosabati va bularning ifodasi ta'sirchanligi ustida ishlashdi.

Talabalar taklif qilingan mavzu yo'nalishida tasavvur rang-barangligi va uning so'zidagi yorqin qiziqarli jonli ifodasi erkin, jonli hikoya qilinadi. Hikoyalash mashqi ijrochi va tinglovchilar uchun hayajonli, maroqli ishonarli tarzda ifodalanadi.

So'z tanlash va jumalarning qurilishi betakror, go'zal tasavvur uyg'ota oladigan hamda ichki harakat hohish irodasini aks etdiradigan bo'lishi kerak. Jonli

soʻz sanʼati sirlarini oʻrganish va oʻzlashtirish va soʻz ustasiga aylanish insonning asl koʻrki, ziynati, obroʻ-eʼtibori, jamiyat va ijtimoiy faoliyatining ramzi boʻlib qolaveradi. Shu fikrlarimizning amaliy ifodasi uchun yana ayrim mashgʻulot va tafsilotlarimiz ustida toʻhtalmoqchimiz.

1. Sogʻinch har bir insonga hos eng yaqin, aniq maqsad, hohish, intilish, orzuni yorqin va kuchli ifodalaydigan kechinma tuygʻu. Sogʻinch yaqinlari ota-ona, aka-singil, doʻst, quvnoq tanishlar, tugʻilgan manzil, yaxshi iliq taʼsurot qoldirgan manzaralar, turli maroqli mashgʻulotlar, oʻyinlar sayru-sayohatlar tomoshalar, sanʼat asarlar, qiziq odamlar talanti aktyorlar, orom olish yoki turli shirinliklar, lazzatli taomlar va hokazolarga nisbatan boʻladi va turli odamlarda turlicha kechadi. Talabalarning har biridan shu topda nimani tez-tez eslayapti, qumsayapti, sogʻinyapti, eslashni, sogʻinish darajasida sogʻinayotgan narsasini maqtashi, intilishi bilan gapirib berishi kerak boʻladi.

Masalan:

Ijrochi talabaning «Sogʻinch tuygʻulari» jarayoni izchil taʼsirli va jonli soʻz orqali ifodalanishi uchun:

1. Sogʻingan siymo, mazara, manzil, mashgʻulot, taom, gul, daraxtning va hokazo betakror, yorqin, ijrochi va tinglovchida oʻtkir tasavvur uygʻotish mahorati. Hayolan ichki nigox orqali koʻrish va koʻrsata olish qudrati.
2. Tasvirlanayotgan tasvir manʼbasiga kuchli eʼtibor, mehr, havas uygʻotish mahorati.
3. Sogʻingan va eslayotgan manʼba koʻrishda oʻzida va tinglovchilarida intilish, ishtiyoq uygʻota olish qirralarini shakllantirish.
4. Sogʻingani, koʻrishga boʻlgan hohish va hatti-harakatlari hamda bunga imkon bermagan qarshilik, toʻsiq, ziddiyatlar, intilish.
5. Orzu intilish, maqsadga erishish sururi, kechinmasi.

Mashgʻulot mobaynida yosh talabalarda ruhan uygʻonish, tasavvur jonliligi, matiqiy aniqlik va tabiiy jonli ifoda hususiyatlari kuzatildi. Har bir ijrochi ijodkor avvalo oʻzi uchun aniq, oʻzi uchun belgili, koʻrgan kechirgan, boshidan oʻtkazgan taʼassurotlar haqida tabiiy erkin va tasirli gapirish mahoratini namoyon qilishi, talabada chuqurroq iz qoldirishi tabiiy. Hikoyalangan ayrim «sogʻinch lahzalari» talabalarda chuqur emotsional munosabat uygʻota oldi.

... Mana, kindik qonimiz toʻkilgan ota manzirimizdan yiroqda tahsil koʻra boshlaganimizga ham ozmas koʻpmas 4 oydan oshibdi. Shuning uchunmi, bolaligim oʻtgan olis qishlogʻim, dala-yu qirlar, shinamgina hovlimiz, oʻz qoʻlim bilan ekib parvarishlab oʻstirgan uzum, oʻrik, nok, xurmo, jiyda, yongʻoqlar, tik qomat boʻlib oʻsayotgan adl 48 ta teraklarimni tez-tez eslayman. Kecha darsdan keyin xonamga chiqsam choynakda issiqqina choy damlangan-u, xonadoshim yoʻq. Qoʻshni xonalarga chiqqandir deb oʻyladim. Choynakni koʻrdim-u onajonim yana esimga

tushdi. Maktabdan ochiqib-xovliqib kelganimda doim shu choynakda damlanib qalpoq g'ilofi kiydirilgan qaynoq choy, likopchada magiz, turshak, dasturhonda esa mehribon volidai mo'tabarim o'z qo'llarida yopgan nonlari meni intizor kutib turganday bo'lardi. Hayolimda onam bu safar ham choyni damlab o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lib brganday edi. Bir zum o'ylanim qoldim-u butun borlig'im vujudim bilan onam, dadam, buvim, ukalarimni sog'inganimni his etdim. Dilimda ilinj, sog'inch, mayuslik o'rnashib olganu, tobora avj olib qizib borayotganday edi.

Tezroq reytinglarni topshirsan-u tatilga chiqsak qushday uchib ketgim kelardi. Eslaganim sari onajonimning parvona bo'lishlari, mehribonligi, sho'xlik o'yinqaroqlik, o'jarlik qilgan paytlarimda kuyunchaklik va mehr bilan tushintirishlari, peshonamni bag'riga bosib yelkalarim, orqamdan silab qo'yishlari esimga tushardi. Har bir ona betakror ulug'vor himmatga ega, lekin har bir farzand mening onam hamma onalardan dono va go'zal deyishga haqli. Chunki farzand o'z onasiga farzandlik ko'zi, qalbi, mehri bilan qaraydi. Meni ham shunday farzandlardan birimanku! Sog'inchim tobora zaptiga olib meni tinimsiz tezroq uyga ketishga undayotganday edi. Nihoyat prezident ta'tili boshlanib orziqib kutilgan kun keldi. Kechasi bilan uxlayolmay chiqdim hisob. Erta tongdan choy ichishgayam sabr yetmay yo'lga otlandim. Uyga ketishga deb jamg'argan pulim viloyat markaziga yetib olishga yetardi holos. Markazdan qishlog'imizga yetib olish uchun ham avtobusda ellik daqiqalik yo'l. Hudoga tavakkal qildim-u tijoratchilar tashiydigan ikaruslardan birontasiga ilinish ilinjida ipodromga bordim. Yo'lkira narhi ropparossa 200 so'mga semiribdi. Talabaligimni ro'kach qilib qayta-qayta iltimosimdan keyin haydovchi o'rinsiz olib ketishga rozi bo'ldi. O'zimni dunyodagi eng omadli insonday his etib «tik» turganimcha derazadan bepayoon ona yurtimning tarovatli manzaralarini miriqib tomosha qilib ketyapman-u, bot-bot uyga yetib borishim-u qanday kirib borishim, onam adam, buvim ukalarim bilan ko'rishishimni eslab entikib ketaman. Hayolat va betakror manzaralar tomoshasi bilan anchagina yo'lni bosib qo'yibmiz, uddaburon haydovchi bizdek talaba yo'lovchilar g'amida tahtachalar tayyorlab qo'ygan ekan. 2 o'rindiq orsiga qo'yib, kechagi uyqusizlikda o'tgan tun uyqusi kuchiygan bilan mizg'ib qolibman. Nihoyat erta tongda viloyat markaziga kirib bordik. Tanish va qadirdon manzillar. Qishloqqacha bo'lgan masofani piyoda zabt etish maqsadida yo'lga tushdim. Hademay quyosh ko'tarilib qizdira boshladi. Qorin och, yo'lda uchragan joyda suv ichib ketayapman. Nihoyat ona qishlog'imizning entiktiruvchi iliq mazarasi, adl dov daraxtlari, uylari, ko'zga tashlandi-yu kuchimga-kuch qo'shilganday bo'ldi. Qishlog'imizga kiraverishdagi qir dalada itlar galasiga ko'zim tushdi. Negadir cho'chiganday bo'ldim. Qiziq? Qayerdan paydo bo'ldi ekan. Qadimim bir tezlashib, bir yurishga ikkilanardim. Hayiryat e'tibor berishmadi. Mana meni behad sog'intirganu uyimiz. Taqillatmasdan darvozani surdim, ochildi. Hovlimizdagi tandir oldida onajonim non

yopardilar. Negadir ko‘nglim bo‘shashib tomog‘imdan orziqish, sog‘inch yoshlari o‘tganday bo‘ldi.

- «Oyijon, men keldim»- demoqchi bo‘laman-u, ovozim yetmayotganday bo‘ladi. Onamlar esa – «Voy, voy, bolaginam keldingmi» - deydilar-u non uzayotganlariniyam, qo‘lida issiq non olganlarini unutdilar chog‘i, savatgayam solmay noni bilan meni quchog‘iga oldilar. Oh, bu lahzalarning ta‘rifiga til ojiz.

Bir zumda chuvillashib ukalarim, dadam, hatto kalishlarini ham oyoqlariga ilmay sudralib buvimlar ham chiqib keldilar.

Anchagina mehrimiz qonib-qonmay so‘rashganimizdan keyin: «Oyi qornim och, yeyishga nimangiz bor?» deb so‘radim.

- «Uyda kosada qaymoq turibdi, mana bu issiq non bilan yeb turgin. Hoziroq qozon osamiz».-dedilar. Ko‘z o‘ngimda tandirdan uzilgan issiq yumshoq non va qaymoq lazzati meni sog‘inch, ona mehri, hayot mo‘jizasi bilan yaqindan ogox qilayotganday edi...

So‘z san‘ati ijro mahoratida bunday kechinmali erkin taassurotlar tizimi va ifoda yo‘nalishi jonli muloqot, ta‘sirli ifoda, ravon, erkin hikoyalash mahoratini mustahkamlash bilan birga talabalarda insoniy hislatlar ona yurtga, o‘zining qondosh jondosh halqiga, Vataniga, hayotga mehru-muruvvat, sadoqat, e‘tiqod munosabatlarini mustahkamlaydi. Bunday mashg‘ulotlar talabalarda milliy istiqlol g‘oyalari chuquroq his etishi va o‘zining ijro mahoratida tadbiiq qilishiga zamin bo‘ladi. Bor mehri ardog‘i bilan o‘z sog‘inchini bayon qilayotgan talaba o‘z tinglovchilariga ham mehri dardini yuqtiradi va o‘zida ham shu tuyg‘ularni rivojlantiradi. Muallif matni bilan ishlash jarayonida muallif g‘oyalari o‘ziga singdirishi tabiiyroq kechadi. Guruhdagi boshqa talabalar ham hikoyadan emotsional tasirlanib diqqat va havas bilan tinglab o‘zlari ham munosib tarzda o‘z sog‘inchlarini izxor qilishga urinadilar.

Talabalar tasavvurlarini boyligi, izlanuvchanligi, topqirligi shakllanib mustahkamlanib borishi va buning ijro mahoratida hayotiy, o‘tkir tarzda ifodalanishi murabbiy o‘qituvchi va talabaning doimiy e‘tiboridagi odat tusiga kirishi kerak. Yuqoridagi mashq va mashg‘ulotlar chuqur o‘zlashtirilib talabalar erkin, jonli, qiziqarli, mantiqiy pishiq ta‘sirli so‘z mahorati layoqatini namoyon qila boshlaganlaridan so‘ng berilgan shart-sharoit, voqeaga ijrochining agarda men tabiatimga zid hulq atvorli, maqsad va hatti-harakatli odam o‘rnida bo‘lib qolsam shu berilgan shart-sharoit va voqeani qanday:

1. Tasavvur qilgan.
2. Qanday maqsad qo‘ygan.
3. Qanday baholagan.
4. Qanday harakat qilgan.
5. Qanday rivojlantirgan.

6. Qanday yakunlagan bo'lardim?

Savollarini o'z-o'ziga qo'yib hayoliy rejasini hatti-harakat tarzini o'zlashtiradi.

Masalan: Men, men emas hat tashuvchi Sattor tajang bo'laman. «Tajang» laqabini menga maktabda o'qib yurganimda-yoq sinfdoshlarim «yamab» qo'yishgan. Tajang ham ehtimol buvamlardan yuqqandir, judayam serzarda o'tgan edilar. G'ashlariga tegadigan mayda, arzimagan sabablargayam «gurillab, povillab, yonib, tutab» ketardilar. Hatto ishtaham bo'g'ilib qolsayam buvamlarning tutoqib ketishlaridan cho'chib turardim. Maktabga borganimda savodim chiqishi bilan birga tajangligimning ham savodi oshib borardi, chog'imda. Bolalarning hijjalab kitob o'qishi, hunuk yozuvi, javobining sustligi, hatto o'qituvchining qo'ygan bahosigacha diqqatimni tortib qildan-qiyiq ahtarardim. Bolalar meni «big'illatib» qo'yib tomosho qilish uchun ham tez-tez jahlimga «moy» quyishardi. Hatto bir kuni to'p tepib maktabimiz farroshi Holida holaning derazasi oynasini sindirib qo'ygan o'zimdanda uch yosh katta Bektosh bilan rosa jiqqa musht bo'lib «burnim qonagan». Maktabni bitirgach «tajang» likdan-mi yo omadsizlikdanmi tuzukroq o'qishgayam kirolmadim. Vaqtim bekor o'tmasin deb pochtaga «Shoshilinchnoma» tashuvchi bo'lib ishga joylashdim. Ko'pincha qavatli uylarga hat-habar, shoshilinchnoma tashiyman. Qavatli uylarda yashovchi rus, no'g'ay nafaqaho'r buvilar ko'pincha ovozi yoqimsiz it asrashadi. Tajangligimni bilishadimi paydo bo'lishim bilan itlar «ho'ri» boshlanadi. Bir kuni pochtdan hat shoshilinchnomalarni olib yo'l-yo'lakay «super market»dan yarim kilo sardelka olib ko'rsatilgan manzilga yo'l oldim. Hovlida 3-4 ta nafaqaho'r buvilar itlarini shamollatgani olib chiqqan ekan o'zlari gaplashib o'tirishardi. Itvachchalar meni ko'rishi bilan o'zini botirliklarini ko'rsatishga tushishib yoqimsiz hura boshladilar. Jahlim chiqib shoshilganda qo'limdagi haltadagi sardelka bilan daf qilmoqchi bo'lib haltani uloqtiribman, ilib olishdi-yu ihotalar orqasiga ura qolib g'oyib bo'lishdi. Shu payt itvachchalarning egalari meni ayblab tanbex bera ketdilar. Avvaliga yoshlarini hisobini qilib o'zimni bosishga tirishdim qaragam biri olib biri qo'yib avjiga chiqib meni tarbiyalashyapti.

Olib qochilgan «sardelka»ning achchig'ini kimga sochishni bilmay turgandim g'azabimni jamlab turli tovushlarga joyladimda: “Hqg'ch-prsftm zklmnprr-jdgvachchichi-zhqchptrm-fschqh homono-muni-minamoromm-chpju vu ju ju ju, jufisi-piturupp-juqamuchuqurr sapi-sipi-zupasschch”. Mashqni bajarish talabadan juda katta diqqat, tasavvur, fikr, ichki harakat, ishonch va faol munosabatini to'la safarbar qila olish layoqatini talab qiladi. Buvilar bu «tushinmas» tildagi serzarda javobimdan popuglari pasayib qolishdi. Qolgan shoshilinchnoma uzoqroqda bo'lib avtobusda borish kerak edi. Avtobusga chiqib to'rtta bekat yurishim bilan konduktor belitimni surishtirdi. Shu payt boshim lovillab ketganday bo'ldi. Pochta tomonidan

berilgan «oylik chipta» sardelkadan qolgan «qaytim» ham talonchi itvachchalar olib qochgan haltada edi...

Talabalarning ijodiy tasavvuriga binoan voqeaning mantiqiy davomi yana rivojlantirilishi, davom etdirilishi mumkin. Bu mashq talabani qaltis vaziyatda uning ichki hatti-harakati, fikri va soʻzning hayotiyliigi, oʻtkirliigi taʼsir qudratini oʻstirish uchun juda faol fikrlash, ishonch, munosabatni talab qilib hissiy joʻshqinlikda vaziyat va jarayonni aniq betafsil hikoyalash vazifasi qoʻyiladi. Tasavvur-tassavvurini, soʻz-soʻzni, voqea-voqeani, fikr-fikrni, munosabat-munosabatni, maqsad-maqsadni uygʻota olishi lozim. Voqelikni tinglayotgan talabalar ham diqqat bilan eshitayotgan voqeasi ichida oʻzini ishtirokchi sifatida tasavvurlay olishi va navbati kelganida muqobil yoki oʻhshash lavha tuzish va hikoyalash vazifasi beriladi. Ish jarayonida talabalar berilib, ishonib, qiziqib ishladilar va taʼsirli, ishonarli, gʻaroyib tafsilotlar turkumi tuzildi. Fikr, tasavvur ichki harakat mantiqi asosiga qurilgan bunday mashqlarda hatto bitta voqeaning aynan oʻzini 8-10-12 ta talaba takrorlaganlarida ham talabalar katta diqqat va faollikda tingladilar, guruhdoshlarining aynan shu voqeani oʻzini berilib butun vujudi, aqli, qalbi bilan yorita olayotganidan zavqlanib ijobiy eʼtiroflarini bildirdilar. Darslarning ijodiy, toʻlaqonli, faollikda oʻtishi katta ahamiyatga ega. Aktyorlik maktabi darslarida ijodiy jarayonlariga eʼtibor koʻproq qaratilganligi uchun talabalarda «koʻnikma» hosil boʻlib qolishi tabiiy. Bunday sharoitda zoʻr berib ularni fikrsiz, aniq maqsadsiz, aniq ijodiy tasavvursiz turli vaziyat va shart-sharoitlarsiz «quruq» tehnik mashqlar majmualari bilan band qilinishi, siqqlikka, sunʼiylikka, yuzakilikka, loqaydlikka olib kelishi mumkin. Talabalarning «topilgan ijodiy mashqlar»ning qadriga yeta olishi, uni mustahkamlay olish irodasi, intilishi ijodiy izlanuvchanlik bilan boyitishi, rang-barang ijodiy ijro darajasiga yetkazishi uning ijro sanʼatini takomillashishiga betakror va boy boʻlishiga asos boʻladi. Qahramonimiz «tajangpolvon» asablari buzilib avtobusdan tushirilganidan keyin shoshilinch nomalarni tarqatib, horib-charchab, chanqab piyoda uyiga kelsa aksiga olib uyning kaliti ham olib qochilgan haltadan ekan. Uyda hech kim yoʻq, uydagilar viloyatga, qarindoshinikiga toʻyga ketishgan. Qorin tatalab tinmay ovqat soʻrayapti. Uyga kiraolmaydi, tajangligi oʻziga maʼlum, shuning uchun qoʻshnilaridan oʻzini tortibroq yuradi. Boshi qotib uyi oldidagi ochiq maydondagi oʻrindiqa oyogʻiga dam berib oʻtirganda oʻchakishganday sharros yomgʻir quyib yuborib rosa shalabbo qildi. Suvga tushgan mushukday diydirab oʻtirib tong ottirdi. Ertalab uyi oldida odamlar toʻplanishyapti. Osh bor shekilli, och qorinda umid, ilinj paydo boʻlib, sergaklandi, lekin taklif qilinmagan. Umidvor boʻlib, odamlar oldiga borib salom berdi. Oldiniga unga xushroʻy bermadilar, keyin nega jiqqa hoʻl boʻlib yuribdi, suvga tushib ketganmi qiziqqa boshladilar. Voqeani eshitib yur oshga biz bilan borib kelasan deb taklif qildilar. «Osh» soʻzini eshitib tajangvoyimizni ogʻziga suv toʻlganday boʻldi-yu,

tezroq borishi, och qoringa malham berish uchun uchkisi kelardi. Osh berilayotgan uyga yetib keldilar. Odamlar navbat kutib tik turishardi. Tajangvoy qo‘l uzatsa yetadigan stol ustidan bir burda nonmi, somsami, varaqami shart olib og‘ziga tiqqisi kelardi-yu, oriyati, tajangligi ustun kelib qo‘l uzatishdan o‘zini bosdi. Nihoyat stolga o‘tirish navbati keldi-yu, tajangimizga yana joy yetmadi... Nihoyat yangi kelgan guruhga qo‘shilib o‘tirdi. Choy qo‘yib atrofida gilarigayam uzatib o‘zi ham qaynoq choydan titraganicha ho‘pladi. Butun tanasiga jon kirganday bo‘ldi. Yana ichdi, bir burda non olib, og‘ziga soldi. Non og‘zida erib ketganday bo‘ldi. Non ham shunchalik shirin bo‘ladimi. Nihoyat, laganlarda osh ham yetib keldi. Yog‘lari kilkillab turgan to‘y oshi, o‘zbekning o‘zbekligi, tantiligi, jinday «manmailigi» bir jihatdan «hotamtoyli» ramzi. Osh vujudiga osh bo‘lib emas, «malham», «darmon», «quvvat» bo‘lib kirardi.

Bunaqa shirin oshni anchadan beri yemovdi shekilli... Oh to‘y oshi!!!

Tasviriy san‘at maktabida yosh musavvirlar «inson anatomiyasi»ni chuqur bilishi uni ichki mushak paylarigacha juda aniqlikda his eta olishlari hamda uni polotnogo oddiy qalam, yoki ranglarda hayotiy aniqlikda aks ettira olishlari uchun yillar davomida mashg‘ul bo‘ladilar. Aktyorlik san‘atida ham obrazlarning ichki dunyosini, sezgisi, fikr tasavvur, maqsad hohish irodasini makammal aniqlikda his qila olishlari uchun va buni yana ta’sirli, jonli, sehrli so‘z orqali «jonlantirish» uchun ijrochi izlanishlar uyg‘unligini o‘zida ko‘ra bilishi his eta olishi katta hamiyat kasb etadi.

Ijodiy jarayonlarda ijodkor erkin, rang-barang, go‘zal, lazzatli so‘z sehri va qudratini zabt eta olishi uchun bunga erishishning murakkab va mashaqqatli shakllarini katta iroda, hohish va mehr bilan o‘zlashtirishga yetarlicha vaqt, kuch, asab topa bilishi kerak.

Respublikamizda mavjud teatrlarimizning tili, nutq texnikasi, so‘zning barkamolligi, yutuq va kamchiliklari haqida mulohaza, munozara, e’tiroz va e’tiroflar sahnalashtirilgan asarning mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Ammo spektaklda yoki teleekranda nutq san‘atining to‘laqonligi mas’ulligi rejissyor va aktyorda bo‘lib qolishi kerak. Bu an’anani o‘z vaqtida o‘zbek teatr san‘atining assoschilaridan biri Mannon Uyg‘ur katta salohiyat bilan boshlab bergan edi. Qachonlardir 2 soatgana nutq texnikasidan ta’lim bergan nutq o‘qituvchisiga «Spektaklday murakkab ijodiy jarayonning» «so‘z ja’mi ijodiy jarayonlarning toji» mas’ulligini zimmasiga olish imkoniyatiga ega emas.

Respublikamizdagi ijodiy faoliyati so‘z san‘ati bilan bog‘liq aktyorlar, suhandonlar, notiqalar, so‘z ustalari nutq texnikasi va so‘z san‘ati ustida muntazzam katta kuch, iroda, hohish va mehr bilan ishlamas ekan nutq madaniyati, so‘z san‘ati talablar darajasidagi jozibali ta’sirli barkamollik meyorlarda jaranglashi qiyin kechadi.

Nutq texnikasi majmualarini o'zlashtirish mukammallashtirish mashqlarini doimiy takomillashtirib borish talab etiladi.

Demak yosh ijodkorlar uchun o'z mayli hohishi, qiziqishi, intilishi ehtiyoji tabiiy darajada doimo uyg'oq bo'lishi nutq mahorati muvoffaqiyatlarining kalitlaridan biridir. Biz bu qo'llanmamizda hayot baxsh jonli so'z san'atining ilk imlolarini jamlashga intildik. So'z san'ati ustida ishlash ijodiy boyitilgan shakillarda davom etadi. Bu esa navbatdagi qo'llanmaning mavzusidir.

V. KO'CHMA DARS MASHG'ULOTI

V. KO‘CHMA DARS MASHG‘ULOTI NUTQNI TAKOMILLASHTIRUVCHI TEXNIK MASHQLAR

Sof adabiy talaffuz to‘laqonliligida unli tovushlarning ahamiyati, o‘rni, vazifasi katta. O‘zbek tilshunosligida oila, bog‘cha, maktab doirasida unli tovushlarning sofligi uning adabiy andozasini o‘zlashtirilishi qunt bilim va e‘tibor talab qiladi. Oila, bog‘cha va maktabda horijiy tillarni o‘rganish jarayonida tovushlarning hosil bo‘lish o‘rin va talaffuz meyoriga atroflicha ahamiyat qaratilgani holda ona tilimizda unli, undosh, sirg‘aluvchi, portlovchi va boshqa tovushlarning talaffuz tozaligi talablar darajasida e‘tiborli emas. Bu ayniqsa san‘at va madaniyat o‘quv yurtlarining ijodiy imtohonlar reyting nazoratlarida talabalar talaffuzida kuzatiladi. Butun Respublika viloyatlaridan kelgan o‘qituvchilar talaffuzida «o‘z holicha»lik juz‘iy kamchiliklar uchraydi. 17-18 yil tili qotib odat tusiga kirib qolgan nutqiy nuqson «bir zarba» bilan yo‘q qilinishi mumkin emasligi tabiiy. Oqibat nutq texnikasi o‘qituvchisi so‘z san‘ati va uning ijodiy tamoyillari ustida bosh qotirishi o‘rniga, zo‘r berib tuzalishi qiyin va uzoq vaqt, mahsus shug‘ullanishni talab qilaligan mashg‘ulotlarga vaqt sarflaydi, ammo bu doim ham kutilgan samarani beravermaydi.

Biz nutq texnikasi haqida qator qo‘llanma va darsliklarda tavsiya etigan adabiyotlarda ko‘rsatilgan mashqlarga qo‘shimcha quyidagi mashqlarni tavsiya qilamiz.

1. Lablarni jiplashtirgan holda i,-e,-a,-o,-o‘,-u,-i tovushlarni takrorlash va bu jarayonda go‘yo hayolan og‘zida tuxum, yong‘oq mag‘izi, o‘rik danagi, magiz, turshak, qurt /chaynash va tanovul qilish/.

Bu mashq jarayonida nutqiy a‘zolar jag‘, lablarning erkin, faol, ochiq harakatlanishiga ahamiyat beriladi.

2-mashq: Ritmli unlilar talaffuzi mashqi. «i-e-a-o-o‘-u-i»dan iborat unlilarning har biriga alohida ritmli ohanglar topiladi. Masalan, «i» tovushi bilan «Andijon polkasi», «e» tovushi bilan «CHo‘li iroq», «o» tovushi bilan «Tanovar» va hakazo.

Bu mashq yosh ijodkorning unli tovushni to‘laroq talaffuzga ko‘nikma hosil qilishi bilan birga nafasni chiniqtirish, meyoriy sarflash, ovoz jarangini uyg‘otish vazifalariga ham ko‘nikma hosil qiladi. Mashqni murakkablashtirib ritmlar, doira usullari, surnay, nay, g‘ijjak, chang navolari ohangida davom etdirib takrorlashi mumkin. Mashq jarayonida talabalar erkin faol izlanish, bir birini tinglash, o‘rganish, bir birini boyitishga ko‘nikma hosil qilib boradilar. Albatta bu ko‘p vaqt va qunt, hohish talab jarayondir. Talabalar fikran o‘z va maqsadli o‘zlarini, mashqni to‘g‘ri, go‘zal va betakror o‘zlashtirishga band qila olishlari va buni mehr hohish, qiziqish bilan amalga oshirishining ahamiyati katta. Mashq o‘zbek sahna nutqi

maktabida 1-bo‘lib tadbiiq qilishini ko‘nikma bo‘lmagan holatlarda dastlab kutilmagan samarani bermasligi mumkin, ammo izchil, jiddiy va to‘g‘ri mashq qilinishi kutgan yo‘nalishda o‘z natijasini ko‘rsatadi.

3-mashq:

«i-i»

«i-e»

«i-a»

«i-o‘»

«i-u»

«i-i» talaffuzi javrayonida gullar nomi, ko‘rinishi, rang, hidi, go‘zalligini eslash.

4-mashq: e-i a-i o-i o‘-i u-i

e-e a-e o-e o‘-e u-e

e-a a-a o-a o‘-a u-a

e-o a-o o-o o‘-o u-o

e-o‘ a-o‘ o-o‘ o‘-o‘ u-o‘

e-u a-u o-u o‘-u u-u

e-i a-i o-i o‘-i u-i talaffuzi orqali mevali

daraxtlar bo‘yi, tuzilishi, rangi, ko‘rinishi, mevasi mazasini eslab talaffuz qilish.

5-mashq: I-E-A, E-A-O, A-O-O‘, O-O‘-O‘, O‘-U-I tovushlari talaffuzi orqali qushlar nomi, ko‘rinishi, rang, husisiyatini eslash, shuningdek unli tovushlar talaffuzi jarayonida daryolar, tog‘lar, mamlakatlar, millatlar, shaharlar, taomlar, inson hulqidagi ijobiy yoki salbiy nomlanishlarni eslash va talaffuzda qo‘shib aytiladi. Ko‘rinib turibdiki mashq mabaynida yosh ijodkor fikrlaydi, izlanadi, so‘z boyligini, talaffuz iqtidorini o‘stirib boradi, ammo bu ham ko‘p vaqt talab qiladigan jarayondir. Mashqning chala bajarilishi kutilgan natijani bermaydi

6-mashq: Unli tovushli tez-aytishlar: I-i-i. Savol.

1-talaba: Ikkita ignaga ip o‘tkazish osonmi?

2-talaba: O‘n ikkita ignaga ip o‘tkazish osonmi?

3-talaba: Yigirma ikkita ignaga ip o‘tkazish osonmi?

4-talaba: Ikkiyuz yigirma ikkita ignaga ip o‘tkazish osonmi?

Javob;

5-talaba: Ikkita ignaga ip o‘tkazish kimga oson, kimga qiyin.

6-talaba: O‘n ikkita ignaga ip o‘tkazish kimga qiyin, kimga undan-da qiyin.

7-talaba: Yigirma ikkita ignaga ip o‘tkazish kimga ancha qiyin, kimga judayam qiyin.

1-talaba: Ikki yuz yigirma ikkita ignaga ip o‘tkazish kimga judayam qiyin, kimga yanayam qiyin, kimga nihoyatda qiyin, kimga umuman qiyin.

Nihoyasida hamma so‘nggi so‘zni oldin guruhli va bitta-bittadan tushuntirib, ta’kidlab, aniqlab takrorlaydi.

1-talaba: I-i-i ikkita it, o‘n ikkita itni ko‘rib akilladimi?
O‘n ikkita it ikkita itni ko‘rib akilladimi?

2-talaba: Albatta o‘n ikkita it ikkita itni ko‘rib akilladi. Albatta ikkita it o‘n ikkita itni ko‘rib akilladi.

Yigirma ikkita it ikkita itni ko‘rib akilladi, o‘n ikkita it, ikkita itni ko‘rib akilladi.

Talabalar bu tasdiqni umumiy va bittadan takrorlaydilar.

Tez aytishlarda burrolik, muloqot, aniq maqsad, fikr, ichki hohish, hatti-harakat tushuntirish, jalb qilish, haqiqiy munozara, bahsga aylanishi e’tiborga olinishi lozim. Tez aytish talaffuz burroligi bilan uyg‘unlashishi uchun qator talaffuz mashqlari tavsiya qilinadi va takrorlanadi.

- 1.Ipi-tipi-tip-iprrq-chptrr.
- 2.Iki-chiki-riki-chprmptrm.
- 3.Ivi-jivi-viduvv-jivi-du-vudami.
- 4.Ivli-jivir-vijira bidirrr.
- 5.Ifisi-fituvv jikiri-timiri-mijurr.
- 6.Mifisi-pichush-pichiruruqachi.
- 7.Ibidiri-bidrum, vidiru-vidirimi.
- 8.Igdgji-jgdgji-jkrkchi jngrngjiro.
- 9.Ibilidumm-budilibidum-bifibidubumm.
- 10.Rriba-rubaromm-rubi-ribaromm.
- 11.Ingfchhrr-hidira-hijirr-g‘irijuramo.
- 12.Bihh-bili-bihrr-mihh-mili-mihhrr.

Talaffuz mashqi yana «i» tovushli so‘zlarni talaffuzi bilan mustahkamlanadi:

1-talaba: Ipak qurti ipagi ingichkami? O‘rgimchakning ipi ingichkami? yoki paxta ipi ingichkami?

2-talaba: Ipak paxta ipi juda ingichka. Ipak qurti ipi undanam ingichka. O‘rgimchak ipi yanayam ingichka.

3-talaba: O‘rgimchak ipi ingichka va afzal. Ipak qurti ipi ingichka va afzal yanayam mufassal. Ipak paxta ipi ingichka va afzal yanayam mufassal hamda pishiq va mukammal.

Va boshqalar ham takrorlaydilar.

1-talaba: Chilon jiyda ostida ikkita ilon qorni ochib, kuchi qochib yotibdimi? Qorni ochib kuchi qochib yotgan ikkita ilon chilon jiyda ostidan sudralib, o‘rmaalab qochibdimi?

2-talaba: Chilon jiyda ostida qorni ochib kuchi qochib yotgan ikkita ilon o‘rmaalab-o‘rmaalab qochibdimi yo chilon jiyda ostida in qurgan sichqonni chaqiribdimi?

3-talaba: Chilon jiyda ostida qorni ochib, kuchi qochib yotgan ikkita ilon oʻrmlab-oʻrmlab qochibdimi yo chilon jiyda ostida in qurgan sichqonni chaqiribdimi yo chilon jiydaga in qurgan qizil ishtonga qarab ogʻzini ochibdimi?

4-talaba: Chilon jiyda ostida qorni ochib, kuchi qochib yotgan ikkita ilon oʻrmlab-oʻrmlab qochay desa, chilon jiyda ostida in qurgan ikkita sichqonni koʻrib, chaqmoqchi boʻlib pusib yotibdi, buni sezgan sichqonlar chiy-chiy qilib chilon jiydaga in qurgan qizilishtonlarni uygʻotibdi. Qizilishtonlar-chilonjiydani doʻmbira qilib shovqin-suron sochibdi. Bundan choʻchigan ikkita ilon, chilon jiyda ostidan sudralib-sudralib qochibdi.

Tez aytishning yakunlovchi qismi hamma talabalar tomonidan turli tezlikda takrorlanadi. Tez aytishlar ijodiy toʻqima boʻlib, unga nutqni oʻstirish, talaffuzni ravon, burro, soʻz taʼsirchanligini rivojlantirilishi va boshqa bir qator vazifalar qoʻyiladi. Talabalar nutqini takomillashtirishga qaratilib taqdim qilingan aytilishi qiyin jumlar, talaffuz mashqlari, tez aytishlar, sajlar, kichik voqealar bilan bir qatorda yosh ijodkorlarni topqirlik, hozirjavoblik, kashfkorlik soʻz ustaligi ixtidorini rivojlantirish uchun erkin mustaqil fikr, ijodiy izlanishga yoʻllanma berib, mashqlarni toʻldirish, rang-baranglashtirish, ijodiy matnlar yaratish vazifasi beriladi. Shu oʻrinda amaliy mashgʻulotlar jarayonida yaratilgan murakkablashtirilgan bir qancha tez aytishlarni tanlab nutqiy ravonlik, quvvai hofizani chiniqtirish, soʻzga turli maʼno, hatti-harakat, maqsad qoʻya bilish va uning ijroviy talqinini tabiiy va texnik jihatdan oʻzlashtirilishi uchun tavsiya qilmoqchimiz:

Chuvalchang, chilton, chipiriston.

Chuvraqachi-chaqariro, tarriqora-raqariro.

Tumparaqa qaraqatrom.

Iraparaqatrastruri, torri-qaraqatri tupara tru-riro.

Alfazra-jmfzlastrupp-jaji-baji-jo-julfazlabrollorr, jajiboy-dulup tijorat minimarketining menedjeri, Abu bundur Muso Mirturdimurod Qulfazl Abdusamat Toshtemirchoʻyanpoʻlat tilla tarogʻining tishini sanab, hushtak chalib, hayolga tolib muzqaymoq yalab turardi.

Kutilmaganda olatasir umpruqumpur turaqa-taraq turuq tupra, framastrum boʻlib toʻrtta yo shirakayf, tasavvuri tarqoq, yo vohmayu vos-vos, yo jinday qoʻrqqoq, ammo tinib-tinchimas hamda oʻlguday tirishqoq hamtovoqlaridan, birinchisi, Arbardr Abubakr Abdushukur Panjiyor Tojimurod Boʻronboy Toʻgʻonbek fazl musaxoʻja Madiyorshodmon Matyoqub shoshqin.

Ikkinchisi Haydarxoʻja Qobilqul Abduholiqnursulton Norturdimurod toshqin.

Uchinchisi Toshqamarqiyos Isfandiyor Hayriddin Nasriddinxoʻja Mamadiyor Nurillo tajang.

Toʻrtinchisi Parpi Mirtoʻra mamayusuf Qaynarqandiyor Qiyosiddin bashang edilar.

Bir zumda, shu onda kutilmaganda shuv etib, zuv etib, g'uvv etib olatasir umruqumpurr, turaqa tarov turuq tupra framastrum bo'lgan to'rtta yo shirakayf, yo tasavvuri tarqoq, yo vohmayu vos-vos, yo jinday qo'rqq, yo jinday tarqoq, ammo hamisha uyg'oq, tinib-tinchimas hamda o'lguday tirishqoq hamtovoqlaridan to'rtinchisi Parpi Mir To'ra Mamayusuf, qaynar-qandiyor, Qiyosiddin bashang.

Birinchisi Arbadr Abubakr Abushukur Panjiyor Tojimurod Bo'ronboy To'g'onbek Fazlmusaxo'ja Madiyorshodmon.

Uchinchi Toshqamarqiyos Ifandiyor Hayriddin Nasriddinxo'ja Mamadiyor Nurillo tajang.

Ikkinchisi Haydarxo'jaqobilqu Abduholiq Nursulton Norturdimurod toshqin bab-baravariga dedilar:

Him... Dim Vdvdngg jirtim javravajzdrm hmjdr fzlvdru psfsvtrprj-fstrss.

Chuvalchang chilton chipiriston

Chuvraqachi chaqariro

Tumparaqa qaraqatrom

Chraparaqatrastruri torriqoraqatra tupara tru-riro

Alfadre jmfzlastrupp

Jaji baji jo julfazlabrollor

Jajiboy dulup tijorat mini marketining menedjeri

Abubundnur Muso Mirturdimurod

Qulfazl Abdusamad Toshtemir CHO'yanpo'lat Abubundnur Muso Mir Turdimurod qulfazl Abdusamad Toshtemir cho'yan po'lat!

Him tilla tarog'ingni tishini sanab, hushtak chalib, hayolga tolib, muzqaymoq yalab turibsanmi?

Muzqaymoq yalab, hayolga tolib, hushtak chalib tilla tarog'ining tishini sanab turgan

Chuvalchang chilton chipiriston

Chuvraqachi chaqariro

Torri qora raqariro

Tumparaqa qaraqatrum

Chraparaqatrastruri torri qaraqatri tupara tru riro

Alfazra jmrzlastrupp jaji baji-jo julfazlabrollor jajajiboy dudulup tijorat mini marketining menedjeri Abubundur Muso Mirturdi Murod Qulfazl Abdusamad Toshtemir CHO'yan po'lat:

«Him hayolga tolib, hushtak chalib muzqaymoq yalab, tilla tarog'imni tarab tishini sanab tursam turibman.

Chuvalchang chilton chipiriston

Chuvraqachi chaqariro torri qora raqariro tumparaqa qaraqatrum

Iraparaqatrastruri torri qaraqatri tupara tru riro

Alfazra jmfzlastrupp jaji baji jo, julfazlabrollor jajiboy dulup tijorat mini marketini qursam quribman. Boyisam boyib, qo‘ysam qo‘yib, kuysam kuyib, chaysam chayib, toysam toyib, shoshganda shoshib, toshganda toshib, oshganda oshib, jo‘shganda jo‘shib, qo‘shganda qo‘shib yuribman. Yani bir savoling bormi, ber bo‘lmasa toshingni ter»-dedi.

To‘g‘risi chualchang chilton chipiriston

Chuvraqachi chaqariro torri qora raqariro, tumparaqa qaraqatrum

Chrapara qatrastruri torri qoraqatri

Tumparaqa qoraqatrum tupara tru-riro

Alfazra jmfzlastrupp jaji baji jo, julfazlabrollor jajiboy dulup tijorat mini marketing menedjeri Abubundur, Muso, Mirturdimurod, Qulfazl, Abdusamad, Toshtemir cho‘yan po‘lat Mirzoning qoshlari chimirilib, burinlari jiyirilib, ko‘zlari chaqchayib, mo‘ylovlari tikkayib, lablari ish-shayib, peshonasi tirishib tomog‘i qurushib, burni uchi jinday terlagan edi.

Shu payt Arbadr Abubakr Abdushukur Panjiyor Tojimumurod Bo‘ronboy To‘g‘onbek Fazl Musaxo‘ja Madiyorshodmon Matyoquv shoshqin bilan Haydarxo‘ja Qobilqul Abduhliq Nursulton Norturdimurod Toshqin Toshqamarqiyos Isfandiyor Hayriddin Nasriddinxo‘ja Mamadiyor Nurillo tajang bilan Parpi Mir To‘ra Mamayusuf Qaynarqandiyor Qiyosiddin Bashangning og‘zi ochilib, hayoli sochilib bir lahza bir zum nafas, yutib dmm, jim, hmni, nm, nmi, nm-nmdrmm hangu mang hamda jinday tajang ko‘zlari bo‘zrayib, boqqanda, mo‘ltayib hatto bir muncha shalpayib, yanachi yalpayib, hayronlikda tumshayib qoldilar.

Shunda Toshqamarqiyos Isfandiyor Hayriddin Nasriddinxo‘ja Mamadiyor Nurillo tajang darhol-alhol ahvolni ang lab, fikrini jamlab lablarini namlab, kelgan yo‘limiz ketgan vaqtimiz bo‘lmasin deb uvol, beozorligimiz emasku zavol, bir so‘z desam kelmasa kerak malol,- deb dedi:

E birodar, fahm-farosat bobida emasmiz axir besamar.

Qadring qovrilmagur, sabring sovrilmagur Abubundur Muso Mirturimumurod Qulfazl Abdusamad Toshtemir cho‘yan po‘lat. Boy bo‘lsang bo‘libsanda, toy bo‘lsang bo‘libsanda moy bo‘lsang bo‘libsanda, soy bo‘lsang bo‘libsanda, nor bo‘lsang bo‘libsanda, tor bo‘lsang bo‘libsanda, ammo eshit, ko‘cha changitib o‘shishgandik, bir-birimizni gangitib o‘shishgandik, so‘zimiz eshit, ne-ne suvlarni kechib o‘shishgandik so‘zimiz eshit. Biz oldingga qarz so‘rab kelmadik, apoq-chapoqligimizni darz etishga kelmadik, jinday-jimirday maslahatimizni farz deyishga keldik.

Sen bola faqr Abubundur Muso Mirturdimurod Qulfazl Abdusamad Toshtemir CHO‘yan po‘lat haddingdan oshma, gapimga gap qo‘shma, mutloqo shoshma, burning ko‘tarilmasin, qoshing chimirilmasin, peshonang tirishmasin,

ko'zing olaymasin, yuzlaring qoraymasin, ko'krmasin, sarg'aymasin, labing pirpiramay bo'lar-bo'lmasni jirkiramay jim tur-dedi.

«E-e-e... gapirsang-gapir, yana yuz bir gapdonlaringni chaqir, narhingni oshir, to'g'ri so'zlasang har so'zingga o'n bir patir, yo maqsadga o't, yo vidi-vidi qilib qorong'u kech, erta tonggacha boshimni qotirsang-qotir»-dedi.

Abubundur Muso Mirturdimurod Qulfazl Abdusamad Toshtemir cho'yan po'lat!

-«Ha-ana endi ho'sh eshit»-dedi. – Arbadr Abubakr Abdushukur Panjiyor Tojimurod Bo'ronboy To'g'onbek Fazlmusaxo'ja Madiyorshodmon Matyoquv shoshqin. Aytchi Chuvalchang chilton chipiriston, chuvraqachi chaqariro torri qora raqariro, tumparaqa qaraqatrom, iraparaqatrastruri torri qoraqatri tupara tru-riro. Alfazra jmfzlastrupp jaji baji jo, julfazlabrollor jajiboy dulup tijorat mini marketining menedjeri Abubundur, Muso, Mirturdimurod, Qulfazl, Abdusamad, Toshtemir cho'yan po'lat Chirchiqda, Chimkentda, Chillida, Chikagoda, Toshkentda, Tokioda, Tallinda, Tayvandda, Buhoroda, Buxarestda, Berlinda, Bombeyda, Balxda, Samarqandda, Sayramda, Santyagoda, Samarada, Stokgolmda, Seulda, Namanganda, Nyu-Yorkda, Navoiyda, Nishopurda, Parijda, Pekinda, Pxenyanda, Qozonda va Qo'qonda, eng achchiq narsa nima?

-Pxenyanda, Pekinda, Pxenyanda, Parijda, Nishopurda, Navoiyda, Nyu-Yorkda, Namanganda, Seulda, Stokgolmda, Samarada, Saytyagoda, Sayramda, Samarqandda, Balxda, Bombeyda, Berlinda, Buxarestda, Buhoroda, Tayvandda, Tallinda, Tokioda, Toshkentda, Chikagoda, Chillida, Chimkentda, Chirchiqda, Qozonda va Qo'qonda eng achchiq, achchiqdan achchi. Yanayam achchiq narsa, achchiq qo'qon qalampiri,- dedi.

-Ho'sh, ho'sh, ho'sh-dedi Parpi Mirto'ra Mamayusuf Qaynarqandiyor, Qiyosiddin Bashang. -O'sha Chillida, Chimkentda, Chirchiqda, Chikogoda, Toshkentda, Tokioda, Tallinda, Tayvandda, Buhoroda, Balxda, Berlinda, Buxarestda, Bobeyda, Samarqandda, Sayramda, Sentyagoda, Samarada, Seulda, Namanganda, Nyu-Yorkda, Navoiyda, Nishopurda, Parijda, Pxenyanda, Pekinda, Qozonda va Qo'qonda, achchiq eng achchiq, achchiqdan achchiq bir shoda achchiq qalampirni chaynab-chaynab, biz yesak qanday shart qo'yasan? – O'zing yesang qanday shart qo'yasan?

Abubundur, Muso, Mirturdimurod, Qulfazl, Abdusamad, Toshtemir cho'yan po'lat o'ylab-o'ylab, yana va yana o'ylab:

- O'zinglarchi, men yesam qanday shart qo'yasiz, o'zingiz yesangiz qanday shart qo'yasiz?-dedi.

Tez aytish mantiqan voqealar, shartlar bilan to'ldirilib yana davom etkazilishi, talabalarning ijodiy imkoniyatlariga ko'ra davom etdiriladi. Va shart qo'yishda har bir talabaning erkin hohishi, irodasi, orzusi, intilishi anglatilishi kerak. Garchand

mashq til charxlash, diqqat hotirani mustahkamlash, soʻz orqali bir-birlariga taʼsir oʻtkazish, tasavvur uygʻotishga qaratilgan boʻlsada tigida har qanday oliy maqsad, orzu, ezgu niyatlarga erishish zamirida zahmat, mehnat, izlanish, intilish yotganiga eʼtibor qaratiladi. Amaliy mashgʻulot jarayonida talabalar bir shoda qalampir chaynash «achchigʻini», kimdir Vatan va millat taraqqiyoti uchun, kimdir sevgan kasbga eng yuqori choʻqqilarga erishish uchun, kimdir oʻzi va halqining yuksak-farovon, tinch, osuda hayoti uchun, kimdir sevimli insonlarning bahti uchun, yana kimdir esa hayotdagi turli illatlar, yomonlik, aldanchilik, hiyonatning boʻlmasligi uchun yeyishga roziligi iqrorini, roʻyiost, esda qolardi tarzda izxor qila olishlari lozim. Bunday tez aytishlarning uzundan uzoqligi, murakkabligi murabbiy va talabani ikkilantirishi mumkin. Uni toʻlaligicha yod olish, turli tezliklarda soʻz harakati maromida ijro qilish katta qunt, ziyraklik, kuch, tirishqoqlik talab qiladi. Bunday sharoitlarda tez aytish umumiy guruh tez aytishi tahlilida taqsimlanishi, 6-7 talabaga boʻlib ishlanishi ham, har bir yosh mutahassis uchun majmua boʻla oladi. Tez aytishlar bilan ishlash mavzu va soʻzlar rang-barangligi yanada kengaytirilib boshlangʻich bosqichdan, yakunlovchi bosqichlargacha davom etdiriladi. Aql, tasavvur, til va ijro mahorati takror talab jarayonligi maʼlum. Yangi tez aytishlar oʻz oʻrnida ushbu risolaning keyingi oʻrinlarida ham berilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Nutq madaniyati va mahoratini mukammal egallash uchun muhim boʻlgan bogʻcha, maktab, gimnaziya, litsey, kollej va boshqa sanʼat madaniyat maskanlari, harbiy bilim yurtlari, yuridik kollejlari, universitetlar, pedagogika taʼlim maskanlari, davlat qurilishi akademiyasi, maʼnaviy diniy taʼlim dargohlari, siyosat targʻibot mutahassislarini yetishtiruvchi soha yoʻnalishlarida soʻz sanʼatiga, notiqlik madaniyatiga yetarli eʼtibor qaratish zarur. Oʻz oʻrnida bular uchun katta hayotiy, maʼnaviy, badiiy barkamollik namuna minbori boʻlishi lozim boʻlgan sanʼatning teatr, kino, televideniya, radio va boshqa tomosho turlarida soʻz sanʼati hamisha oʻzining qudratli, taʼsirchan, yetuk va goʻzal ifodalarini takomillashtirib borishi rivojlanayotgan davlat qudratining maʼnalaridan biridir. Tilning rivojlanishiga yetarli va mukammal miqyosda eʼtibor boʻlmagan mamlakatda ijtimoiy siyosiy, tarbiyaviy yoʻnalishlarda oqsoqliklar, uzilishlar anglashilmovchiliklar boʻlishi u jamiyatning sogʻlom rivojlanishida tayanch boʻlolmasligi mumkin. Yaponiya oʻz taraqqiyoti bilan dunyoni hayratlarga solib kelayotgan davlat. Bu davlatning qudrati, boyligi, farovonligi, madaniyati eng namunali, nufuzli davlatlar sarasida eʼtirof etib kelinmoqda. Oddiy mushohada bilan tahlil qilinsa ham bu taraqqiyotning asosiy omillaridan biri ilmga maktabdan boshlab juda katta eʼtibor va talab qoʻyilishi va unga shart-sharoitning yaratilishidan muqoyasa qilinsa boʻlsa ilm va til, soʻz, nutq yonma-yon yuradi, bir-biridan quvvat oladi, bir-birini toʻldiradi, rivojlantirilishi uchun bir-biriga, yorituvchi, ifodalovchi, rivojlantiruvchi maʼnba va vosita boʻlib

qoladi. Soʻz sanʼati bilan oʻzining ijodiy salohiyatini namoyon qiluvchi ijodkor goh muallif asarini fikr, qalb, mushohada olami bilan uygʻunlashtirib oʻz tinglovchi, tomosho qiluvchilarga taʼsirli, betakror yoʻsinlarda taqdim qilsa, goh maʼlum mavzu, maqsad, gʻoya, shart-sharoitlar asosida ibratli voqealar, hayotiy lavhalar, sharxlar, tavsilotlar tahlillar, targʻibot, tashviqot maʼnbalarini talqin etadi. Demak sahnaviy soʻzlash sanʼatining ilk mashgʻulotlaridanoq nutq oʻstirish mashqlari bilan yosh mutahassisni nutqiy imkoniyatlari, mantiqiy mushohadasi, mustaqil, erkin, rang-barang fikri, qarashlari, borliq narsa va hodisalar, voqealarni faol munosabat bilan his qila olish va uni jonli, maroqli, taʼsirchan, badiiy yetuk maqomlarda erkin ifodalash qirralarini oʻzlashtirib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa koʻpincha avvalo yosh ijodkorning koʻrgan-kechirganlari, yana yorqin taʼsurotlari eshitganlari, oʻqiganlarini qayta tasavvur qilishi, hayolan tasavvur tasviriga tizishi va uni faol, jonli, betakror hikoyalashi bilan birga kichik va ibratli toʻqima voqealar tuzish va hikoyalashga, ogʻzaki insho yaratishga eʼtibor qaratiladi:

- Vazifa: 1. «Men sogʻingan manzara»
 2. «Men sogʻingan Inson»
 3. «Men sogʻingan mashgʻulot»
 4. «Men sogʻingan meva, taom»
 5. «Men sogʻingan tomosho»
 6. «Men sogʻingan suhbat»
 7. «Men sogʻingan oʻyin»
 8. «Men sogʻingan sayohat»

Yosh ijodkorlar qisqa muddatda ham muallif, boʻlib hayolan oʻzi sogʻingan manzarani qayta yaratadi, oʻzi chindan sogʻingan manzara va juda koʻrgisi kelayotgan tabiat manzaralari, daraxtlar, maysazorlar, bogʻ, qir-adir, jarliklari, qoyalar, togʻu shar-sharalar yoki goʻzal shahar manzaralari, inson bahri dilini ochuvchi, inson aqlu-zakovat, mehnati kashfkorligini koʻz-koʻz qiluvchi hiyobonlar va oʻzi hohlagan judayam koʻrgisi kelayotgan manzarani katta hoxish va qiziqish bilan maqtashi, manzara chizigʻilarini hamma tafsiloticha taʼriflashi vazifasi belgilanadi. Yosh ijodkorlar birin-ketin tasavvuran va ijodiy izlanadilar. Hayolan sayohat qilib eshituvchilarini ham qiziqtirib oʻzi sogʻingan manzarasini tasavvurda uygʻotishga intiladilar. Tasavvurlash va hikoyalashda har bir talaba oʻzidan oldingi hikoyalarni diqqat bilan eshitishi, eslab qolishi, oʻzi tuzgan jummalari boshqalarga oʻxshab qolmasligi uchun intilishi vazifasi qoʻyiladi.

Dastlab bogʻlovchi talaba fikrini toʻplash, eslash, tasavvurlash va hikoyalash uchun ikkilanishi jurʼatsizlik qilsa oʻqituvchi yoʻllanma taraqqasida tasavvur uygʻonishiga yordam beradi.

Aniq maqsadli murakkablashtirilgan mashqlar bilan ishlanish oralarida talabalar bilan Vatan madhi, tabiat olami, inson tabiati va boshqa turli mavzulardagi

she'rlar, donishmandlar hikmatlari, to'rtliklar, soddalashtirilgan uzun jumlati so'zlar, tez aytishlar bilan ishlanib to'ldirilishi vaqtdan unumliroq va samarali foydalanishga yordam beradi. Tavsiya qilinishi uchun ayrim matnlardan namunalarni tavsiya qilinishi, yoki yosh mutahassislar tanlagan mantlar bilan ishlanib mashqlardan so'ng nutqdagi imkoniyatlar tahlil qilinadi:

V A T A N.

Vatan guldir, Vatan shamoldir,
 Tushlarimni tinglagan irmoq.
 Vatan she'rdir, Vatan hayoldir,
 Boychiborlar suv ichgan buloq.
 Bir armonki ko'ksimga to'lib
 Ko'zlarimda aks etgan jola.
 O'yni bilan ovora bo'lib
 Onasiga to'ymagan bola.
 Yo'q, aslida vatan-quyoshdir
 Istuvchi hammani birday.
 Tog'lar-tog'mas, zo'r yoriltoshdir
 Men joyida tiz cho'kib yig'lay...
 Bu o'lkada Alpomish bilan
 Barchinoyning o'g'li, qizi bor,
 Gul yuzida titrarkan shabnam
 Demak baxt bor, demak sevgi bor.
 Bo'sh ko'nglimni shamol to'ldirar
 Men tug'ilgan uyning isiga
 Iltifoti shunchalik bo'lar
 Andijonning bitta qiziga!
 Besaranjom ko'nglimga malham
 Cho'li iroq nolalaridir,
 Atirgulning takanlari ham
 Shu vatanning bolalaridir.
 Vujudimning bo'lagi desam
 Men she'r yozgan bir parcha qog'oz.
 Siz qizganmang jon qadar suysam
 Vatan menga bobomdan meros.
 U mezbondir dunyoni kutgan,
 O'tkinchidir tandagi jonim.
 Quhog'imni gulga to'ldirgan
 Vatan-mening O'zbekistonim!

/Z.Egamberdiyeva./

Istdotli shoira Zamira Egamberdiyeva katta ijodiy mehr bilan yaratgan «Vatan» she’ri yosh ijodkorlarda vatan qadr qimmatini to‘laroq his qilish ularda o‘zi kamol topayotgan ona zamin, mo‘tabar vatanga asl insoniy ardoq va sadoqat uyg‘otish, milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish uchun rang-barang mavzular, mashg‘ulotlar orasida o‘zining munosib ijro namunalarining o‘zlashtirilishiga ma’nba bo‘la oladi, shuningdek buyuk saodat mustaqillikdan so‘ng milliy istiqlol g‘oyalari haqida jonli, tsirchan, qudratli so‘z san’atida har bir talabani ijro mahoratini takomillashtiruvchi qator sara badiiy publitistik asarlar yaratildi. O‘qituvchi va talaba tomonidan milliy istiqlol g‘oyalari singdirilgan, badiiy yetuk asarlar tanlanishining ahamiyati katta. Shu o‘rinda yana bir qancha matnlarni ko‘rsatib o‘tmoqchimiz:

Oyu-yulduzlari bo‘lgani bilan
 Vatan bo‘lolmaydi osmon baribir.
 Ko‘nglingga bir umid solgani bilan
 Malham bo‘lolmaydi doston baribir.
 Hokimdur har g‘iyoh, har bitta gulga,
 Hukmini o‘tkazur egalik qulga.
 Bahtiyor dilga-yu, majruh ko‘ngulga
 Hakam bo‘lolmaydi sulton baribir
 Oy mayli falakda yagona bo‘lsin,
 Yulduzlar oftobga begona bo‘lsin,
 Oshiqdar yo‘l topmay devona bo‘lsin
 Taskin bo‘lolmaydi oqshom baribir.
 Yaxshiliklar qildi tubsiz daryoga,
 Ko‘ksi oshiyon bo‘ldi qancha o‘q-yoyga
 Borini bersada bir kam dunyoga
 Ustun bo‘lolmaydi inson baribir.
 Men kuylayveraman qolguncha tildan,
 Yeru ko‘k aslida bir jonu, bir tan,
 Oyu yulduzlari bo‘lgani bilan
 Vatan bo‘lolmaydi osmon baribir.
 Tilimning uchida asragan gapim,
 Quyoshning nuridek sochilib ketdi.
 Hatto o‘zimdan ham sir tutgan dardim
 Yurakka chirmashib ochilib ketdi.
 Siz endi quyoshning nurlarin to‘smang
 O‘zimni qo‘yarga joy topgunimcha.
 Ayozda ochilgan gulga qo‘l cho‘zmang
 Tog‘ kabi yuragi muzlab qolgucha!.

Bu she'riy satrlar talabalar fikr olamiga, tasavvur dunyosi, qalbi dunyoni ona yurtini aslicha, bor qimmatini bilan idrok qilishi, qalbi bilan his etishi, yurt tarovati uning har bir giyohi, suvi, tuprog'i, tog'u-tosh, bog'-rog'lari, tarixiy qadriyatlari, ma'naviy hazinasini avaylab-asrash, o'zi va tinglovchilarda mehr va e'tiqod uyg'otish jarayonlariga tavsiya qilinadi. Yosh ijodkorlarning yurt sevarligi tabiat olamini, o'zi yashayotgan muhit, halqi vatanini chin insoniy muhabbat bilan seva olishi uning ijodkor shaxs sifatida shakllanishi uchun ahamiyati beqiyosdir. Bu matnlarni guruh ishi uchun ham ayrim talabalar bilan ishlanish jarayoni, guruh talabalari ishtirokida ishlansa ularning ibrat va hulosalariga yo'llanma bo'ladi.

Muallif matnini o'rganish, tahlil qilish va asar ustida ishlash jarayonida muallifning asarni yaratish tafsilotlari, uning dunyoga kelishi sabab bo'lgan voqealar tizimi, tasvirdagi davr ruhi, manzaralari tafsilotlari qahramonlarining hayoti, maqsadi intilishlarini qiyofasi, hulqi atvori, fazilatlarini chuqur o'rganish ijroviy yetuklikning asoslaridan biridir. Shu o'rinda asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan mashhur Amerika adibi Irving Stounning Oksford universitetida o'qigan ma'ruzadan ayrim fikrlarini qiyosan keltirish sahnaviy so'z ijrochilik san'atini egallash uchun foydalidir:

«Biografik qissa bir inson hayotining hujjatlar bilan tasdiqlangan haqqoniy tarixi bo'lib, unda hayotdan olingan hikoyalarga sayqal beriladi va muallif tomonidan chinakam badiiy asar darajasiga ko'tariladi. Bu janrning asosida syujetlarni yetkazib beradigan eng yaxshi ma'nba insondir va shu ma'noda inson hayoti bitmas tugamas hazinadir, degan e'tiqod yotadi».

/Jahon adabiyoti № 7. 2000 yil. 147-bet. Irvin Stoun:

Biografik qissa haqida./

Irving Stoun hozirda asarlari bebaho sanaladigan musavvir Vinset Van Gogning biografik qissasini yaratish uchun o'zining Ovro'paga kelib, Vinset yurgan yo'llarni bir-bir bosib o'tgani, u Borinjda tushgan shaxtaga tushgani, Deniz xonimning non do'koni yonida u ijaraga turgan uyda ijaraga turgani, Van Gog kabi Gollandiyada bir ruhoniyni uyida yashagani, Fransiyaning janubini boshdanoyoq yayov kezgani Sariq uyda ishlagani, Van Gogni yotqizishgan psixiatriya hastahonasida yashagani, nihoyat Overdagi kichkina mehmonhonada Van Gog vafot etgan honada, u vafot etgan to'shakda bir kecha yotganini e'tirof etadi. /Jahon adabiyoti № 7. 2000 yil. 152 bet./ Irving Stoun, Ernst Hemenguey bilan uchrashganida Hemenguey shunday degan edi: To'qima-aslida yo'q narsa. Biz nimaiki yozsak, ularning hammasini boshimizdan kechirgan voqealardan olamiz yohud ularni boshqalar boshidan kechirganda kuzatgan bo'lamiz. /Jahon adabiyoti. 2000 yil 156 bet./

Yosh ijodkor ma'naviyatining boyishida uning tasavvur olamining rang-barangligi, bilimi dunyoqarashi boyligi imkoniyat qadar badiyat, adabiyot, san'at asarlaridan bohabarligi bilan bog'liqdir.

Yetuk ijodkor bo'lishning asosiy shartlaridan biri ijodiy fantaziyaning boy, betakror namunalaridan bo'lmish jahon adabiyotining durdona asarlaridan, tasviriy san'at, musiqa, teatr, kino, televideniya yaratilgan eng yetuk sara ijod namunalarini chuqur o'rganganligi bilan farqlanadi.

Talabani yanada topqirlikka izlanishga mashg'ul qilib uning tasavvurini boyitish, talaffuz mahorati, tasavvur olami jonli tabiiy so'z san'ati uyg'unlikda takomillashishi uchun ko'plab turli murakkablashtirilgan mashqlar bilan muntazam shug'ullanishini talab qiladi.

Turfa tovushli mashqlar.

Tovushlarning unli undosh tovushlarni yondosh kelishi orqali «Tovushmachoq» mashqi ham tovushlarning aniqligi, talaffuzning erkinligi ustida ishlash jarayoni bilan mashqqa yana qator qo'shimcha vazifalar, shart-sharoit asosida maqsad, hati-harakat imlolar qo'yiladi:

Dramatik yo'nalishda tahsil olinayotgan talabalar uchun mutahassisligi doirasi va yo'nalishda vazifa qo'yilsa Musiqali teatr aktyorligi, Qo'g'irchoq teatri aktyorligi, rejissyorlik yo'nalishlarda o'ziga hos vazifalar belgilanadi:

- «Ud-jvz-mdr» tovushlari orqali go'yo bozorda sotuvchilar
- o'zlarining turli mollariga uzluksiz va faol haridor chorlaydilar.
- «Fkm-chkm-cthp-bdupp» asab qo'zg'atadigan tasavvurdagi
- voqealar ta'siridan so'ng asabiy odamlar izhori.
- «Chms-chqrr, jg'rrr-jung'urr-mbdrmm-mchrchqtrmm» shoirona
- lirik orzular izhori.
- «Hbk-krakama-chuturr, uvvptass-jfvptraka» turfa g'iybatlar
- izhori.
- «Htkrml-pchptra-kamkrakaturr» hayratovuz manzaralar
- tasvirlar, maqtash hayratga solish.
- «Juvjumala jumburr-juvara jabudurumm» havf-hatarlardan qat'iy ogohlantirish, falokatdan asrash, oldini olish, qo'rqitish.
- «Tumparaqa qaraqatrom iraparaqatrasruri, torri qora
- qatritupara tru riro alfazra jmfzlastrupp-jaja baji-jo, julfazlbrollor» yomonlash, fosh qilish, nafrat uyg'otish.
- Musiqali teatri aktyorligi bo'limida shu tovushlar va vazifaga
- amal qilingan holda tovushlarni o'zbekcha, gruzincha, hindcha, turkcha, Afrika yoki Yevropa halqlari milliy musiqa ritmlari orqali ham ishlanishi

maqsadga muvofiqdir. Tovushlarning turli va yondosh kelishi, yodda qolishi qiyin kechadi, dastlab yozib olib o'qib berishi mumkin, ammo muntazam takrorlab fikr harakat va tasavvur orqali ishlaganda yod olinishi qiyin kechmaydi. Aksincha, hotirani fikrlashni, tasavvurni jonlantirish uchun ham qo'l keladi. Tovushlarni yondosh talaffuz qilish nutq a'zolarining faol va erkin burro harakatlanishi uchun yordam beradi:

- Nmlkz-zlmkn-cht-trk-chrm trnmll.
- Rrrchtptrr-tpchtrchrqrm.
- Fqg'hchmrr rrovv-roqo-ruqo-roqomtrrm.
- Ov-loqo-roqotum rrraqatom, tovushlari orqali talabalar
- tasavvur va fikran quyidagi savollarga javob izlaydilar: oldin tovushlar orqali keyin so'z bilan:
- Siz uchun betakror go'zal manzara, mavjudot, daraxt, suv osti olami, gullar, o'simliklar, tog' dengiz, daryo, qiru-adirlar.
- G'aroyib olam haqida ta'surotlar: g'orlar, turfa olam manzaralari, o'rmonlar, chakalazorlar, sharsharalar manzarasi.
- Orroqoro ruqorong-ong'qorog'ochchong-ungaqaraqatrong-ruqa-raqa trong.
- Chiyraqatung-jumaroqatung-tupara-rapa-trupp.
- Jong-joqo-jung-juma-romo-jum.
- Tupura-pagu-turapa-tapara-trong.
- Chuhraqachung-jumara-jujaromm.
- Bnn-jmano-mona-jumm.
- Tuprapatum-tong-raqatum, tuva-jaba-bdromm.
- Chovrajaju-juvarajujorr-rrroto-proot.
- Turr-rapa-tp-tomm-ing-kara-kichiringg.
- Chp-tp-tpchtrmm, gum-chalarap-chomm.
- Chang-raqa-chumm-chumm-lim-dam-raba-duba-rang.
- Dam-raba-duba-rang-rapa-rapa-tuparop.
- Purr-rapa-tupu-top-apala-lupp-pong.
- Lupala-lupang-tqrm-qchmrqchmrr.
- Zul fazl fulumuchuturumbudurm.
- Juma-rama-ramajum-jufu-zu budubrm.
- Allaqa-landon-ullaqa-long.
- Jumana-majom-jom-na-madum-ovaja-bu-jom.
- Ovovo-vudo-uvvodo-di-dong-lola-la-li-lovv.

- Luvv-la-la-li-lo-lov-lov-lo-ludong.
- Hovlo-lo-lulovv lov-lo-lo-lo'-lo'-lovv.
- Habara-huburr-jumara-jo'moll.
- Moji-muji-mujoll-moji-muju-mujolomm.
- Mrqrumurr-mura-qurumurr vrr vdurumm.
- Bdrmdr-mlm-mdrr-bdmdrmm-mk-mklmm.
- Nmrrqchchmm zzzbdmm bdz-bdmmfchzbdm.
- Bzmlkz mlmbdr fzm dzm mlchtmrr.

Tovushlar orqali:

Men sogʻingan mashgʻulot, manzara, siymo, taom, tomosho, voqea, meva va boshqa tafsilotlar eslanish tavsiya etilishi yosh ijodkorlarni tasavvurlari rang-barangligi va uning tovushlar orqali yetkazishga urunish oʻquvini rivojlantirishlariga yordam beradi.

Talabaning erkin tasavvur va tovushlar talaffuzi mashqlaridan soʻng turli mavzulardagi sheʼrlar, voqea adabiy matn, hikmatlar, publitsistik tasvirlar orqali amaliy ijrodagi natijasini eshitib koʻrish, tahlil qilish fikr almashishga tavsiya etiladi:

Shu oʻrinda Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston halq shoiri Ibroyim Yusupovning XXI asrga sheʼri guruhli umumiy ish uchun tavsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir:

Salom, yangi asr!
 Adashgan sayyod
 Notanish eshikni asta qoqqanday,
 Boʻsagʻang oldida bul insoniyat
 Hadik, umid bilan senga boqqanday
 Mangu yashamoqning ishqida yonib,
 «Yangi hujayra»lar kashf etgan odam,
 «Ozon tuynugi»ning yirtigʻin topib,
 Ming yillar soʻrogʻin soʻrab damodam.
 Sening kimligingni bila olmasdan.
 Boʻsagʻangda turib boshi qotadi.
 Bir telba kimsaday aqldan ozgan,
 Qirq ming hayol bilan oʻyga botadi.
 Sen qanday boʻlarsan?
 Timsoling qanday?
 Havf-hatardan
 Hapqiradi hayolim
 Oʻt-muz bilan oʻynab borayotganday,
 Ruhiyatni qiynar hamma savoli,

Ahlu-ilm, zakovat tillar topishib,
 Jahon lol qolguday strlarni ochar,
 Va lekin manfaat, fe'llar to'qnashib,
 Dunyo-bebaraka kulbaga o'xshar,
 Odamzod bo'l uyda bir yashab turib
 Bir-birin sevib ham jirkanyotgandir,
 Shayton hozir kompyuterga o'tirib,
 Insondan tajriba o'rganayotir.
 Jahon bozorida nelar yo'q hozir
 Sotiladi qonli qirg'in quroli
 Bizni ishq bilan chopqilab davr,
 Dollar kelar yo'lga tuzoq quradi.
 Bul davrning g'alat atamasi ko'p.
 «Mafiya», «Korrupsiya», «Terror» yana ne
 «Narkotik», «Manyak», «Spid»-dilning jabri ko'p,
 aysang g'am bosadi ko'ngil honani.
 «O'zim bo'lay degan qadimiy illat,

Inson ko'nglin zax suv kabi joylagan.
 Nafsu takabburlik tikani gullab,
 Qurol bilan bola kabi o'ynagan.
 Yotsirab el-elni, inson insonni,
 Bajhonada to'xtatib yo'l darbandlari,
 «O'tish davri» degan qattol zamonni,
 biz o'tayotirmiz anchadan beri.
 Sen bunga ne deysan ey yangi asr?
 Kelajakka ne tayyorlayotirsan?
 Sendagi muruvvat, aqlu-tafakkur
 Qay ahvolda? Qandoq kutayotirsan?
 Eski asring yaxshi yomon merosin
 Sen albatta qabul qilib olarsan
 Odamzodning fe'li, buzuq dunyosin,
 Tuzayman deb ko'p harakat qalarsan.
 Lekin sen ergashib eski asrga,
 Unga havas etma, saqla sal ibo.
 Insonni ajratma qara oriyga,
 Halqlar taqdirini qilma tajriba.
 Bizlar ko'rdik g'aflat ketganda oshib,
 Daryolar ters endi, dengiz quvradi
 Bir-biriga yovuz urushlar ochib

Odam o'qlar otdi, qirdi uvladi.
Lekin insoniyatda zo'r bir umid bor
Dunyo ezgulikka tayanayotir.
O'zini tanigan halqlar bahtiyor
«Mustaqil hayot» deb uyg'onayotir
yovuzlik takabbur qirg'inlar ishi,
u hozir xech kimga boshini enmas,
lekin qay makonda halq degan kishi
tinch, ahl-farovon yashashni suymach?
Kel sen yangi asr!
O'rnat adolat.
Umid jayhunday toshib to'lgaysan!
Aql quriltayin chorlab odamzod,
Qiyosi yo'q oltin asr bo'lgaysan.
Bizdan aqlliroq, bahtliroq avlod
Kelib yangi asrning hur bolalari,
Bag'ringda topishib mehri-muruvvat
Tutashsin do'stlikning «ipak yo'llari».

VI. KEYSLAR BANKI

VI. KEYSLAR BANKI

1-keys. Pedagogika bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda —Ta'lim jarayoni tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta'lim jarayoni – bu:

1. O'quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko'nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2. O'quvchilar tomonidan BKMning o'zlashtirilishi (o'qishi)ni ta'minlovchi jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o'qitish va o'qitish – ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro shartlangan tomonlaridir).

3. O'qituvchining o'quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o'zlashtirilishiga yo'naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o'zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o'quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta'minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. O'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Savollar:

1. Ulardan qaysi biri ta'lim jarayonining mohiyatini to'la yoritadi?
2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

—Pedagogika faniga oid bir necha manbalar.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1. Mazmuniga ko‘ra barcha ta’riflar ham ta’lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, muayyan fan har bir kategoriya bo‘yicha o‘zining aniq terminologiyasiga ega bo‘lishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, obyekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.

2. Keltirilgan ta’riflar asosida tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

2-keys.

Birinchi sinfda o‘qiyotgan Dilshod she’rni ifodali o‘qib bergani uchun —besh baho oldi. O‘qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o‘zi yod olgan she’rni oyisiga ham o‘qib bermoqchi bo‘ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o‘g‘liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o‘ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko‘chaga chiqib ketdi.

Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta’sir o‘tkazadi.

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

- Pedagogika va
- Psixologiyaga oid adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.
2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag‘batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazadi, asta-sekin unda qo‘rslik, befarqlik, o‘z-o‘zini past baholash, o‘ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

3-keys.

1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.
2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.
3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.

Tinglovchilar uchun metodik ko'rsatmalar

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.
2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.
3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.
4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.
5. Ko'zgzama metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

VI. GLOSSARIY

VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Aktyorlikka oid mahorat fanlari	tashkiliy va badiiy maqsadlarga erishish uchun talabalar va shu sohaning vakillariga beriladigan saboqlar sohaga mo'ljallangan darslar OTM yoki tashkilotning qarori bilan belgilanadi.	an integrated management process which sees mutually satisfying exchange relationships with customers as the route to achieving organizational and artistic objectives
Rejissyorlikning o'ziga xos tendensiyalari	Ma'lum bir kinofilm yoki spektaklni namoyishi yoki tayyorlanishiga qaratilgan senariy asosida yaratilayotgan badiiy asarni namoyish etishda zarur bo'ladigan qonun-qoidalar.	an economical and cultural relationship system of fine and applied arts, where artwork's supply and demand are formed, aesthetic price and material value are assessed
Rejissyor	Spektakl yoki kinofilm sahnalashtirishga ma'sul boshliq yoki rahbar.	a process of buying and selling goods or services by offering them up for bid, taking bids, and then selling the item to the highest bidder.
Interpretatsiya	Kinoasar va spektaklni olinish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiluvchi muhim omil.	the variables, such as price, promotion, and service, managed by an organization to influence demand for a product or service
Kinokampaniya	Turli xildagi kinofilmlarni ishlab chiqaruvchi va ular ustidan bevosita nazorat qiluvchi davlatga qarashli yoki xususiy tashkilot.	it's not only organisation's successful operation in the past, but also a result of activity condition in the present and future
Sahna dekoratsiyasi	Kino yoki spektaklni namoyish qilishga kerak bo'ladigan qurilmalar majmuasiga aytiladi.	feasible consumers, possible consumers
Antrakt	Aktyorlarga film yoki spektaklni namoyish oralig'ida dam olish uchun beriladigan tanaffus.	the general impression that a person, organization, or product presents to the public
Sahnalashtirish	Asarning mazmun mohiyatidan kelib chiqib unga munosib aktyorlarni tanlab namoyish qilishga tayorlanish jarayoni.	the establishment of objectives and the formulation, evaluation and selection of policies, strategies, tactics and actions required to achieve them

Afisha	konofilm yoki spektaklni namoyishi namoyishi qachon bo'lishi to'g'risidagi tomoshabinlarga xabar yetkazishni odatiy usuliga aylangan qog'oz vositasi.	a strategy indicating the specific target markets and the types of competitive advantages that are to be developed and exploited
Fon	Kinofilmlar yoki spektakl tayyorlanish jarayonida sahna va inshootlarga beriladigan tasvir rangi u kino nufuzi va saviyasini ham belgilaydi.	a paid form of non-formal communication that is transmitted through mass media such as television, radio, newspapers, magazines, direct mail, public transport vehicles, outdoor displays and Internet
imidj	Sahnada rol ijro etayotgan aktyorning odatiy soch turmagi yoki kiyimlardan foydalanishi.	a person or company that buys and sells works of art
Syujet	Asarni keyingi sahna kurinishlari bilan bog'lashga xizmat qiluvchi badiiy sar unsurlaridan biri	the practice of creating, promoting, or maintaining goodwill and a favourable image among the public towards an institution, public body
Rol	Aktyorga bajarilishi kerak bo'lgan ijro vositasi u senariyda qanday bo'lsa shu tarzda amalga oshirilishi lozim.	the giving out of information about a product, person, or company for advertising or promotional purposes
Prodyusser	Film yoki spektaklni boshdan oxirigacha inventarlar va aktyorlarni moddiy qo'llab-quvatlovchi rahbar.	a strongly felt aim, ambition, or calling

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

- Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
- Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
- Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O‘zbekiston, 2018. – 507 b.
- Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
- Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
- O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi PQ-4068-son Qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4584-son Qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish

strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’gi PF-5544-sonli Farmoni.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi PF-5729-son Farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida’gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’gi 797-sonli Qarori
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’gi PF-6097-sonli [Farmoni](#).
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

SH. Maxsus adabiyotlar

- S.Inomxo‘jayev, L.Xo‘jayeva “Badiiy so‘z mahorati” qo‘llanma. “G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at” nashriyoti. T – 1972 yil.
- S.Inomxo‘jayev “Badiiy o‘qish asoslari” o‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” nashriyoti. T-1973 yil.
- N.Aliyeva “San‘at – mening hayotim” uslubiy qo‘llanma. “G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at” nashriyoti. T-1975 yil.
- S.Inomxo‘jayev, A.Zunnunov “Ifodali o‘qish asoslari” o‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” nashriyoti. T-1978 yil.
- A.Sayfuddinov “Adabiy asar va ijrochilik mahorati” o‘quv qo‘llanma. “Fan” nashriyoti. T-1980 yil.
- I.Djumanov “Qo‘g‘irchoqlar so‘zlaydi” T-1992 yil.
- A.Sayfuddinov “Sahna nutqi” (Xrestomatiya) “O‘qituvchi” nashriyoti. T-1994 yil.
- I.Po‘latov “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” nashriyoti. T-1994 yil.
- R.Usmanova “Nutq san‘atida tez aytishning ahamiyati” qo‘llanma. T-1995 yil.
- M.Isroilov “Dialog ustida ishlash” qo‘llanma. T-1995 yil.

- M.Isroilov “Nutq san’atida psixologik pauzaning ahamiyati” qo‘llanma. T-1997 yil.
- A.Nosirova “Shaxs o‘yin madaniyati” monografiya. “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti. T-2001 yil.
- A.Nosirova “Jonli so‘z san’ati asoslari” o‘quv qo‘llanma. M.Uyg‘ur nomidagi TDSI nashriyoti T-2003 yil.
- M.Isroilov “Monolog ustida ishlash” qo‘llanma. M.Uyg‘ur nomidagi TDSI nashriyoti. T-2003 yil.
- B.Bobonazarova “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanma. T-2004 yil
- R.Jumaniyozov “Nutqiy mahorat” qo‘llanma. “Adolat” nashriyoti. T-2005 yil.
- Z.Alimjanova, A.To‘laganov “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanma. “Fan” nashriyoti. T-2005 yil.
- I.Djumanov “Hayotbaxsh so‘z san’ati asoslari” qo‘llanma. T-2006 yil.
- A.To‘laganov “She’riy asarlar ijro mahorati” o‘quv qo‘llanma. “Musiqqa” nashriyoti. T-2006 yil
- Z.Alimjanova “Sahna nutqi” (Xrestomatiya) T-2007 yil.
- X.Djuldiqorayeva “Sahna tili bilimdoni” qo‘llanma. “Kuro-Print MCHJ” nashriyoti T-2007 yil.
- I.Djumanov “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. T-2007 yil.
- X.Djuldiqorayeva “Sahna nutqi” (Talaffuz texnikasi) qo‘llanma. T-2008 yil.
- O‘.Nurmuhammedova “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanma. M.Uyg‘ur nomidagi DTSI nashriyoti. T-2008 yil.
- G.Xoliqulova “Sahna nutqi” (Tarixiy dramalar talqinida) o‘quv qo‘llanma. “Karloo” nashriyoti. T-2008 yil.
- A.Nosirova “Jonli so‘z san’ati asoslari” (Qoraqalpoq tilida) o‘quv qo‘llanma. “Print-Graf” nashriyoti T-2008 yil
- M.Xodjimatoeva “Sahna nutqi texnikasi va ijrochilik mahorati” multimediy. T-2008 yil.
- A.Nosirova “Jonli so‘z san’ati” o‘quv qo‘llanma. “Musiqqa” nashriyoti. T-2009 yil.
- R.Qodirov “Ko‘ngildan o‘tkazganlarim” risola. “Fan va texnologiya” nashriyoti. T-2009 yil.
- A.To‘laganov “Sahna nutqi” darsligi. “Musiqqa” nashriyoti. T-2010 yil.
- M.Xodjimatoeva “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanma. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. T-2011 yil.
- M.Xodjimatoeva “Sahna nutqi” (Xrestomatiya). “Yangi asr avlodi” nashriyoti. T-2011 yil.
- A.Nosirova “Sahna nutqi” darsligi. “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti. T-2013 yil.

- “Sahna nutqi masalalari” (Maqolalar to‘plami) “Abu matbuot-konsalt” nashriyoti. T-2014 yil.
- SH.Yusupov “Boshlovchilik mahorati” o‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti. T-2014 yil.
- I.Djumanov “Badiiy so‘z mahorati” o‘quv qo‘llanma. “Abu matbuot-konsalt” nashriyoti. T-2015 yil.
- R.Qodirov “Rejissura asoslari” (O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev ijodi misolida) monografiY. “Navro‘z” nashriyoti. T-2015 yil.
- R.Jumaniyozov “Ta’lim, Tarbiya, Taffakkur, Taraqqiyot” (Chizgilar) – “Abu matbuot-konsalt” nashriyoti. T-2015 yil.
- M.Isroilov “Monolog, dialog va psixologik pauzaning ahamiyati” “Navro‘z” nashriyoti. T-2015 yil.
- G.Xoliqulova “Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati” monografiY. “Fan va texnologiya” nashriyoti. T-2015 yil.
- R.Jumaniyazov “Notiqlik san’ati” o‘quv qo‘llanma. “Lesson-Press” nashriyoti. T-2016 yil.
- R.Qodirov “Aktyorlik mahorati” o‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti. T-2018 yil
- R.Qodirov “Notiqlik san’ati” o‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti. T-2019 yil
- R.Qodirov “Notiqlik san’ati” darslik. “Navro‘z” nashriyoti. T-2019 yil
- M.Xodjimato va “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti. T-2019 yil
- N.Aliyeva “San’at – mening hayotim” G.Xalikulova tomonidan qayta to‘ldirilgan nashri. MonografiY. “Navro‘z” nashriyoti. T-2015 yil.
- D.Jumanova “Sahna nutqi” (Yangi tarix) risola. “Navro‘z” nashriyoti. T-2020 yil
- D.Jumanova “Sahna nutqi” xrestomatiY. “Navro‘z” nashriyoti. T-2020 yil

IV. Internet saytlar

- <http://edu.uz> <http://lex.uz>
- <http://bimm.uz>
- <http://ziyonet.uz>
- <http://www.dsmi.uz>.
- <http://www.kino-teatr.ru>
- <http://www.artsait.ru>